**Preliminaring** (preliminaring) – oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasidan istiqbolli yosh mutaxassislarni amaliy ish tajribalari yoki stajirovkalar tashkil etish orqali ishga jalb etish, kelajakda korxonaning muvaffaqiyatli xodimlaridan boʻlishiga ishonch bildirishdir. Bunday vaziyatda yosh xodimlarni oʻqitish va ish faoliyatiga oʻrgatish uchun vaqt sarflashni talab qiladi.

**Skrining metodi** – nomzodlarni sirtdan va rezyume boʻyicha qidirishni nazarda tutadi. Nomzod tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlar asosida uning vakant lavozim talablariga, xususan, tajribasi, ma'lumoti, qobiliyati va boshqa jihatlariga mos kelishi tahlil qilinadi. Odatda ushbu metod yirik tashkilotlar tomonidan qoʻllaniladi, ishga kirish uchun koʻplab talabgorlar orasida mos nomzodni tanlab olishda foydalaniladi.

**Maqsadli qidirish metodi** (Executive search) – rahbarlik yoki muayyan lavozimlarga nomzodlarni qidirish va tanlashda foydalaniladi. Qidirish va tanlashning boshqa turlaridan farqli ravishda, ushbu metoddan foydalanishda asosiy e'tibor tashkilotni yana-da rivojlantira olish qobiliyatiga ega boʻlgan yuqori darajadagi iqtidorli mutaxassislarga qaratiladi. Ushbu metodni qoʻllashda nomzodlarni qidirishni samarali yoʻllaridan foydalanish, tashkilot imidjini oshirish bilan shugʻullanish, tanlab olingan nomzodning roziligini olish uchun lavozim jozibadorligini oshirishga e'tibor qaratish kerak boʻladi. Mazkur metod tarkibiy jihatdan turli yoʻnalishlarga boʻlinadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tadqiqot natijalariga va bu boradagi ilmiy adabiyotlarga asoslangan holda sohani rivojlantirish uchun quyidagilar taklif qilinadi:

malakali mutaxassislarni jalb qilish uchun davlat fuqarolik xizmatining jamiyatdagi nufuzini oshirish. Ta'kidlash lozimki, malakali yoshlarni davlat xizmatiga jalb qilish nafaqat inson resurslari bilan ishlash boʻlinmalarining, balki davlat hokimiyati idoralarining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Bunda sohaga yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish, yangi gʻoyalarni shakllantirish, mehnat faoliyatini yangicha nigoh bilan baholash, yuqori darajadagi motivatsiya, salohiyatini rivojlantirish, karyera va boshqalar davlat xizmatiga yangicha qarash istiqbollarini ochib beradi;

tanlov jarayonida har bir nomzodni baholash metodikalarini takomillashtirib borish lozim. Bu kabi metodikalarni joriy etishda davlat xizmatining barcha talablarini qamrab olishi, nomzodni har bir lavozim mezonlari asosida aniq baholashni, xususan shaxsiy, ishchanlik, kasbiy, xulq-atvor va boshqa jihatlarini qamrab olishi kerak boʻladi. Shuningdek, nomzodlarning kompetentligini oʻrganishda, uning strategik fikrlashi, shaxsiy samaradorligi, jamoaga ta'sir koʻrsata olishi, turli vaziyatlarda majburiyatlarini bajara olishi va boshqa jihatlariga e'tibor qaratish;

davlat fuqarolik xizmatiga nomzodlarni jalb qilishning yangi modellarini ishlab chiqish va joriy qilish. Bunday tizimning ishlab chiqishda metodologik, texnologik va tashkiliy jihatlarini qamrab olishiga e'tibor qaratish orqali amalda qo'llanib kelinayotgan ishga qabul qilish bo'yicha modelni takomillashtirishga xizmat qiladi;

jamoatchilikning davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish va kadrlar bilan ta'minlash bilan bog'liq masalalardagi ishtirokini kengaytirish;

ilg'or xorijiy tajribalarni e'tiborga olgan holda davlat fuqarolik xizmatchilarining bilimi va malakasini oshirish tizimini yangi darajaga olib chiqish.

***Iqtiboslar/Сноски/References:***


*1. Shifting Skills, Moving Targets, and Remaking the Workforce // ttps://www.bcg.com/publications/2022/shifting-skills-moving-targets-remaking-workforce*

*2. Борщевский Г.А. Государственная служба. – М.: Юрайт, 2022. – С. 163.*

*3. Recruitment and Selection: The Most Critical HR Function // https://www.ismartrecruit.com/blog-recruitment-and-selection-critical-hr-function*

*4. Sugandha Srivastava. Personnel Selection Process: Definition, Steps, Challenges and More. 16.04.2024 // https://www.intervue.io/blog/personnel-selection-process-definition-steps-challenges-and-more*

*5. Michael Young. The Rise of the Meritocracy 1870-2033. Penguin books. Thames and Hudson. 1958. 184 p.*

*6. Xolov A. Inson resurslarini boshqarishda meritokratiya tamoyilining ahamiyati. Jamiyat va boshqaruv jurnali. Toshkent. 2022-yil 4 (98). – B. 158.*

*7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/6445145*

*8. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 22 avgustdagi «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi O'RQ–788-son Qonuni // https://lex.uz/uz/docs/6145972*

*9. Davlat fuqarolik xizmatida meritokratiya tizimini joriy etish yo'nalishi // https://argos.uz/uz/static/faoliyat-1*

*10. Цифровизация госуправления: опыт Сингапура. 17.10.2022 // https://cdo2day.ru/practice/ot-umnogo-pravitelstva-k-umnoj-nacii-opyt-singapura/*

*11. Civil Service Selection Test, Interviews, Assessment Centre. Practice Guide 2024 // https://www.graduatesfirst.com/civil-service-aptitude-tests*

*12. Franzino M., Guarino A. The $8.5 Trillion Talent Shortage // https://www.kornferry.com/insights/this-week-in-leadership/talent-crunch-future-of-work*

*13. Luthando Vikilahle. The evolution of recruitment trends in 2023 - and what to expect in 2024. 30.10.2023. // https://www.gq.co.za/wealth/the-evolution-of-recruitment-trends-in-2023-and-what-to-expect-in-2024-5c0bbb19-70ac-4119-a60a-15e4c2a39f23*

*14. Matthew Jeffery. Recruitment 4.0: Crowdsourcing, Gamification, Recruitment as a Profit Center and the Death of Recruitment Agencies! // https://www.ere.net/articles/recruitment-4-0-crowdsourcing-gamification-recruitment-as-a-profit-center-and-the-death-of-recruitment-agencies*

UDK: 301.085:392

***Gulsum TAGIEVA***
**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti, sots.f.f.d(PhD)**
**e-mail: gt120886@gmail.com, tel.: (90) 250 87 73**
**O‘zMU dotsenti, s.f.d. X.T.Xusanova taqrizi asosida**

# IJTIMOIY TA'MINOT TIZIMINING SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARI

♦ *Ijtimoiy ta'minot masalasi sotsiologiyada fundamental muammolar sirasiga taalluqli bo‘lib, uning tadqiqot tarixi uzoq o‘tmishdan boshlanadi. Maqolada "ijtimoiy ta'minot" tushunchasi, sotsiologiya ilmiy maktablarining yetuk namoyandalari O.Kont, E.Dyurkgeym, Zimmel, P.Sorokin, M.Veber, R.I.Ivanova, M.P.Zaxarov va E.G.Tuchkovalar, S.V.Shishkin, V.I.Bogdanovskaya, A.K.Solovyov, N.B.Topka, N.A.Volgin, V.P.Galaganov kabi olimlarining ijtimoiy ta'minot fenomeni haqidagi ta'limotlarining ahamiyati bugungi kun nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda asoslab berilgan. Shuningdek, ijtimoiy ta'minot tizimini rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, zamonaviy ijtimoiy ta'minotning tuzilishi va uning o‘zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar, ijtimoiy ta'minot institutining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-sotsiologik tahlili bayon qilindi.*

♦ *Проблема социальной безопасности является одной из фундаментальных проблем социологии, и история ее исследования начинается в далеком прошлом. В статье рассматривается понятие «социальная безопасность», зрелые представители научных школ социологии О.Конт, Э.Дюркгейм, Зиммель, П.Сорокин, М.Вебер, Р.И.Иванова, М.П.Захаров и Е.Г.Тучковалар, С.Значение понятия «социальная безопасность» учения таких ученых, как В.Шишкин, В.И.Богдановская, А.К.Соловьев, Н.Б.Топка, Н.А.Волгин, В.П.Галаганов о феномене социальной защищенности является обоснованным с сегодняшней точки зрения. Также были описаны современные тенденции развития системы социального обеспечения, структура современного социального обеспечения и факторы, влияющие на ее изменение, проведен историко-социологический анализ становления и развития института социального обеспечения.*

♦ *The issue of social security is one of the fundamental problems in sociology, and its research history begins in the distant past. In the article, the concept of "social security", mature representatives of scientific schools of sociology O.Comte, E.Durkheim, Zimmel, P.Sorokin, M.Weber, R.I.Ivanova, M.P.Zakharov and E.G.Tuchkova. The importance of the teachings of scientists such as V.Shishkin, V.I.Bogdanovskaya, A.K.Solovyov, N.B.Topka, N.A.Volgin, V.P.Galaganov about the phenomenon of social security is justified from today's point of view. Also, the modern trends in the development of the social security system, the structure of modern social security and the factors affecting its change, the historical and sociological analysis of the formation and development of the social security institution were described.*

***Kalit so‘zlari:*** *Ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minotga oid Fransiya sotsiologiya ilmiy maktabi, Avstriya-Germaniya sotsiologiya ilmiy maktabi, Buyuk Britaniya sotsiologiya ilmiy maktabi, Amerika sotsiologiya ilmiy maktabi, Rossiya sotsiologiya ilmiy maktabi.*

***Ключевые слова:*** *социальное обеспечение, социальное обеспечение, социальное обеспечение Французская школа социологии, Австро-немецкая школа социологии, Британская школа социологии, Американская школа социологии, Российская школа социологии.*

***Keywords:*** *Social Security, Social Security, Social Security French School of Sociology, Austria-German School of Sociology, Great Britain School of Sociology, American School of Sociology, Russian School of Sociology.*

**Kirish.** Sotsiologiyada ijtimoiy ta'minot masalalari har doim dolzarb mavzu hisoblanadi. U ijtimoiy munosabatlarda, moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarishda muhim o'rin tutadi. Pensionerlar, nafaqaxo'rlar, ijtimoiy yordam hamda ijtimoiy xizmatga, bir so'z bilan aytganda ijtimoiy ta'minotga muhtoj qatlamlarning jamiyatdagi mavqei va jamiyat taraqqiyotidagi ishtiroki darajasi ham davlatga, ham har bir ehtiyojmand qatlamning shaxsiy hayotiy pozitsiyasiga bog'liq. Ijtimoiy ta'minot institutlari ehtiyojmand qatlamlarni o'zgartirishning eng faol subyektidir. Ijtimoiy ta'minot institutlari hamda ijtimoiy ta'minot subyektlari o'zlarining taklif-tavsiyalaridan foydalangan holda yangi ijtimoiy ta'minot institutlar yaratadilar va mavjudlarini o'zgartiradilar.

Ijtimoiy ta'minot tizimini o'rganishda sotsiologiya ilmiy maktablarining nazariy yondashuvlari, ularning o'ziga xos xususiyati jamiyatning bir qismi sifatida ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiolog olimlar ijtimoiy ta'minot jamiyat ijtimoiy tuzilmasida mustahkam o'rnashgan soha sifatida institutsional yondashuv usullarini ifodalovchi hayotning asosiy jihatlarini o'rganadilar. Ijtimoiy ta'minotni o'rganishdagi ilmiy mas'uliyat shundan iboratki, ijtimoiy ta'minotning har qanday muammosini sotsiologik tadqiq qilish fundamental nazariy asosda, faktik materiallarni olish, tushuntirish va amaliy maqsadlarda qo'llash usuliga fundamental yondashuvlarni belgilovchi metodologik asoslar asosida qurilishi zarur. Ijtimoiy ta'minotning har qanday turi, ularni istalgan jabhada o'rganish, ijtimoiy ta'minot institutlari (ijtimoiy sug'urta, nafaqa, pensiya, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy yordam va boshqalar), ularning konsepsiyalarini qabul qilish, ijtimoiylashtirishni konkretlashtirishni nazarda tutadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur maqolada biz ijtimoiy ta'minotga oid dunyo miqyosidagi Fransiya, Avstriya-Germaniya, Buyuk Britaniya, Amerika hamda Rossiya sotsiologiya ilmiy maktablarini o'rganib chiqdik.

Ushbu jadvalda biz sotsiologiya ilmiy maktabi namoyandalari, ular yashab ijod etgan davrlar hamda mazkur ilmiy maktablar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy ta'minot rivojlantirishga oid nazariyalarni ko'rib chiqamiz.

E.Dyurkgeym asos solgan *Fransiya sotsiologiya ilmiy maktabini* olishimiz mumkin. E.Dyurkgeym tomonidan 1898-1913 yillarda tashkil etilgan "Sotsio-

**1-jadval.**

**Sotsiologiya ilmiy maktablari faoliyati**

| Ilmiy maktablar | Ilmiy maktab namoyondalari | Yillar | Ilgari surilgan nazariyalar |
|---|---|---|---|
| **Fransiya sotsiologiya ilmiy maktabi** | E.Dyurkgeym, G. Tard, G. Lebon, Moss, L. Levi-Bryul, S.Bugle, J.Davi, P.Lapi, P.Gers, P.Fokkone, M.Xalbvaks | 1843-1904<br>1898-1913 | Jamiyatni ijtimoiy faktlarni o'rganish yo'li bilan va faqat ijtimoiy toifalarda o'rganish; pozitivizm, ijtimoiy birdamlik konsepsiyasi; aholining eng kambag'al qatlamlari manfaatlarini hisobga olgan holda sinfiy qarama qarshiliklarni tinch yo'l bilan hal qilishni liberal pozitsiyalarda amalga oshirish; jamoaviylik asosida ijtimoiy institutlarni tashkil qilish. |
| **Avstriya-Germaniya sotsiologiya ilmiy maktabi** | G. Zimmel, L. Gumplovich, G. Ratsenxofer, F. Tennis, M. Veber, G. Zombart, L. Vize, Z. Freyd | 1838-1900 | Hodisalarning umumiy qoidalarini o'rnatish; ijtimoiy harakatni ratsionallashtirish; sotsial stratifikatsiya, qatlamni turli maqom guruhlariga bo'lish mezoni va shunga mos ravishda shaxslarni u yoki bu guruhga birlashtirish mezoni. |
| **Buyuk Britaniya sotsiologiya ilmiy maktabi** | G.Spenser, O.Kont, A.Marshall | 1820-1903 | Evolyutsiya nazariyasi; integratsiya va differensiatsiya birligi; ijtimoiy ta'minot institutlari tirik organizm kabi o'sib borishi va rivojlanishi, tuzilishi jihatidan farqlanishi, o'z vazifalarini belgilashi va bajarishi, mustaqil mavjud bo'la oladigan qismlarga bo'linishi; inson kapitaliga sarmoya kiritish. |
| **Amerika sotsiologiya ilmiy maktabi** | P.Sorokin, E.Meyo, T.Parsons, A. Maslou | 1841-1913<br>1855-1931<br>1863-1931 | Insoniy munosabatlar nazariyasi; sotsial mobillik, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi chegaralar; ta'minot davlat byudjetidan sarflanishini emas, balki jamiyat insonning farovon yashashi uchun o'z-o'zini band qilishiga sharoit yaratib berish; jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy sug'urta mablag'larini kiritish; ijtimoiy ta'minot tizimini sotsiologik modellashtirish, strategik maqsadlarini belgilashda tizimli yondashuv. |
| **Rossiya Federatsiyasining sotsiologiya ilmiy maktabi** | M.M.Kovalevskiy, G.V.Plexanov, N.I.Ziber, V.Solovev, N.Berdyaev, G.V.Osipov, A.A.Radugin | 1987-1997 | Ijtimoiy qadriyatlar, me'yorlar va xulq-atvor namunalari bilan belgilangan ijtimoiy rollarni bajarish asosida maqsadlarga birgalikda erishish. |

logik yilnoma" jurnalida ko'plab Ijtimoiy ta'minotga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, taqrizlar chop etilgan. Fransiya sotsiologiya ilmiy maktabining o'zagini sotsiologlar E.Dyurkgeym, G. Tard, G. Lebon, Moss, L. Levi-Bryul, S.Bugle, J.Davi, P.Lapi, P.Gers, P.Fokkone, M.Xalbvakslar tomonidan ko'plab ilmiy nashrlar chop etilgan. Bu borada ijtimoiy ta'minotga oid sotsiologlar, iqtisodchilar, huquqshunoslar, etnograflar, tarixchilar, tilshunoslar va boshqa yo'nalishlardagi olimlar maktab faoliyatida o'z nazariyalari bilan ishtirok etishgan [1].

Fransiya sotsiologiya maktabi nuqtai nazaridan jamiyat – bu odamlar o'rtasidagi axloqiy aloqalar tizimi bo'lib, ular go'yoki yuklangan va majburlangan kuchga ega edi. Mazkur ilmiy maktab jamiyatni ijtimoiy faktlarni o'rganish yo'li bilan va faqat ijtimoiy toifalarda o'rganish kerak degan nazariyani ilgari suradi. Inson ongi ikki shaklda mavjud: individual va jamoaviy. Ikkinchisi jamiyat barqarorligini ta'minlaydigan "jamoaviy g'oyalar" shaklida namoyon bo'ladi. Madaniyatning, jumladan, dinning vazifasi jamoaviy g'oyalar orqali jamiyatni birlashtirishdan iboratdir. Fransiya sotsiologiya maktabining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, nazariy jihatdan uning vakillarining sotsiologik tahlil metodologiyasi sifatida pozitivizmdan foydalanish orqali jamiyatni birlashtirgan. Sotsiologiya ilmiy maktabining markaziy birlashtiruvchi g'oya E.Dyurkgeymning ijtimoiy birdamlik konsepsiyasi va aholining eng kambag'al qatlamlari manfaatlarini hisobga olgan holda sinfiy qarama qarshiliklarni tinch yo'l bilan hal qilishni liberal pozitsiyalarda amalga oshirish istagi edi. Bu erda asosan biologik (tabiat) yoki aqliy (individning ichki dunyosi) bilan bog'liq holda ijtimoiy voqelikni (borliq va faoliyat sohasi sifatida) ajratib ko'rsatishdan iborat edi. Fransiya sotsiologiya ilmiy maktabining asosiy tadqiqot yo'nalishlari: umumiy sotsiologiya, uning nazariy muammolari, ayniqsa, ijtimoiy morfologiya (jamiyat tuzilishi), din sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi, axloq sotsiologiyasidan iborat. Maktab nafaqat yuqori darajadagi ilmiy integratsiya, balki, uning vakillari o'rtasida do'stona aloqalar, balki, uning vakillari o'rtasida do'stona va muntazam muloqotning mavjudligi bilan ajralib turadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** E.Dyurkgeymning ijtimoiy birdamlik nazariyasi muhokamasi sotsiologiya fanining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Ijtimoiy birdamlikni E.Dyurkgeym ikki qismga ajratib o'rgangan.

1. Mexanik birdamlik;
2. Organik birdamlik [2].

Dyurkgeymning aytishicha, qadimgi jamiyatda odamlar oddiy bo'lganligi tufayli va mehnat taqsimoti kamroq bo'lgan sababli tabaqalanish bo'lmagan va bu mexanik birdamlik misol bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatlar organik birdamlikka misol bo'ladi, chunki shiddatli va nozik mehnat taqsimoti mavjud. E.Dyurkgeymning fikriga ko'ra, mehnat taqsimoti muhim ijtimoiy fakt bo'lib, unda vazifalar va majburiyatlar belgilanadi. Qadimgi jamiyatlarda odamlar umumiy ijtimoiy mavqega ega bo'lishgan, bir nechta mas'uliyatli ishlarni bajargan. Ijtimoiy tuzilmani tushuntirishda mehnat taqsimotidagi o'zgarishlar ijtimoiy birdamlikda muhim rol o'ynaydi. Dyurkgeymning so'zlariga ko'ra, "ijtimoiy birdamlik jamiyatdagi odamlarni bir-biriga bog'laydigan ijtimoiy sharoitlardir" [3]. U kishilarning xulq-atvorini tartibga soluvchi va ijtimoiy hayotning asosini tashkil etuvchi jamoaviylik asosida faoliyat yurituvchi asosiy institutlarni tashkil qilish taklifini ilgari suradi [4]. Bu institutlarning tashkil qilinishi hamda mehnat taqsimotida E.Dyurkgeym fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti masalalariga e'tiborini qaratgan.

*Avstriya-germaniya sotsiologiya maktabining* yirik namoyondalari L.Gumplovich, G.Ratsenxofer, G.Zimmel, F.Tennis, M.Veber, G.Zombart, L.Vize, 3.Freydlarning ijtimoiy ta'minotga oid nazariyalarida ijtimoiy guruhlarni majburlash va zo'ravonlikning o'zgarmas qonunlariga bo'ysunadigan guruhlarning harakatlari tizimi deb hisoblaydi. M.Veber ijtimoiy hayotdagi ijtimoiy ta'minot masalalarini sezgi asosida o'rganmaslik kerak, deb hisoblaydi, chunki olingan natija haqiqiy bo'lmaydi. Ushbu muammolarni fazoviy vaqt ta'rifidan qatiy nazar, hodisalarning umumiy qoidalarini o'rnatishdan iborat deb hisoblab, ideal tip tushunchasini voqelikni sotsiologik bilishning usuli va vositasi sifatida kiritdi [5]. Ushbu sotsiologiya ilmiy maktabi ijtimoiy ta'minotni sotsiologiyada ikki qismga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi. Bunda inson mavjudligining barcha shakllarini o'rganadigan umumiy sotsiologiya va ijtimoiy hayotning o'zini o'rganuvchi nazariy, amaliy va empirikaga bo'lingan maxsus sotsiologiyada tadqiq etishni tavsiya etadi.

Sotsiologiyadagi "ijtimoiy harakatni ratsionallashtirish" hamda "sotsial stratifikatsiya" nazariyalarining asoschisi M.Veber hisoblanadi. M.Veber bo'yicha ratsionalizatsiya xo'jalik yuritish yo'lini belgilab beradi va hayotning barcha sohalariga, hatto odamlarning tafakkuriga ham ta'sir qilishini [6], zamonaviy jamiyatlarda notekis taraqqiyot ijtimoiy stratifikatsiya uchun qulay muhitni shakllantirishini asoslaydi [7]. Uningcha, hamma narsa maqsadga yo'naltirilgan harakat bo'lib, iqtisodiy muhitda shaxsning xatti-harakatlariga murojaat qilish orqali jamiyatning yangi sinfi – industrial sinf vujudga keldi.

M.Veber tengsizlik tushunchasi bilan polemikaga sinfiy tafovutlar funksiyasi sifatida kirib, qatlamlar – maqom guruhlari ichidagi ijtimoiy tabaqalanishning kichikroq birliklarini aniqlaydi. Qatlamni turli maqom guruhlariga bo'lish mezoni va shunga mos ravishda shaxslarni u yoki bu guruhga birlashtirish mezoni

hayot tarzi kabi hodisadir. “Hayot tarzi” ning hal qiluvchi roli barcha turdagi “konvensiyalar” ning oʻziga xos tashuvchisi sifatida harakat qilishini anglatadi. U qanday shaklda ifodalanishidan qatʼi nazar, hayotning barcha “stilizatsiyalari” maqom guruhlaridan kelib chiqadi yoki ular tomonidan qoʻllab-quvvatlanadi. Asosiy maqom konvensiyalari juda katta farq qilsa ham, ular baribir maʼlum tipik xususiyatlar boʻlib qoladi, ayniqsa, eng imtiyozli deb hisoblangan qatlamlar orasida [8]. Qatlamlarni turli maqom guruhlariga boʻlish tengsizlikdir, tengsizlikni bartaraf etish eng imtiyozli deb hisoblangan qatlamlarning qoʻyi qatlamlarning farovon yashab va taraqqiylashib borishlari uchun qilingan yordamdir. Farovonlik va taraqqiyot oʻzaro aloqadorlikdagi tushunchalar boʻlib, bunda daromadlarning notekis taqsimoti sababli nochor qatlamlar shakllanadi[9]. Natijada daromad, hokimiyat, tahlil va nufuz kesimida turli darajadagi maqomlarni egallab turgan kishilar oʻrtasida ijtimoiy tafovut yaqqol koʻzga tashlanadi. Bunda ijtimoiy stratifikatsiyaning birinchi mezoni individning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi boʻlib, u hayotiy muhim imkoniyatlarga ijobiy yoki salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bunday salbiy oqibatlarni oldini olish uchun bugun ijtimoiy sugʻurta badallari tashkil qilingan boʻlib, uning maqsadi daromadi yuqori fuqarolarning sugʻurta badallari evaziga, kam taʼminlangan, ijtimoiy ehtiyojmand fuqarolarning ijtimoiy taʼminotini amalga oshirishdir.

XIX asrning 80-yillariga qadar sotsiologiya ilmiy maktabi rivojlanishining asosiy tendensiyalari pozitivizm gʻoyalariga boʻysundi, ammo tub oʻzgarishlar yuz berdi. XIX asrning soʻnggi oʻn yilligida yevropalik tadqiqotchilar, ijtimoiy taʼminot bir tomondan, soha konturlarini birlashtirib yagona institut tashkil etsa, ikkinchi tomondan, barcha ijtimoiy taʼminot institutlarini birlashtirish tufayli eski sharoitlarni oʻzgartiradi va rivojlanib boradi deb hisoblashgan.

“Ijtimoiy taʼminot” tushunchalari xorij fanida keng tarqalgan boʻlib, fuqarolarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish maqsadida qonunda belgilangan hollarda muayyan yuridik faktlar yuzaga kelganda davlat tomonidan tasdiqlangan odamlar doirasiga koʻrsatiladigan yordam shaklini bildiradi. Yevropa va amerikalik sotsiolog va faylasuflar ijtimoiy taʼminotning oʻziga xos konsepsiyalarini ilgari surdilar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga oid ijtimoiy siyosatni shakllantirish, pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam va xizmatlarni tashkil etish va islohotlarni amalga oshirish masalalarini ishlab chiqdilar.

*Angliya sotsiologiya maktabining* yetuk namoyandalaridan biri mashhur ingliz faylasufi va sotsiologi, shuningdek, yetakchi taʼlimotlardan biri hisoblangan strukturaviy funksionalizm asoschisi G.Spenser, O.Kont tomonidan ilgari surilgan pozitivizm gʻoyalarini chuqur rivojlantirdi. Ilmiy maktab jamiyatning yagona ijtimoiy organizm ekanligi haqidagi gʻoyani ham ilgari surishdi. Ijtimoiy taʼminot jamiyat ijtimoiy tuzilmasida mustahkam oʻrnashgan soha sifatida institutsional yondashuvni shakllantirdi[10].

“Ijtimoiy institut” atamasi G.Spenser tomonidan birinchi marta ishlatilgan. G.Spenserning fikriga koʻra, ijtimoiy institutlar uzoq vaqt davomida oʻz barqarorligini saqlaydigan va jamiyatning barqaror faoliyatining sharti boʻlgan inson faoliyati va xatti-harakatlarining barqaror, uyushgan turi sifatida qaraladi.

G.Spenser ijtimoiy taʼminotga oid qarashlarida evolyutsiya nazariyasini ilgari suradi. Olim evolyutsiya nazariyasini bir necha tamoyillarda asoslaydi:

1. Jamiyat integratsiyasi va differensiatsiyasining birligi.

2. Jamiyatning progressiv rivojlanishi.

Birinchi tamoyil ijtimoiy hayotda integratsiya va differensiatsiya teng sharoitlarda sodir boʻlishini qabul qilishga asoslanadi.

Integratsiya (lotincha *integratio* - “tiklash”, “toʻldirish”, “bogʻlanish”) – qismlarni bir butunga birlashtirish jarayoni, yaʼni G.Spenser ijtimoiy taʼminot uchun xizmat qiladigan institutlarni bogʻlab, yagona institutni yaratish zarurligini taʼkidlaydi[11]. Ushbu yagona institut rivojlanishi uchun jamiyat hamda inson tomonidan unga kuchli ehtiyoj tugʻilishi kerak, deb biladi. Ushbu yondashuvga muvofiq institutsionallashtirish odamlarning faoliyati natijasida emas, balki nomaʼlum qonunlar va shaxslar manfaatlarining kesishishi natijasida shakllanadi, degan xulosaga kelish mantiqan toʻgʻri. Bunday oʻzgarishlarning natijasi bir necha ijtimoiy taʼminotni amalga oshiruvchi institutlardan aniq bir yagona institutga oʻtishdir.

G.Spenserning evolyutsiya nazariyasining ikkinchi tamoyilida ijtimoiy institutlar, birinchi navbatda, siyosiy institutlar faoliyatining yanada murakkab va shuning uchun yanada rivojlangan darajasiga oʻtish orqali jamiyatning ilgʻor rivojlanishida koʻradi. Haqiqatdan ham, ijtimoiy taʼminot bir nechta institutlar tomonidan amalga oshirilganda adolatsizlik, boqimandalik va bitta fuqaro ijtimoiy taʼminotni bir nechta turlarini olayotganligini uchratish mumkin edi. Ijtimoiy taʼminot institutlari birlashtirilgandan keyin bunday kamchiliklarga duch kelinmasligi, jamiyatimizning progressiv rivojlanishiga olib keladi. Ijtimoiy taʼminot institutlari ham tirik organizm kabi oʻsib boradi va rivojlanadi, tuzilishi jihatidan farqlanadi, oʻz vazifalarini belgilaydi va bajaradi, mustaqil mavjud boʻla oladigan qismlarga boʻlinadi.

Aksariyat sotsiologik maktablar G.Spenserning ijtimoiy hayotni institutsonalizatsiyasi haqidagi tushunchasidan boshlab, ijtimoiy institutlarni oʻrganishga yondashadi.

Angliya neoklassik maktab namoyondalaridan «Inson kapitali» nazariyasi asoschisi A.Marshall 1890 yilda “barcha kapitalning eng qimmati insonga qo‘yilgan kapitaldir” deb ta’kidlagan[12]. Biroq, olim inson kapitalini shakllantirishni alohida shaxslar bilan emas, balki oilalar bilan bog‘laydi. Olimning fikricha, inson kapitalining o‘ziga xos xususiyati uning tashuvchidan boshqa shaxsga o‘tishning mumkin emasligidir, chunki odamlar bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarish vositasi sifatida harakat qiladilar va o‘zlarining shaxsiy mulklarini saqlaydilar.

Inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishni jismoniy kapitalga sarmoya kiritish bilan taqqoslab, ta’lim va fanga sarmoya kiritish orqali bolalarda birinchi bo‘lib to‘planish motivatsiyasi bolalar kelajagi uchun moddiy resurslarni to‘plash bilan bir xil ekanligini ta’kidladi. A.Marshall ta’limning muhimligini ta’kidlab, ish haqi ta’lim olish, o‘qish va xizmat ko‘rsatish xarajatlari bilan bilvosita yaqin bog‘liqligini ta’kidlaydi. Shu munosabat bilan, farovonlikning moddiy darajasi nafaqat kam maoshli odamlarning bolalari nafaqat yomonroq kiyinishi, balki yaxshiroq ta’lim olishiga ham ta’sir qilishiga e’tibor qaratadi. A.Marshallning yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqib shuni aytish kerakki, inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritish ya’ni, har bir tug‘iladigan fuqaroga alohida plastik karta ochib (boshqa maqsadlarda ishlatish mumkin bo‘lmasin) unga yaxshi ta’lim olishi, sog‘lom rivojlanishi, umuman yetuk-barkamol shaxs bo‘lib etishishi uchun bir martalik nafaqani tashkil qilish lozim.

*Rossiya sotsiologiya ilmiy maktabi* namoyondalari G.V.Osipov, A.A.Raduginlar ijtimoiy ta’minotni institut sifatida o‘rganilishini ta’minlaydi. Bu borada G.V.Osipov shunday deydi: “Ijtimoiy institut – bu ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos tashkiloti bo‘lib, u o‘zaro kelishilgan maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvor standartlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Ularning paydo bo‘lishi va guruhlanishi ijtimoiy vazifa bilan oldindan belgilanadi” [13]. A.A.Raduginning ta’kidlashicha, “Ijtimoiy institut - bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muayyan funksiyalarni bajaradigan odamlarning uyushgan birlashmasi bo‘lib, ular institut a’zolari tomonidan ijtimoiy qadriyatlar, me’yorlar va xulq-atvor namunalari bilan belgilangan ijtimoiy rollarini bajarish asosida maqsadlarga birgalikda erishishni ta’minlaydi” [14].

*Amerika sotsiologiya maktabi* namoyondalari P.Sorokin, E.Meyo, T.Parsons, A.Maslou tadqiqotlarida ijtimoiy ta’minot masalalariga e’tibor qaratar ekan, ular “Insoniy munosabatlar” nazariyasini ilgari suradi. P.Sorokin o‘z tadqiqotlarida ochlik, ekstremal hayot sharoitida bo‘lgan odam, mobillik, stratifikatsiya va uni yengish yo‘llari, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi chegaralar, zamonamiz inqirozi, ijtimoiy va madaniy dinamika mavzularida ish olib borgan. P.Sorokin inson va jamiyat tarixida iqtisodiy manfaatlar ustuvorligi prizmasidan farqli o‘laroq, ijtimoiy jarayonlar va inson xatti-harakatlari, ijodiy g‘oyalar, shaxsiy harakatlar, individuallik uchun kurash kabi muhim noiqtisodiy omillarga katta urg‘u berdi [15]. Bu bilan u, ijtimoiy ta’minot davlat byudjetidan sarflanishini emas, balki jamiyat insonning farovon yashashi uchun o‘z-o‘zini band qilishiga sharoit yaratib berishi, yoki uni ish bilan ta’minlashi kerakligini ilgari surgan. P.Sorokin ijtimoiy stratifikatsiya haqida uning shakllanishi haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: imtiyozlarning notekis taqsimotidan tabaqalanish kelib chiqishini ko‘radi [16]. Uningcha, ijtimoiy stratifikatsiya kishining iqtisodiy holatidan qoniqmaslik sanaladi. Bizga ma’lumki, zamonaviy jamiyatda daromadlar bir tekis emas. Bu har qanday jamiyat taraqqiyotiga xavf tug‘dirib, o‘ta boy va o‘ta qashshoq qatlamlarni shakllantiradi. Oqilona ijtimoiy ta’minot tizimi esa o‘ta qashshoq qatlamlarni ko‘payib ketmasligini oldini olish maqsadida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy sug‘urta mablag‘larini kiritish ehtiyojmand qatlamlarning barqarorligini ta’minlashi mumkin. Bu borada E.Meyo ishlab chiqarish muhitida aloqa jarayonining ahamiyati, ma’muriyat tomonidan oddiy xodimga e’tiborning muhimligi, odamlardagi tuyg‘u, “ijtimoiylik”, ya’ni, bir guruhga tegishli bo‘lish kerakligi, ishlab chiqarishda rasmiy va norasmiy guruhlarning mavjudligi, norasmiy guruh orqali yakka tartibdagi xodimga ta’sir ko‘rsatish, mehnat unumdorligini oshirish uchun kompaniya manfaatlari yo‘lida norasmiy guruhdan foydalanish imkoniyati to‘g‘risida, guruh ichidagi axloq va guruh ichidagi munosabatlar va xodimlarning xatti-harakatlari normalarining mavjudligini ko‘rsatib beradi[17]. Bu bilan ijtimoiy ta’minot masalalari borasida rasmiy va norasmiy institutlar mavjudligini va bu institutlar oddiy insonga xizmat qilishi hamda shaxsning ijtimoiy maqomini ko‘tarilishiga olib keladi.

**Tahlil va natijalar.** E.Meyo uzoq muddatli tajribalari asosida, mehnat samaradorligi va unumdorligiga katta ta’sir ko‘rsatadigan bir qancha obyektiv va subyektiv omillarni aniqladi. U ishchilarning mehnat sharoitlari, ish haqi, malakali xodimlarning faoliyati, xodimning mehnat unumdorligini oshirishga hissa qo‘shadigan rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Bu bilan E.Meyo rahbariyat xodimning shaxsiyatiga, uning mehnat hayotiga, mehnat sharoitlariga, umuman xodimning ijtimoiy ta’minot masalalariga e’tibor qaratsa, natijada xodim yaxshiroq ishlashi aniqlangan. Darhaqiqat, E. Meyoning buyuk xizmati shundaki, u birinchilardan bo‘lib ishchilarning individual farqlari tamoyilini ilgari surgan. Uning fikricha, “barcha shaxslar bir-biridan farq qiladi, birovni bezovta qiladigan narsa boshqasini rag‘batlantiradi”[18]. Shuning uchun boshqaruvchi menejer-

ni hammaga bir xil munosabatda bo'lishga undaydigan har qanday nazariya muvaffaqiyat qozonmaydi. Tajribali rahbar  har doim har bir insonning o'ziga xosligini tan olib, "ijtimoiy rag'batlantirish" hamda "ijtimoiy mukofot"lardan foydalanadi.

T.Parsons ijtimoiy ta'minot tizimini sotsiologik modellashtirish, strategik maqsadlarini belgilashda tizimli yondashuvning ahamiyati katta ekanligini ta'kidlaydi. Ijtimoiy tizimlar – bu harakat qiluvchi subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sir holatlari va jarayonlari tomonidan shakllanadigan tizimlardir [19]. U jamiyatni turli tuzilmalarning funksional integratsiyalashgan yaxlit tizim sifatida tasniflaydi. Shuningdek, Parsons o'z asarlarida ijtimoiy tartib muammosiga katta e'tibor bergan. U ijtimoiy hayot "o'zaro adovat va halokatdan ko'ra ko'proq o'zaro manfaat va tinch hamkorlik" bilan ajralib turishidan kelib chiqib, faqat umumiy qadriyatlarga rioya qilish jamiyatda tartib uchun asos bo'lishini ta'kidladi. Qadriyatlar bo'yicha konsensus jamiyatdagi asosiy integratsiya tamoyilidir. Umumiy e'tirof etilgan qadriyatlar muayyan vaziyatlarda harakat yo'nalishini belgilaydigan umumiy maqsadlarga olib keladi. Masalan, G'arb jamiyatida ma'lum bir zavod ishchilari iqtisodiy unumdorlikka umumiy qarashdan kelib chiqadigan samarali ishlab chiqarish maqsadini birlashtiradi. Umumiy maqsad hamkorlik uchun turtki bo'ladi. Qadriyatlar va maqsadlarni harakatlarga aylantirish vositalari rollardir. Har qanday ijtimoiy institut rollar kombinatsiyasining mavjudligini nazarda tutadi, ularning mazmuni har bir aniq rolga nisbatan huquq va majburiyatlarni belgilaydigan normalar yordamida ifodalanishi mumkin. Normlar rolli xatti-harakatlarni standartlashtiradi va normallashtiradi, uni oldindan aytib beradi, bu esa ijtimoiy tartibning asosini yaratadi.

Konsensus eng muhim ijtimoiy qadriyat ekanligidan kelib chiqib, T.Parsons sotsiologiyaning asosiy vazifasini ijtimoiy tizimdagi qiymat yo'nalishlari qonuniyatlarini institutsionalizatsiyasini tahlil qilishda ko'radi. Qadriyatlar institutsionalizatsiya qilinganda va xatti-harakatlar ularga muvofiq tuzilgan bo'lsa, barqaror tizim – "ijtimoiy muvozanat" holati paydo bo'ladi.

"Insoniy munosabatlar" maktabi asoschilari E.Meyo, M.Follett, A.Masloular (1930-1950 yillar) o'z e'tiborlarini insonga qaratadilar. "Insoniy munosabatlari" maktabi inson xatti-harakatlarining modellarini yaratishga, insonning boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishi, turli xil vaziyatlarga qanday munosabatda bo'lishi, o'z ehtiyojlarini qondirish istagi haqidagi fikrlari bayon etilgan[20]. Bu ilmiy yondashuv, mehnatni tartibga solish va yuqori ish haqi unumdorlikni oshirishga olib kelmasligi aniqlangandan keyin paydo bo'ldi.

"Insoniy munosabatlari" maktabining asoschisi E.Meyo (1880-1949) "Xottorn eksperimenti"ni o'tkazdi, bu esa odamning tashkilotdagi xatti-harakati va  ishining natijalari butunlay bu shaxsning ijtimoiy sharoitlariga bog'liqligini isbotladi. Xottorn eksperimenti orqali biz shuni aytishimiz mumkinki, ijtimoiy rag'batlantirishlar tashkilot a'zolarining xatti-harakatlariga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shunday qilib, eksperiment davomida ijtimoiy rag'batlantirishlar iqtisodiy rag'batlantirish ta'sirini butunlay to'sib qo'yadi. Bu shuni anglatadiki, agar rahbar o'z qo'l ostidagilar haqida qayg'ursa, ularning qoniqish darajasi oshadi, ya'ni, ijtimoiy ta'minot orqali mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi.

Har bir inson hayoti davomida uning sog'lig'i va mehnat qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli xil xavf-xatarlarga duchor bo'lishi, bu esa asosiy tirikchilik manbai bo'lgan ish haqining yo'qolishiga olib keladi. Ko'p hollarda inson bu holatlarni o'z-o'zidan yengib chiqa olmaydi, chunki ular asosan hayotning obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan oldindan belgilab qo'yilgan, ishlab chiqarish faoliyati bilan chambarchas bog'liq va uning irodasiga bog'liq emas.

Ijtimoiy ta'minot davlat ijtimoiy siyosatini ro'yobga chiqaruvchi samarali mexanizm sifatida xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o'rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni bartaraf qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy tamoyillar, metodlar, mexanizmlar va zaxiralarni mujassam qiladi.

**Xulosa.** Yuqorida dunyo miqyosidagi sotsiologiya ilmiy maktablarining ijtimoiy ta'minotga oid qarashlari va nazariyalarini o'rganib xulosa qilishimiz mumkinki, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yaratish vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bosqichiga etib kelgan va jamiyatning normal faoliyat yuritishi uchun o'z ahamiyatini anglagan davlat tomonidan amalga oshiriladi. O'z fuqarolari va o'z hududida qonuniy ravishda mavjud bo'lgan shaxslarni munosib turmush darajasi va erkin rivojlanishi bilan ta'minlaydigan davlat ijtimoiy deb ataladi. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoev 2021 yil 7 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan nutqida *"Hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Su sababli "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat"* degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqti-soati etdi" [21] deb ta'kidlagandi. Ijtimoiy davlat ijtimoiy ta'minot tizimini yaratadi, pensiyalar, nafaqalar, kompensatsiyalar, tibbiy va boshqa ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishda ishtirok etadi. Xalqimiz ijtimoiy davlat konsepsiyasini chuqur o'rganishlari va O'zbekiston Respublikasida mustahkamlangan insonning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini bilishi va unga amal qilishi lozim deb hisoblaymiz.

***Iqtiboslar/Сноски/References:***


*1. https://ru.wikipedia.org/wiki/*

*2. Научно-практический электронный журнал Аллея Науки. №5(32) 2019. – С. 5. Alley-science.ru*

*3. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – Москва: Наука, 1990. – С. 40.*

*4. Дюркгейм Э. Самоубийство. – СПб., 1998; Дюркгейм Э. Моральное воспитание / пер. с фр., А.Б.Гофмана. – Москва: ВШЭ, 2021. – С. 456*

*5. https://www.grandars.ru/college/sociologiya/shkoly-sociologii.html*

*6. Философия: энцикл. слов. – М., 2014. – С. 42.*

*7. Вебер М. Избранные произведения. / Пер. с нем.; сост., общ. ред. и послесл. Ю. Н. Давыдова; предисл. П.П.Гайденко; коммент. А. Ф. Филиппова. – Москва: Прогресс, 1990.*

*8. М.Вебер. Основные понятия стратификации // Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990.*

*9. Вебер М. Избранные произведения. – Москва., 1990.*

*10. Социальная защита населения как институциональная система общества: социологический аспект. / Научные заметки. Социология. №3. 2018. – С. 212.; Хусанова Х.Т. Институциональные основы социальной защиты нуждающихся слоёв населения. Междисциплинарный научный журнал “Общество и инновации” Выпуск№2 (2021). – С. 302-310.*

*11. История социологии в Западной Европе и США. / Ответственный редактор Осипов Г.В. – Москва: НОРМА-ИНФРА, 1999. – С. 50.*

*12. Маршал А. Принципы экономической науки. – Москва: Прогресс-Универ, 1993.*

*13. Современное состояние и тенденции распространения в мире 2-е изд., пер. и доп. Монография.*

*14. Радугин А.А. Социология: Курс лекций. 3-е изд. – М., 2006.*

*15. Sorokin P.A. (1992) Dal’naya doroga. Avtobiografiya [A Long Journey. Autobiography]. - Moscow: Terra. – С.18.*

*16. Сорокин П. Социальная стратификация и мобильность / Человек. Цивилизация. Общество. – Москва, 1992. – С. 302-373.*

*17. Meyo E. The social problems of industrial civilization. – London, 1945. – P. 59.*

*18. Meyo E. The social problems of industrial civilization. – London, 1945. – P. 59.*

*19. Парсонс Т. Социальная система. – Москва: Академический проект, 2018. – С. 529.*

*20. Роик В. Основы социального страхования. – Москва: АНКИЛ, 2005. – С. 46.*

*21. Prezident Sh.Mirziyoev 2021 yil 7 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag‘ishlangan nutqida.*

***Nilufar IBRAGIMOVA***
**Qoraqalpog'iston Respublikasi**
**Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish**
**milliy markazi professori,**
**sotsiologiya fanlari nomzodi**

# TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR SAMARADORLIGINI SOTSIOLOGIK TAHLIL QILISH

♦ *Ushbu maqolada ta'lim tizimida o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy o'qitish usullari, dars jarayoniga yangicha yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Innovatsion yondashuvlarning asosiy maqsadi ta'lim sifatini oshirish va o'quvchi shaxsini global va integratsion jarayonlarga moslashtirishdan iborat. Shuningdek, dars jarayonlarida interfaol usullarni samarali qo'llash orqali fan bo'yicha puxta bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, maqolada ta'lim sifatini oshirishda interfaol usullarning qo'llanish jarayonida uchrayotgan muammolar, pedagoglarning kasbiy kompetentligida kamchiliklarni aniqlash, tanlab olingan interfaol usullarning eng samaralilarini sotsiologik tahlil qilindi.*

♦ *В данной статье рассматривается об инновационных подходах к совершенствованию педагогического мастерства учителя в системе образования, современных методах обучения, новых подходах к учебному процессу. Основная цель инновационных подходов – повышение качества образования и адаптация личности студента к глобальным и комплексным процессам. Кроме того, необходимо обеспечить наличие у учащихся глубоких знаний, навыков и умений по предмету посредством эффективного использования интерактивных методов в учебном процессе. Исходя из этой цели, в статье рассматриваются проблемы, возникающие в процессе использования интерактивных методов повышения качества образования, выявление недостатков профессиональной компетентности педагогов, социологический анализ избранных наиболее эффективных интерактивных методов.*

♦ *This article talks about innovative approaches to improving the teacher's pedagogical skills in the educational system, modern teaching methods, new approaches to the teaching process. The main goal of innovative approaches is to improve the quality of education and adapt the personality of the student to global and integrated processes. Also, it is to ensure that they have thorough knowledge, skills and abilities in the subject through the effective use of interactive methods in the teaching process. Based on this goal, in the article, the problems encountered in the process of using interactive methods to improve the quality of education, the identification of shortcomings in the professional competence of pedagogues, and the sociological analysis of the most effective selected interactive methods.*

***Kalit so'zlar:*** *Innovatsiya, ta'lim, o'qitish, mahorat, dars jarayoni, pedagogik innovatsiyalar, ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimi, ta'lim sifati, respondent, ta'sir etuvchi agentliklar, o'quvchi, o'qituvchi.*

***Ключевые слова:*** *Инновации, образование, обучение, навыки, учебный процесс, педагогические инновации, инновационные подходы к системе образования, интерактивные методы, личностно-ориентированная система образования, качество образования, респондент, органы влияния, студент, преподаватель.*

***Key words:*** *Innovation, education, teaching, skills, teaching process, pedagogical innovations, innovative approaches to the educational system, interactive methods, person-centered educational system, quality of education, respondent, influencing agencies, student, teacher.*

**Kirish.** Innovatsion yondashuvlarning ta'lim tizimiga kirib kelishi ta'lim jarayonining mezonlarini belgilash bilan yanada murakkab vaziyat yuzaga keltiradi, bu tadqiqotning dolzarbligini va ushbu sohadagi xorijiy tajribani tahlil qilishga murojaat qilish zarurligini belgilab beradi. Globallashuv jarayonida ta'lim tizimi integrallashib, doimiy islohotlarga muhtoj bo'ladi. Natijada ta'lim tizimida yangi-yangi muammolar yuzaga keladi. Shu bois ta'lim tizimi oldida pedagoglarning kasbiy mahoratlarini doimiy oshirib borish ishlari turadi. Bu esa ta'limning sifatining oshishi, o'quvchi shaxsining ta'lim tizimida fanlarga qiziqishining pasayishining oldini oladi. Bunday holatlar nafaqat tadqiqot mavzusini tanlashni, balki uning maqsadini ham belgilab berdi, bu esa O'zbekistonda xorijiy innovatsiyalarning ta'lim sifatini oshirishga amaliyotda yangicha xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Ta'lim tizimiga interfaol metodlarning kirib kelishi o'quvchilarni jamoaviylikda ishlash, o'zaro hurmat, bir-biriga yordam, o'zaro bir-birini tushunish, o'zini namoyon eta olish, boshqaruvchanlik kabi o'ziga xosliklarni shakllantiriladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar o'z mohiyatiga ko'ra pedagogika fani va amaliyoti yutuqlaridan biri sifatida qarasak, o'quvchilar o'qituvchining innovatsion yondashuvi orqali dars jarayonida mustaqillik, fikrni erkin bayon qilish, ijodiy fikrlash, tanqidiy yondashuvlar, yangi bilimlarni tahlil qilish, o'z bilimlarini baholash, to'g'ri xulosa chiqarishga yo'naltiriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta'limga innovatsion yondashuv va interfaol ta'lim texnologiyalari O'zbekiston Respublikasida 1997-yil "Ta'lim to'g'risida" Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida amalga oshirilib kelindi, shuningdek 2020-yil "Ta'lim to'g'risida"gi [1] yangi tahrir Qonun doirasida ham takomillashtirilib, uzluksizligi ta'minlab kelinmoqda. Ushbu qonunlarning asosiy maqsadi shaxs-jamiyat-davlat yaxlitligini ta'minlashga qaratilib, ta'lim-tarbiya tizimi orqali jamiyatga va davlatga komil inson shaxsi va yetuk mutaxassislar yetishtirib berishdan iborat.

Ta'limda innovatsion jarayon tarkibini shakllantirish va rivojlantirish va yangi narsalarni tashkil etish bu zamonaviy pedagogning pedagogik mahoratini belgilab beradi. Ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni vujudga keltirish va ularni rivojlantirish, foydalanish va tarqatish bo'yicha kompleks faoliyat mahoratli dars jarayonini tashkil qiladi.

O'zbekistonda ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlar ta'lim mazmunining yangilanishi, darsliklarning qayta milliy dasturlar asosida nashr qilinishi, xorijiy paradigmalarning amaliyotga keng tatbiq qilinishi va ta'lim turlarining xilma-xilligini yaratish zarurati bilan ham ko'zga tashlanadi.

Ta'lim tizimiga davlat tomonidan innovatsion yondashuvlar global va integratsion jamiyatda o'qituvchi-pedagoglarning dars jarayoniga mas'uliyatli yondashuvini va ularning kasbiy faoliyatida o'z shaxs statusining o'zgarishini talab qilmoqda.

Ta'lim tizimida yangicha yondashuvlarning yuzaga kelishi, uni sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilish muammolarini ham yuzaga keltiradi. Kirib kelayotgan innovatsiyalar keng ko'lamda samarali foydalanish uchun avvalo o'qituvchi pedagogik mahoratga va pedagog yangicha yondasha oluvchi innovator bo'lishi kerak va ular o'quvchilar o'z fikrlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun tajribali o'qituvchilar yordami zarur bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni sotsiologik tadqiqot qilish **ishimizning maqsadi** sifatida belgilab, ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlarning samarali usullarini aniqlashga e'tibor qaratdik.

**Tadqiqot ishimizning obyekti** – o'zaro ta'sir qiluvchi faolyiat ishtirokchilari: o'quvchilar, o'qituvchilar va kuzatuvchilar.

**Tadqiqot ishimizning predmeti** – ta'lim tizimida qo'llanilayotgan interfaol usullar.

Tadqiqot ishimizda quyidagi **farazlarni** ilgari surishimiz mumkin: ta'lim tizimida fanlar bo'yicha fanlarni o'qitishning eng samarali interfaol usullarini topish zarurati ta'lim faoliyatining muvaffaqiyatli natijasidir.

Sotsiologik tadqiqot jarayonida individual ta'lim traektoriyalariga o'tish munosabati bilan o'qitish sifatini oshirish natijasida yuzaga keldi. Ta'limga jalb qilinayotgan har qanday innovatsion interfaol usullarni ko'rib chiqildi va ularning qo'llanishiga ahamiyat berildi, so'ngra o'zaro aloqa agentlari o'rtasida suhbatlar olib borildi. Sifatli tadqiqot usuli orqali interfaol usullarning eng maqbul va samarali usullari aniqlandi, shuningdek, olingan ma'lumotlarning mazmuni tahlil qilindi.

Tadqiqotning **saralash obyekti** sifatida umumta'lim maktablarining texnologiya fani darslari *o'quvchilari, o'qituvchilari, professor-o'qituvchilar va fan metodistlari* olindi. Interfaol usullarni saralash jarayonida esa, darslarning nazariy va amaliy mashg'ulot nuqtai nazaridan tanlandi.

Sotsiologik tadqiqotimiz davomida intervyu suhbati focus-guruh usulida olib borildi. Suhbat jarayoni o'rtacha 1 soat davomida pilotaj tadqiqotlar olib borildi. Dastlabki ma'lumotlar kontent tahlil qilindi. Tadqiqotlar hech qanday oldindan loyihalashtirilmagan holda davlat umumta'lim maktablari o'quvchilari va malaka oshirish markazlarida fam tinglovchilari o'rtasida o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida avvalo semantik birliklar tanlab olindi, so'ngra tegishli kodlar aniqlanib, ularning o'xshashligi va farqiga qarab tasniflandi. Interfaol usullarning samaradorligi saralash orqali tanlab olindi. Qo'llanilgan har bir

**Saralash blankasi**

| Respondentlar | Yoshi | Jinsi (odam soni) | | Faoliyat sohasi (ta'lim, ish) |
|---|---|---|---|---|
| | | erkak | ayol | |
| O'quvchilar | 13-16 | 43 | 67 | Texnologiya |
| O'qituvchilar | 25–48 | 10 | 16 | Amaliy fanlar |
| Professor-o'qituvchilar | 33–57 | 17 | 18 | Pedagog xodimlarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi |
| Kuzatuvchi metodistlar | 35–45 | 2 | 4 | Pedagog xodimlarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi metodistlari |

interfaol usul umumta'lim maktablarning texnologiya fani darslarida foydalanib ko'rildi. Natijada foydalanilgan interfaol usullar o'quv-metodik dasturlar va dars ishlanmalarda qo'llanish uchun texnologik kartalarga kiritish imkonini berdi.

Ta'lim jarayonini tashkil qilishda o'qitishning innovatsion usullari – bu "o'qituvchi va o'quvchi" o'zaro munosabatlarining yangi usullarini, o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida amaliy faoliyatda ma'lum bir yangilikni o'z ichiga olgan o'qitish usullaridan iborat bo'ladi [3]. Ta'lim tizimida o'qitish jarayonidagi innovatsiyalardan biri ta'lim texnologiyalari, usullar va texnikalardan iborat bo'ladi.

So'ngi yillarda ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlardan biri sifatida 4 K modeli asosida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratildi. Bunda o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy tafakkurlarini rivojlantiruvchi savollar, muammolar o'rtaga tashlanib, o'quvchilarning masalani yechish jarayonida kreativ yondashuvlarini shakllantiruvchi usul va texnikalardan foydalana boshladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsining dars jarayonida jamoada ishlash orqali o'quvchilar va o'qituvchi bilan munosabat ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining mahoratli darslarni tashkil qilish uchun interaktiv usullardan natijali foydalanish zarur. Ta'limni isloh qilish jarayoni texnologik taraqqiyot bilan bevosita bog'liq bo'lib, natijada o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etadi, pedagogik imkoniyatlarni sezilarli darajada kengaytiradi. "**Interaktiv**" atamasi (*inglizcha interactive - interacting*) o'zaro harakatda tez axborot texnologiyalarini Internetdan foydalanish, masofadan boshqarishga o'tish bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Bunda o'qitish formati, elektron o'quv platformalari va elektron o'quv qurollaridan foydalanishga qaratiladi.

Interfaol usulning mohiyati o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida turli xil dars shakllari – o'yinlar, guruhlarda ishlash, treninglar, munozaralar, mahorat darslari va h.k.lardan foydalangan holda bilimlarni egallash qobiliyatidan iborat bo'ladi. Bu yerda o'qituvchining roli asosan qisqartiriladi yordamchi va axborot manbai vazifasi kengaytiriladi. Yangi tajribani shakllantirish orqali olingan bilimlar uni amaliy qo'llash jarayonida mustahkamlanadi, o'quvchilarga bu tajribani bir-biri bilan bo'lishish (kollobarativlik), o'qituvchining o'z nazorati ostidagi funksiyasini o'z zimmasiga olgan holda o'quv jarayonini rag'batlantirish va faollashtirish imkonini beradi. O'qituvchi interfaol usullardan foydalanganda intellektual faoliyatga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan raqobat, musobaqa ruhini yarata olishi zarur, bu esa o'quvchilar birgalikda masalaning yechimini izlashda namoyon bo'ladi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarda quyidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi: ***tarbiyaviy va kognitivlik; kommunikatsiya va rivojlanish; ijtimoiy va kasbiy yo'naltirilganlik*** [4].

Muammoli o'qitish usulidan farqli, interfaol usullar bir qator amaliy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish, olingan bilimlarni o'quv jarayonida samarali foydalanish, ijobiy va salbiy tajribalarni shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'zaro ta'sir qilish usuli o'quvchi shaxsiga jamoada sherigining fikrini hisobga olishni, belgilangan chegaralar doirasida harakat qilishni, murosani topishni, tanqidni to'g'ri qabul qilishni va o'zingizni o'zgartirishni o'rganishga imkon beradi.

Savol tug'iladi: "Dars jarayonida qanday interfaol metodlar darsning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi?" Avvalo dars samaradorligi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Shuning bilan birga dars jarayonida darsni tog'ri taqsimlashi zarur. Har qanday dars jarayonida o'zining pedagogik mahoratidan kelib chiqib, interfaol metodlardan foydalanish zarur.

**Tahlil va natijalar**: XXI asr ko'nikmasini tashkil etish tashkiloti tomonidan taqdim etilgan quyidagi interfaol metodlar o'quvchilarni shaxs sifatida hayotiy ko'nikmalarni egallashga xizmat qiladi: *Blum kubiklari, Blum romashkasi, To'g'ri-noto'g'ri, Assosatsiya metodi, G'oyalar turargohi, Sorbonka, Insert texnologiyasi, Plyus-minus-qiziqtiradi, oddiy va murakkab savollar jamlanmasi, FSMU texnologiyasi, Olti fikrlash qalpoqchasi,SWOT tahlil, Raft texnologiya, Keys metodi, Baliq skleti, Klaster, Smarter* va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan usul va texnikalar o'qituvchilarga uzoq vaqtdan beri ma'lum va amaliyotda samarali qo'llanilib kelmoqda. Turli innovatsion metodologik yondashuvlar asosida ularni quyidagicha ajratishimiz mumkin: *"O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish", "Klaster", "Fishbone (Baliq skleti)", INSERT texnologiyasi; "Kechiktirilgan taxmin", "Tasodifan o'yin" TRIZ pedagogikasi; "SWOT tahlili", "Keys usuli", SMARTER muammoli ta'lim texnologiyasi; Edvard de Bono tomonidan ishlab chiqilgan lateral fikrlash tushunchasi: "Olti fikrlash qalpoqchasi", "Plyus - minus– qiziqarli"; "Blum kubigi", "Blum romashkasi", "Eyler doiralari", "Venn diagrammasi", "Uolt Disney usuli" kabi usullar mualliflik usullari* hisoblanadi.

Qo'llanilgan interfaol usullar natijasida eng samarali interfaol usullar Blum kubiklari (73%), Bord jurnali (64%), PMI metodi (52%), T sxemasi (41%), Assesment texnikasi (38%), SWOT tahlil metodi (36%), Aqliy hujum metodi (24%), Tushunchalar tahlili (18%), BBB, Zinama zina, Klaster, Piramida kabi metodlar past darajalarni ko'rsatdi. Ta'sir qiluvchi agentlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijasida ushbu metodlarni foydalanishdan oldin o'tkazilgan anketa savollarida interfaol usullardan foydalanish bo'yicha eng samarali respondentlar fikri quyidagicha bo'ldi (1-jadval).

Olib borilgan sotsiologik tadqiqot ishimizda qatnashgan har bir respondent ta'lim tizimida kiritilayotgan innovatsion jarayonlarga ijobiy munosabatda yondashuv zarurligi, bu esa o'z navbatda ta'lim samaradorligini oshirish imkonini berishi mumkinligini tushunib olishdi. O'quvchilar har doim ham fanlarni mukammal o'rganishga harakat qilavermaydi. Bunda o'qituvchi faqat kasblar tanlash va bilimlar egallashda yo'naltiruvchi vazifalarni bajaruvchi bo'lib qoladi. Innovatsion yondashuvlar nafaqat o'quvchilarga, balki o'qituvchilarning ham fan bo'yicha kasbiy mahoratlari va pedagogik salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Sotsiologik tadqiqotlar jarayonida ko'rish mumkinki, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini oshirishdan tashqari, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol usullar bolani o'qishga bo'lgan qiziqishlariga ham hissa qo'shadi degan javobga barcha ta'sir etuvchi respondentlar bir xil javob bergan.

Dars jarayonida interfaol usullarni qo'llanish uchun to'siqlar tug'diradigan omillarda ayrim o'qituvchilar moddiy-texnik bazaning yetishmovchiligini javob sifatida belgilasa kypchiligi, o'quv rejasi bo'yicha dars jarayonlariga tayyorlanish imkonining mavjudmasligi (iqtisodiy yetishmovchiliklar), dars rejasi asosida prezentatsiya taqdimotlarini yaratish va kompyuter texnologiyasidan samarali foydalanish imkoniyatining mavjud emasligi (AKT savodxonlik darajasining pastligi), sinflarda o'quvchilar sonining me'yoridan ortiqligi, amaliy bilimlarni egallash uchun vaqt yetishmovchiligi ko'rsatiladi.

Ta'lim tizimida o'qituvchilarda pedagogik mahoratning yetishmasligi sababli, o'quvchilarga motivatsiya berish, darslarni faollashtiruvchi usullardan foydalana olmaslik holatlari kuzatiladi. Bu esa, o'quvchilarning fanlar bo'yicha fundamental bilimlar egallash va darslarga qiziqishni so'ndiradi. Bu borada metodistlarning javoblarida esa, ta'limni o'quvchilarga yo'naltirish jarayonida o'qituvchilarga maxsus yordamchilardan foydalanish zarur deb ko'rsatadi.

Olingan natijalarga ko'ra, jarayonning barcha ishtirokchilari ta'lim tizimida interfaol usullar ta'lim samaradorligidan manfaatdor, ammo ular cheklangan resurslar ko'rinishidagi to'siqlarga duch kelishadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek, interfaol usullarni qo'llashdagi asosiy to'siq ko'pchilik o'qituvchilarning o'qituvchilik roliga tayyor emasligi va ko'p jihatdan samarali pedagogika bo'yicha yangi tadqiqotlar, xususan, ta'lim tizimida qo'llaniladigan o'qitishning interfaol usullari bilan tanishishga vaqtlari yo'qligidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali o'qitishning eng yaxshi g'oyalari o'qituvchilarga nafaqat natijalarni olish, balki o'quvchilar faoliyati va vazifalariga e'tibor qaratish imkonini beradigan interfaol o'qitish usullarini o'z ichiga oladi.

**Xulosa va takliflar**: Davlat umumta'lim muassasalarida o'qitish uslublarini yanada samaraliroq qilish bo'yicha o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida mazmunli yuzma-yuz (face to face) muloqot qilish imkoniyatlarini ta'minlash, jamoa bo'lib hamkorlikda o'rganish imkoniyati (kollabrorativlik) va tabiiy vaziyatlarda topshiriqni bajarishga urg'u beradigan yanada haqiqiy o'qitish usullaridan foydalanish zarur. Olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

- pedagoglarning dars jarayoniga mas'uliyat bilan yondashuvi, o'qituvchi shaxsining o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillardan biri bu barcha umumta'lim maktablarning moddiy-texnik bazasi bilan ta'minlash, eskilarining o'rniga yangilarini joriy qilish bu esa, ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlar ta'limni rivojlantirishning jahon tendensiyalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.
- ta'lim tizimiga 4 K modeli asosida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish uchun o'qituvchi o'qitishning mazmuni, usullari, strategiyalari va texnologiyalarini loyihalash bo'yicha subyektiv qarorlar qabul qila olishi zarur. Ta'lim tizimidagi davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar samaradorligini belgilab beradi;
- davlat va jamiyat pedagogik madaniyatni, o'qituvchilar tafakkurining qadriyat jihatlarini kasbiy, kasbiy tayyorgarlik va o'qituvchilar malakasini oshirish ti-

**1-jadval.**

| Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish markazi professor-o'qituvchilarning interfaol usullardan foydalanishga munosabati | |
|---|---|
| ***Mavzu*** | ***Fikrlar toifasi*** |
| O'quv mavzulari orqali kasbiy martaba muammolarini qanday hal qilishni bilish va tushuntirish. | O'qitiladigan narsa tinglovchilarning bilim darajasi bilan bog'liq bo'lishi muhim |
| Tajribani hujjatlashtirish. | Men doimiy darslarda tinglovchilar qo'llanadigan interfaol usullarni daftarga kiritib boraman;<br>Men o'sha kuni tinglovchilar tomonidan yuqori baholangan har bir muvaffaqiyatli strategiyani yozib boraman. |
| Tinglovchilar bilan o'zaro munosabat. | Har safar sinfdagi tinglovchining diqqatini bir nechta ketma-ket topshiriqlarga qaratmayotganini ko'rganimda, men undan diqqatni jamlashning yetishmasligi haqida so'rayman va muammosini hal qilishga yordam beraman". |
| **O'qituvchilarning interfaol usullardan foydalanishga munosabati (kurs tinglovchilari)** | |
| ***Mavzu*** | ***Fikrlar toifasi*** |
| O'qituvchilarning o'quvchilarga yo'naltirilgan to'g'ri va to'liq metodikalarni qanday joriy etish bo'yicha bilimga ega emasligi. | O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'limga bo'lgan ehtiyoj aniq, ammo o'quv dasturlari talablari, katta hajmdagi materiallar va resurslarning etishmasligi kabi bir qator sabablarga ko'ra bu usullardan foydalanish qobiliyati mutlaqo mumkin emas. |
| Oldindan belgilangan dars ishlanmalarning yo'qligi va amaliy darslarda taqdimotlarni foydalanish imkoni mavjud emasligi. | Ko'pchilik o'qituvchilarda oldindan belgilangan dars ishlanmalarni yo'qligi o'qitishdagi ijodkorlik yetishmasligining sabablaridan biridir. |
| Interaktiv ta'lim | Agar hech bo'lmaganda o'qituvchilarni baholash shaklida interfaol usullardan foydalangan holda loyihaga asoslangan va muammoli o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim usullaridan foydalanish uchun ba'zi savollar ajratilsa, o'qituvchilar bundan keyin ham foydalanishga harakat qilishadi. |
| **Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish markazi metodist kuzatuvchilarning interfaol usullardan foydalanishga munosabati** | |
| ***Mavzu*** | ***Fikrlar toifasi*** |
| Maslahatchilarga bo'lgan ehtiyoj. | Menimcha, ta'limni o'quvchilarga yo'naltirishning bir yo'li maxsus yordamchilardan foydalanishdir. |
| O'quvchilarda qiziqish va motivatsiyani oshirish yo'llari. | Agar har bir o'qituvchi ikki yoki uchta yordamchi bilan katta darslarni olib borishi mumkin bo'lsa, ular sinfni bir necha guruhlarga bo'lishlari va amaliy jihatdan yo'naltirilgan jamoaviy ishlarni yanada ehtiyotkorlik bilan nazorat qilishlari mumkin bo'ladi. |
| O'qituvchilarning o'qishga qiziqish va motivatsiya muhimligiga yetarlicha e'tibor bermaslik. | O'quvchilar muammolarni hal qilish va ko'proq ishtirok etish qobiliyatiga ega ekanliklarini ko'rganlarida, ular ko'proq motivatsiya va o'ziga ishonchni rivojlantirishlari mumkin. |

zimi orqali uzatiladi. O'qituvchini ongi va kasbiy faoliyatga subyektivligi zamonaviy pedagogika fanining tamoyillaridan biridir. Ya'ni, innovatsion usullardan foydalanish yoki foydalanmaslik o'qituvchi shaxsiga, uning uslubiy malakasiga, o'qituvchilik mahoratiga bog'liq. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimining vazifasi ana shu ehtiyojni amalga oshirish va uslubiy kompetentsiyani rivojlantirishdan iborat. Zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasi – o'zining pedagogik salohiyatini doimiy ravishda qayta o'zgartirib turish va rivojlantirish zarur;

• o'qituvchining namunasi ta'sirida o'quvchi faol va malakali shaxsni tarbiyalash uchun umumta'lim tizimida sog'lom muhit yarata olish zarur. Sog'lom muhit yaratish maktab boshqaruvi zimmasiga kiradi. Bunda o'qituvchining dars jarayoniga sifatli yondashuvi uchun haftada 1 marta AKT savodxonligiga ega bo'lmagan o'qituvchilar uchun AKT savodxonlik darslarini samarali yo'lga qo'yish, interfaol metodlarni samarali qo'llash uchun haftada 1 marta o'quv seminarlar tashkil qilish; o'rganilgan interfaol usullarning natijaviyligini aniqlash uchun o'zaro tajriba almashuv maqsadida ochiq darslar tashkil qilishni yo'lga qo'yish zarur. Bunday ta'lim tizimiga innovatsion yondashuv har bir o'qituvchini dars jarayoniga mas'uliyatli munosabatda yondashishga undaydi. Bu esa o'quvchi shaxsining fanlarga bo'lgan va dars jarayonlarida faolligini ta'minlaydi.

**Iqtiboslar/Сноски/References:**


1. *https://lex.uz/docs/-5013007. O»RQ-637-son. 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida.*
2. *Штейнер-Хамси Г. Как реагируют НПО: глобализация и реформа образования на Кавказе, в Центральной Азии и Монголии. Кумарская пресса; 2018; 31(2): 25-36. DOI: 10.1111 / j. 1467-873X.2008.00426.x*
3. *Дерижан И, Вальчев Г. Особенности методики обучения современной студенческой аудитории. В: Ежегодник Бургасского свободного университета. – Бургас: БРУ; 2015. – С. 165.*
4. *Бадмаев Б.Ц. Методика преподавания психологии: Учеб.метод. пособие для преподават. и аспирантов вузов. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1999. – 304 с.*
5. *Йўлдошев Ж., Ҳасанов С. Педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. - Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. -652 б.*
6. *Ишмухамедов Р, Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар (таълим тизими ходимлари, методистлар, ўқитувчилар, тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув қўлланма). - Т.: 2013. -279 б.*
7. *Olimov K.D. "Zamonaviy ta'lim va innovacion texnologiyalari bo»yicha ilg'or horijiy tajribalar" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. 2015y. 81 bet.*
8. *Fayzullayeva N., Miraliyeva D. Jahon ta'limi tizimi. // O'quv qo'llanma. TDIU "Iqtisodiyot". 2016. – 30 b.*
9. *Герцен С.М., Скороходова Л.В. Интерактивное обучение в образовательном процессе вуза. // Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. Педагогические науки 2019. № 4 (52).*

UDK: 316.346.2-045(575.1)

***Xolida ZIYAYEVA***
**O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti,**
**sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**
**e-mail: tas_tas1988@mail.ru**
**sots.f.d., prof T.Narbayeva taqrizi ostida**

# IJTIMOIY DAVLAT SHAROITIDA ZO‘RAVONLIKNING GENDER KO‘RINISHLARINI ANIQLASHGA DOIR SOTSIOLOGIK YONDASHUVLAR

♦ *Maqolada ijtimoiy davlatda zo‘ravonlikning gender ko‘rinishlarini aniqlashga doir sotsiologik yondashuvlar, davlat va jamiyatda tub islohotlar amalga oshirish bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish, jahon tamadduniga monand munosib turmush tarzini shakllantirish maqsadida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda keng qamrovli islohotlar tizimi tahlil qilingan. Gender zo‘ravonlikni bartaraf etishga doir bir qator huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, gender zo‘ravonlikka masalasiga qaratilgan qonuniy choralarni qo‘llashning ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan.*

♦ *В статье исследованы гендерные аспекты насилия, а также реализация фундаментальных реформ в государстве и обществе в целях построения правового демократического государства, основанного на общечеловеческих ценностях, гражданского общества и широкой социальной В экономической, политической, культурной и других сферах с целью формирования образа жизни, достойного мировой цивилизационной системы реформ, анализируется. В середине прошлого века международное сообщество осознало, насколько важно решить текущие проблемы ликвидации гендерного насилия. С этой целью принят ряд документов, в которых разрабатываются правовые ориентиры, которые помогут государствам пересмотреть свою политику по защите семьи и ее членов — основной основы общества.*

♦ *In the article, the research on gender aspects of violence, along with the implementation of fundamental reforms in the state and society, in order to build a legal-democratic state based on universal human values, a civil society, and a wide-ranging social, economic, political, cultural and other spheres in order to form a lifestyle worthy of world civilization system of reforms is analyzed. In the middle of the last century, the international community realized how important it is to solve the current problems of eliminating gender-based violence. To this end, several documents have been adopted, in which legal guidelines are being developed to guide states to revise their policies on the protection of the family and its members, the primary foundation of society.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ijtimoiy davlat, zo‘ravonlik, gender zo‘ravonlik, reabilitatsiya, gender masalalari, “Ijtimoiy xodim” maqomi, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar mavqeyi, sifatli tibbiy xizmat, psixologik va huquqiy yordam.*

***Ключевые слова:*** *насилие, гендерное насилие, реабилитация, гендерные вопросы, статус “Социального работника”, поддержка женщин, позиция женщины, качественная медицинская, психологическая и юридическая помощь.*

***Key words:*** *violence, gender violence, rehabilitation, gender issues, the status of “Social worker”, women’s support, women’s position, quality medical, psychological and legal assistance.*

**Kirish.** Mamlakatimizda oila – asrlar davomida shakllanib kelgan jamiyatning mustahkam poydevori, jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi qudratli maskan hisoblanadi. Jamiyatning har tomonlama farovonligi – oilaning mustahkamligi, farovonligi, tinchligi va xotirjamligiga bog'liq. Shu bois, Yangi O'zbekiston hamda Uchinchi Renessans poydevoriga asos solinayotgan bir davrda oila institutini mustahkamlash va uning tinchligi, xotirjamligi va farovonligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Gender tushunchasi (inglizcha gender, lotincha genus – urug', jins so'zlaridan olingan) jamiyatning sinfiy tuzilishi va ijtimoiy tabaqalanishi bilan chambarchas bog'liq.

"Jins" va "Gender" tushunchalarini farqlash borasidagi birinchi harakat 1968-yili AQSHning Kaliforniya universiteti professori Robert Stoller tomonidan amalga oshirildi. Jins bu – biologik xususiyatlarning birligi bo'lib, individni muayyan biologik jinsga tegishli deb bilish uchun dastlabki asos. "Biroq faqat rol emas, balki jinsga daxldorlikning o'zi o'zaro aloqalar jarayonida individlarga bog'lab qo'yiladi". Jins erkaklar va ayollar o'rtasidagi universal biologik farq bo'lib, anatomik va fiziologik mohiyatni, ya'ni individning biologik jins – erkak yoki ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos bo'ladigan biologik belgilar birligi [1].

Erkaklar va ayollar rollaridagi jiddiy bo'lmagan farqlar ularning biologik xususiyatlariga taalluqli. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlardan tashqari, o'z tabiatiga ko'ra, biologik bo'lmagan sabablarga asoslanuvchi ko'plab farqlar bor ya'ni, ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linishi, xatti-harakat va individlarning psixologik xarakteristikalarida farqlar mavjud. Ta'kidlanganidek, erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik, tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollarning xatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy xarakteristikalarini aniqroq farqlash uchun gender atamasi qabul qilingan [2].

"Gender" tushunchasini tahlil qilishda biologik va ijtimoiy xususiyatlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jinsning biologik xususiyatidan farqli o'laroq, ijtimoiy va madaniy ramziy xususiyatlarda "Erkaklarga xos", deb hisoblanadigan yoki unga o'xshatiladigan barcha tushunchalarda ijobiy, ahamiyatli va ustun deb belgilanadigan qadriyatli yo'nalishlar mujassam bo'ladi. "Ayollarga xos" deb hisoblangan xususiyatlar esa salbiy, ikkilamchi va bo'ysunuvchan deb qaraladi.

Gender zo'ravonlikni fanlararo tadqiqotlarda "Maishiy zo'ravonlik", "Oiladagi zo'ravonlik", "Er-xotin o'rtasidagi zo'ravonlik", "Ayollarga qarshi qaratilgan zo'ravonlik" tushunchalaridan chegaralash kerak. "Gender zo'ravonlik" tushunchasi bilan bir qatorda "Spouse abouse" – er va xotin munosabatlarini suiste'mol qilish; "Wife bettering" – xotinini kaltaklash, "Marial rape" – nikohda jinsiy tajovuz qilish kabi atamalarni adabiyotlarda ham uchratish mumkin[3].

Gender zo'ravonlikning ta'siri, ayniqsa, psixologik va jismoniy hollarda kompleks ahamiyat kasb etadi. Gender zo'ravonlikdan yetgan shikast ta'siri keskin bo'lishi, biroq zo'ravonlik natijasida takrorlanishi va doimiyligi tufayli uning oqibatlari chuqurlashib, surunkali bo'lib qolishi mumkin, ba'zi hollarda fojiali hodisalarga yoki jiddiy patologiyaga olib keladi.

Gender zo'ravonlik natijasida jabrlanuvchilarda eng keng tarqalgan psixologik va psixosomatik oqibatlarning namoyon bo'ladigan belgilari: aybdorlik hissi, uyat, g'azab, qayg'u, umidsizlik, chorasizlik, holsizlik, bo'g'ilish hissi; doimiy xavf hissi (jabrlanuvchi doim hushyor bo'lib turadi); hamma narsadan qo'rqish; o'zi va o'zgalarga g'amxo'rlik qila olmaslik; diqqatni jamlashdagi qiyinchilik; yolg'izlik (begonalashuv); rejalar tuzish qobiliyatini yo'qotish; tashabbusning yo'qligi, hayotdagi yolg'izlikdan qo'rqish, hayotga nisbatan ma'no va qiziqishni yo'qotish; o'ziga nisbatan ishonchsizlik; tashvishli hayajon, asabiylik; taxikardiya; oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi; uyquning buzilishi; ovqatlanishning buzilishi; bosh og'riqlari; mushaklardagi og'riq; tushkun kayfiyat; o'z joniga qasd qilish kayfiyati .

L.Berkovis o'zining maishiy zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni kamsitishda genderning ta'siriga qaratilgan tadqiqotlarida oiladagi zo'ravonlikning ijtimoiy va madaniy ildizlariga ahamiyat berdi. L.Berkovis qurbon bilan zo'ravonning o'zaro bog'liqligiga e'tibor berib, "Bir tomonning hujumkorligi ikkinchi tomonning hujumkorligiga sabab, qo'pollik yanada ko'proq qo'pollikni keltirib chiqaradi", degan fikrni ilgari surdi.

Xalqaro hujjatlarda jinslarning tengligi prinsiplarini mustahkamlash amalda xotin-qizlarning teng huquqliligini ta'minlash uchun katta ahamiyatga ega. XX asrning ikkinchi yarmida bu yo'nalishda doimiy taraqqiyot kuzatilmoqda, mana shu taraqqiyot davomida xotin-qizlarning huquqlari xalqaro huquqda inson huquqlari konsepsiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladigan bo'ldi. "Ayol inson huquqlari" tushunchasi paydo bo'ldi, bu tushuncha inson huquqlari ham ayolga, ham erkakka majburiy tartibda taalluqli ekanini bildiradi.

Zamonaviy sotsiologiyada zo'ravonlik tushunchasi falsafiy, tarixiy, psixologik, tibbiy, biologik, antropologik, etnografik, siyosatshunoslik, iqtisodiy va boshqa yo'nalishlarda keng o'rganilgan. Maishiy zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni kamsitishning gender asoslarini o'rganishda zo'ravonlikning nazariy konsepsiyalari o'zining uslubiy yondashilganligi bilan ajralib turadi. O.Tevlyukova zo'ravonlikka oid yondashuvlarning uch xil shaklini kengroq tahlil etgan. Ular quyidagilardan iborat:

1) Tizimli uslubiy yondashuv (kelib chiqishi va harakati).

2) Sharhlovchi paradigmalarga tegishliligi.

3) Birlashtiruvchi paradigmalar [4].

Birinchi guruhga ijtimoiy obyektivizm nuqtayi nazaridagi zo‘ravonlik fenomenini o‘rganuvchi tadqiqotlar kiradi. Bu jamiyatni yagona ijtimoiy tizim, birlik deb hisoblab, zo‘ravonlik uning tashkiliy qismi deb qarovchi tadqiqotdir. Ikkinchi guruhga shaxs faoliyatining motivlari, inson axloqi talqiniga urg‘u beruvchi subyektivizm yondashuvida bajarilgan tadqiqotlar kiradi. Uchinchi guruhga metaparadigmal yondashuvda tadqiqot olib boruvchi guruh a’zolari mansub.

Viktimiologik yondashuvga ko‘ra, ayol o‘z xulqi bilan zo‘ravonlikka o‘zi sababchi bo‘lib hisoblanadi. Nemis tadqiqotchisi Shnayder fikricha, qurbon va zo‘ravon o‘rtasida aloqa bog‘lanadi. Bu aloqaning birinchi bosqichida zo‘ravon xatti-harakatlari qurbon tomonidan nazoratga olinadi, ikkinchi bosqichda zo‘ravonlik amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda qurbonning zo‘ravonga qaramligi aniqlanib, zo‘ravonni jazodan saqlab qoladi bu jarayon takrorlanadi.

Demak, zo‘ravonlikka nafaqat ayolning o‘zi, balki uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit, sotsial munosabatlar va jamiyatning o‘zi ham sababchi bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy ish nazariyasiga ko‘ra, erkakni o‘rab turgan muhit ham uning zo‘ravonligi ortib borishiga sababchidir. M.Kaufmanning hisoblashicha, inson zoti (jinsidan qat’i nazar) zo‘ravonlikka moyil emas. U inson o‘ziga bo‘lgan e’tiborga erishish uchun jamiyat uni hujumkor qiladi, deb hisoblaydi

Interaktiv nazariya markazida zo‘ravonlik munosabatlari muloqotning turlari, deb hisoblanadi. M.Kimmelning kuzatishlari bo‘yicha, erkakning ayolga bo‘lgan zo‘ravonligi erkakning ijtimoiylashishi – bolalikdan ota-ona va yaqinlari tomonidan kuch ishlatish bilan muloqot qilish mumkin deb o‘rganganligi sabab, deb hisoblaydi.

Kuch ishlatish alohida, shaxsiy, jinsiy aloqa vositasi bo‘lishi mumkin. Oiladagi erkakning zo‘ravonligi, shuningdek, ayolning ham xatti-harakatiga, oiladagi hukmronlik muhitiga bog‘liq, chunki aksariyat muammolarning hal etilishi erkak tomonidan bo‘ladi, buning natijasida zo‘ravonlik kelib chiqali. M.Kimmel erkak va ayolning zo‘ravonlik ishlatishi turli shaklga ega, deb tasniflaydi.

Yuqoridagi nazariyani kengroq tahlil qilar ekanmiz, erkaklar ayollarning tobeligini oshirish uchun, ayollar esa o‘z umidsizliklarini aks ettirish yoki qahr-g‘azablarini ifoda etish uchun kuch ishlatadilar, degan xulosaga kelishimiz mumkin [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada zo‘ravonlikning gender ko‘rinishlarini aniqlashga doir yondashuvlarining sotsiologik tahlili kontent analiz, retrospektiv va qiyosiy usullari bilan tahlil qilish zo‘ravonlikning gender ko‘rinishlarini aniqlashda ayollar yoki erkaklar tomonidan zo‘ravonlikni amalga oshirish hamda zo‘ravonlik qurboni bo‘lishning o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Yaqin davrlarda ham zo‘ravonlik haqida oshkora gapirilmas edi. Endilikda ushbu muammo ko‘plab mamlakatlarda ijtimoiy darajada namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro darajada zo‘ravonlikning shakllaridan biri – xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni inson huquqlarini buzish deb tan olinishi, tegishli ravishda qator mamlakatlarning qonunchiligida, ijtimoiy-psixologik, tibbiyot va yuridik amaliyotida o‘zgartirishlar kiritilishiga erishildi. Zo‘ravonlikning qator ildizlari va manbalari bo‘lgani tufayli uning shakllari ham ko‘p, ularni shartli ravishda uch toifaga ajratish mumkin .

Ayrim davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan siyosiy yoki etnik zo‘ravonlik.

Gender zo‘ravonlik.

Uyda sodir etiladigan maishiy zo‘ravonlik.

Birinchi toifa ayrim davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan zo‘ravonlik (etnik zo‘ravonlik: etnik mojarolar, etnik urushlar, deportatsiya, majburiy migratsiya).

Ikkinchi toifa Gender zo‘ravonlikdir**.** Zo‘ravonlikning bu turi jinsiy xususiyatiga ko‘ra kamsitishga asoslangan bo‘lib, odatda, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik sifatida izohlanadi.

Gender zo‘ravonlik – ijtimoiy-madaniy fenomen, tushuncha bo‘lib, u jinsga nisbatan qaratilgan qaramlikni ifodalaydi. Rossiyalik tadqiqotchi V.Yadovning yozishicha, “Individning jins va yoshi” haqidagi tavsiflar biologik tushunchalardir. Lekin bu masala chuqurroq qarab chiqilsa, u ijtimoiy madaniy ekvivalentga egaligini, erkak yoki ayol bo‘lish uchun turli ijtimoiy tizimda turli vazifalarni bajarishlarini ko‘rishimiz mumkin. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab “Gender zo‘ravonlik” tushunchasi bir necha ijtimoiy fanlarda qo‘llanila boshladi.

Maishiy zo‘ravonlikning tarixiy sabablarini o‘rganuvchilar erkak ayolni jazolashi haqida qonun-qoidalar mavjudligini, erkak – er “Ayolni tartibga chaqirish” huquqiga ega ekanligini ko‘rib chiqadilar. Gendolf va Fisherlar XX asr qonunchiligiga ko‘ra, “Ayolni urish uchun mo‘ljallangan tayoq bosh barmoq yo‘g‘onligida bo‘lishi kerak”, fikriga asoslanadilar. AQSHda 1824-yil qonunga ko‘ra, erkak ayolini jismoniy, u jazodan ozod etilgan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, maishiy zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni kamsitishning gender asoslari o‘sha davrdayoq bahs va munozara, muammoga aylana boshlagan[6].

Ijtimoiy munosabatlar zamirida gender zo‘ravonlikka erkakning ayol jinsiga nisbatan majburiy ta’sir, shafqatsiz munosabat qo‘llashi, deb qarash mumkin. Shuningdek, gender zo‘ravonlikning ijti-

moiy-madaniy mohiyatini, ijtimoiy madaniy tushuncha ekanligini, unga sotsiologik yondashuvda bu tushunchaning xususiyatlarini anglash zarur.

Xotin-qizlarga qaratilgan zo‘ravonlik nafaqat inson huquqini poymol etib qolmay, balki millionlab xotin-qizlar hayotini barbod etib, rivojlanish yo‘lini to‘sib, xavfsizlikka erishishga to‘sqinlik qiladi.

Uchinchi toifa maishiy zo‘ravonlik deb nomlanadi. Bu – zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan turlaridan biri. Yaqin paytlargacha ushbu muammo deyarli yashirin bo‘lib, zo‘ravonlikning bunday turi “Odamning shaxsiy ishi”, jamiyat ham, davlat ham oilaning shaxsiy ishlariga aralashishni lozim, deb bilmagan. Uydagi zo‘ravonlik yaqin yoki qarindoshlik aloqalarida bo‘lgan, bir-birlari uchun xavf tug‘dirmaydigan, aksincha, bir-birlarini himoya qiladigan va bir-birlariga madad beradigan deb hisoblanuvchi odamlar orasida sodir bo‘ladi .

Ijtimoiy-madaniy zo‘rlashning ham turli shakllari mavjud bo‘lib, etnik kelib chiqishiga ko‘ra oilada kamsitish (boshqa etnik guruhga, millatga, hududga tegishliligi asosida kamsitish), e’tiqodiga ko‘ra kamsitish, asosiy reproduktiv huquqlarning buzilishi (erta nikoh, turmush o‘rtog‘ini tanlashda erksizlik, ayolga qachon, qancha va qanday jinsdagi bola tug‘ishi lozimligini uqtirish va h.k.).

Iqtisodiy zo‘rlashga iqtisodiy qaramlikdan foydalanishni kiritish mumkin: ishga kirishga ruxsat bermaslik, vaqt va harakatlarini to‘liq nazorat qilish, moliyaviy yordamdan mahrum etish yoki mahrum etish bilan qo‘rqitish.

Demak, zo‘ravonlik — jinsiy, iqtisodiy va psixologik turlarga bo‘linishi bilan birga, u barcha geografik, madaniy va sinfiy chegaralarni kesib o‘tadi. Bu inson huquqlarini poymol etib, xotin-qizlarning xavfsizligiga tahdid soladi. Buning natijasi qurbon bilan tugamaydi. Bular xotin-qizlarni o‘rab turgan insonlarga, ularning hamjamiyatlari va ular yashab turgan jamiyatga uzoq vaqt salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biologik determenizm jinslar o‘rtasidagi tushunishga yondashuv sifatida genderni ijtimoiy shakllantirish tarafdorlari tomonidan jiddiy tanqid qilinadi. Ularning fikricha, o‘g‘il va qiz bolalarda ijtimoiylashtirish jarayonida turli malaka va ruhiy fazilatlarni tarbiyalash, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti jamiyatda qabul qilingan madaniy me’yorlar, rollar va stereotiplar gender farqlarni shakllantirish jarayonini ifodalaydi. Biologik determinizm jinslar o‘rtasidagi tushunishga qaratilgan yondashuvning tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda nafaqat qabul qilingan madaniy me’yorlar, rollar va stereotiplar gender farqlarni shakllantirish jarayonini ifodalaydi, lekin, fikrimizcha, bu jarayonda ijtimoiy muhitning ham ahamiyati beqiyos. Inson jamiyatga moslashar ekan, unda o‘z maqomiga ega bo‘lishi va rollar taqsimotida u yashayotgan ijtimoiy muhitning ta’siri ham birlamchidir.

Turli ijtimoiy-falsafiy va siyosiy konsepsiyalarning rivojlanishi feminizmning yuzaga kelishi uchun nazariy asos bo‘ldi. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga keskin yondashuv xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishga, ularga, dastavval, mehnat va ta’lim olishda, keyinchalik esa fuqarolik huquqlari, birinchi navbatda, ovoz berish huquqiga ega bo‘lishda, erkaklar bilan teng huquqlarni berishga qaratilgan feministik g‘oyalarni vujudga keltirdi .

Feminizmdagi liberal oqim vakillari ta’lim olish va mehnat qilish huquqi, mulkka ega bo‘lish huquqi, shuningdek, davlat hokimiyati organlariga saylash va saylanish huquqi uchun kurashni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo‘ydilar. Nemis sotsial-demokrati Avgust Bebelning 1878-yilda yozgan “Ayollar va sotsializm” kitobi sotsialistik feminizm uchun nazariy baza bo‘lib xizmat qilgan asarlardan biridir. A.Bebel ham F. Engels kabi ayollarni kamsitish sinfiy jamiyat rivojining natijasi ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyadan kelib chiqqan holda, inqilob natijasida buning o‘rniga sotsialistik jamiyat keladi, unda ayollar to‘la erkin bo‘ladilar, chunki yangi davlat bolalarni tarbiyalash to‘g‘risidagi barcha g‘amxo‘rliklarni o‘z zimmasiga oladi va xotin-qizlarning yelkasidan uy ishlarining barcha og‘irliklarini oladi, degan fikrni olg‘a suradi.

Psixoanalitik feminizm maqsadlarida foydalanilgan dastlabki asar Juliyet Mitchellning “Psixoanaliz va feminizm” (1974) asaridir. J.Mitchell xotin-qizlarning bo‘ysunuvchanlik holatida bo‘lishiga barham berish uchun ularning chuqur shaxsiy ko‘nikmalarini o‘zgartirish zarur, degan g‘oyani ilgari suradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, 2019-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi, ochiqlik va shaffoflik xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarining ta’minlanishi belgilab qo‘yilganligi jamiyatda xotin-qizlarning imkoniyatlari va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi [7]. Mazkur qonunning ahamiyati shundaki, davlat tomonidan xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarish, saylov jarayonida teng ishtirok etish, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minlanishiga erishish mamlakatimizda gender strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab qo‘yildi. Davlat va jamiyatning zamonaviy oilalarda ayol va erkaklar uchun o‘z salohiyat va imkoniyatlarini namoyon etishlarida bir xil shart-

sharoit,bir xil imkoniyatlar yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashda muhim poydevor hisoblanadi.

Ushbu Qonun bilan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar, gender, gender statistikasi, gender-huquqiy ekspertiza, jins bo'yicha bevosita kamsitish, jins bo'yicha bilvosita kamsitish kabi yangi tayanch tushunchalar kiritilib, mazmun-mohiyati ochib berildi, davlat xizmati sohasida, saylov huquqlarini amalga oshirishda, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda, ta'lim, ilmfan, madaniyat hamda sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari belgilandi. Xususan, qonun hujjatlaridagi jins bo'yicha kamsitilishga yo'l qo'yadigan normalarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida ushbu hujjatlar va ular loyihalarining gender-huquqiy ekspertizasi o'tkaziladigan bo'ldi. Shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi yagona davlat siyosati Gender tengligini ta'minlash bo'yicha komissiya tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, psixoanalitik feminizmning zaif joyi shundan iboratki, u ayollar bo'ysunishining psixologik sabablariga e'tiborini qaratar ekan, ayollarning tengsizlik holatini kompleks ravishda obyektiv tushuntirib bera olmaydi. Zotan, psixoanalitik yo'nalishning xizmati shundaki, u ayol shaxsiyatini kamsitadigan psixik jarayonlarga ayollarning o'z e'tiborini qaratishga erishdi.

BMTning xalqaro shartnomaviy qarorlarida, aynan xotin-qizlarni kamsitish, ularni jins tomonidan huquqlarini chegaralash inson huquqlari va ularning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik erkinliklarini yo'qqa chiqarishdir, deb belgilanadi. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik, gender zo'ravonlik, xotin-qizlarga jismoniy, psixologik va jinsiy xarakterda zarar yetkazib, ularning boshqa turdagi erkinliklariga to'sqinlik qiladi.

Xotin-qizlarning huquqlarini xalqaro darajada ilgari surishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda xotin-qizlarning teng huquqliligini ta'minlash borasida ish olib borayotgan uning muassasalari katta rol o'ynadi. 1990-yillardan boshlab xalqaro hujjatlarda "Ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligi" tushunchasidan o'tib ketish kuzatilmoqda, bu esa "Gender tenglik" tushunchasiga ayollarni erkaklar maqomiga qadar "Tortish" deb talqin qilinadi, ayollar va erkaklar uchun xalqaro teng huquqlar standartlarini tan olish va yaratishni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shilgan, o'z zimmasiga erkaklar va ayollar xulq-atvorining ijtimoiy va madaniy modelini o'zgartirish, bir jinsning boshqa jinsga nisbatan ojizligi g'oyasiga asoslangan aqida va urf-odatlarni bartaraf etish uchun barcha choralarni ko'rish vazifasini olgan. Mazkur Konvensiya va boshqa xalqaro hujjatlarga muvofiq, davlat xotin-qizlar huquqlari va qadr-qimmatiga mos bo'lmagan tajriba va urf-odatlarni aniqlab, bartaraf etishi lozim.

Maishiy zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarning kamsitilish holatlari tahlilining gender asoslari bugungi kunning munozara talab va yanada chuqurroq o'rganilishi lozim bo'lgan masaladir. Respublikada olib borilayotgan gender siyosatining asosiy yutuqlari sifatida ayollarning ta'lim darajasi hamda ijtimoiy hayotda ishtirok etish ulushi yuqori ekanligini ta'kidlab o'tish mumkin. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi va 2019-yil 2-sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar mana shu ustuvor maqsadlarga erishishda dasturilamal bo'lmoqda. Zero, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohaning barcha jabhalarida erkaklar va ayollarning yuridik jihatdan tengligi mustahkamlab qo'yilar ekan, davlatimiz imtiyoz va ustuvorliklar, kafolatlar tizimi orqali ularning mehnati hamda salomatligini muhofaza qilish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratmoqda.

### *Iqtiboslar/Сноски/References*


*1. Здравомыслова Е.А., Темкина А.А. Социальное конструирование гендера. Социологический журнал. 1998. № 3/4. – С.114-115.*

*2. Goffman E. Gender display // Studies in the Antropology of Visual Communication. 1976. No. 3. –P. 69-77.*

*3. Темкина А. Женский путь в политику: гендерная перспектива // Гендерное измерение социальной и политической активности в переходный период: Труды Центра независимых социальных исследований. Вып. 4 / Под ред. Е. Здравомысловой, А. Темкиной. – СПб., 1996. – С. 19-32.*

*4. Берковиц Л. Агрессия: причины, последствия и контроль / Л. Берковиц. СПб.: Прайм-Еврознак, 2002. – 512 с.*

*5. М.Киммел. Гендерное общество. 2006. – С.208-209.*

*6. Осипян Н.Б. Женское насилие в отношении мужчин: анализ зарубежных и отечественных исследований. Северо-Кавказский психологический вестник\ №10/4 2012. – С.42-46.*

*7. Ўзбекистон Республикасининг "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида"ги Қонуни. 2019 йил 2 сентябрь.*

***Sarvar BOTIROV***
**Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi**
**bosh mutaxassisi,**
**tarix fanlari falsafa doktori (PhD)**
**E-mail: sarvarbi@gmail.com**

# O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-SIYOSIY, XUSUSAN XOTIN-QIZLAR HUQUQINI TA'MINLASH SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

♦ *Ushbu maqolada O'zbekistonda so'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish maqsadida sohada qabul qilingan yangi huquqiy normativ hujjatlar, qayta tashkil qilingan institutsional tizim hamda ayollarning huquqlarini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar kabi masalalar yoritilgan. Shu bilan birga, jamiyatda mazkur sohadagi mavjud holat yuzasidan olib borilgan izlanishlar hamda islohotlarga nisbatan aholining munosabati masalalari haqida ma'lumot berilgan.*

♦ *В данной статье освещены вопросы, касающиеся новых правовых нормативных документов, принятых в последние годы в Узбекистане с целью совершенствования системы защиты прав и интересов женщин, реорганизованной институциональной системы, а также мер, предпринятых для обеспечения прав женщин. Наряду с этим, представлена информация о проведённых исследованиях по текущему положению в данной сфере в обществе и об отношении населения к реформам.*

♦ *This article highlights the new legal regulatory documents adopted in Uzbekistan in recent years to improve the system of protecting women's rights and interests, the restructured institutional system, and the measures taken to ensure women's rights. Additionally, it provides information on the research conducted regarding the current situation in this field within society and the public's attitude towards the reforms.*

***Kalit so'zlar:*** *gender tenglik, xotin-qizlar huquqlari, zo'ravonlikka qarshi kurash, oilaviy qadriyatlar.*

***Ключевые слова:*** *гендерное равенство, права женщин, борьба с насилием, семейные ценности.*

***Keywords:*** *gender equality, women's rights, the fight against violence, national values.*

**Kirish (Introduction).** Ma'lumki, gender tenglik insonning eng muhim huquqlaridan biri bo'lib, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashda, barqaror rivojlanishga asoslangan holda inson salohiyatini boricha amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

Shu bois O'zbekistonda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan xotin-qizlar huquqini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini oshirish maqsadida xotin-qizlarning manfaatini ifodalovchi va himoyalovchi institutsional tizim shakllantirildi, shuningdek, qator huquqiy hujjatlar qabul qilinib, turli imtiyozlar joriy qilindi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi[1] va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi[2] qonunlar hamda Gender tenglikka erishish strategiyasi"[3] qabul qilinib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, Oliy Majlis Senati Raisi rahbarlik qiluvchi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shu bilan bir qatorda, gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

Shuningdek, xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" tizimi joriy etilib, Davlat budjetidan har yili 300 mlrd so'm mablag' ajratib borish yo'lga qo'yildi.

Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarning o'qish to'lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi[4].

2022 yil 7 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib[5], oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish, davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari to'liq davlat budjetidan qoplab berilishi tartibi joriy qilindi.

Qolaversa, har yili 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy budjetdan to'lab berilishi, doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun 300 tadan maqsadli kvota ajratilishi ham belgilandi.

Mazkur yaratilgan shart-sharoitlar natijasida bugungi kunga kelib oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlarning ulushi sezilarli ravishda ortdi. Misol uchun, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, hozirda mamlakat OTMlarida tahsil olayotgan 1 134 469 nafar talabalarning 579 737 nafari yoki 51,10 foizi, magistratura bosqichida tahsil olayotgan 19 008 nafar talabalarning 11 436 nafari yoki 60,16 foizi xotin-qizlardan iborat[6].

2022-2023 o'quv yilida bu ko'rsatkich bakalavr bosqichida 47,5 foizni, magistraturada 52,8 foizni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan davrga nisbatan mos ravishda 3,6 va 7,36 foizga ko'payganini ko'rish mumkin[7].

Shuningdek, xorijiy oliy ta'lim muassasalariga bakalavriat uchun 50 nafar, magistratura uchun 10 nafar xotin-qizlarga har o'quv yilida "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratish tartibi yo'lga qo'yilgan.

O'z navbatida, sohada amalga oshirilgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakat o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, Jahon bankining Ayollar, biznes va qonun indeksida O'zbekiston 2020 yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o'rinni egalladi.

Sohada huquqiy mexanizm kuchaytirilgach, gender tengligi va xotin-qizlar huquqining ta'minlanishi, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik, ularning huquq va manfaatlari buzilishiga qarshi kurash borasida sezilarli natijalarga erishilgan.

---

[1] ЎРҚ-562-сон 02.09.2019.Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида (lex.uz)

[2] ЎРҚ-561-сон 02.09.2019. Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида (lex.uz)

[3] СҚ-297-IV-сон 28.05.2021.2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида (lex.uz)

[4] https://lex.uz/docs/5466673

[5] https://lex.uz/docs/5899498#5901638

[6] https://stat.edu.uz/students

[7] https://factchecknet.uz/2024/01/19/ayollar-va-talim-raqamlar-sozlaganda/

Jumladan, zoʻravonlik holatlaridan jabrlangan xotin-qizlarga davlat himoyasini beruvchi hujjat – himoya orderi berish orqali muammoli holatlarning maʼlum qismi hal qilingan.

Xususan, 2023 yilning yanvar-iyul oylarida oʻz oilasida tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlangan 21 871 nafar xotin-qizga himoya orderi berilgan[8]. Himoya orderi berish natijasida 9 362 ta oilani tiklashga, 11 350 ta oilada nizolarni bartaraf etishga erishilgan. Rasmiylashtirilgan 5 495 ta himoya orderi boʻyicha maʼmuriy yoki jinoiy javobgarlik belgilanib, xotin-qizlarning buzilgan huquqlari tiklangan.

Oliy sud matbuot xizmati maʼlumotiga koʻra, 2024 yilning birinchi choragida oilaviy (maishiy) zoʻravonlik sababli 4 343 nafar shaxs maʼmuriy javobgarlikka tortilib, ularning 2 344 nafariga jarima jazosi, 1 999 nafariga esa maʼmuriy qamoq jazosi qoʻllanilgan. 2023 yilda esa xuddi shu sabab bilan 8 928 nafar shaxs maʼmuriy javobgarlikka tortilib, ularning 5 229 nafariga jarima jazosi, 3 699 nafariga esa maʼmuriy qamoq jazosi berilgan[9].

Shuningdek, 2024 yilning birinchi choragida oilaviy (maishiy) zoʻravonlik boʻyicha (Jinoyat kodeksining 126-1-moddasi) 134 nafar shaxs sudlanib, ularning 51 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 83 nafariga esa ozodlikdan mahrum qilish bilan bogʻliq boʻlmagan jazolar tayinlangan. 2023 yilning mos davrida esa Jinoyat kodeksining mazkur moddasi bilan 203 nafar shaxs sudlanib, ularning 59 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 144 nafariga esa ozodlikdan mahrum qilish bilan bogʻliq boʻlmagan jazolar berilgan[10].

Qayd etib oʻtish joizki, soʻnggi yillarda sohada olib borilgan tizimli oʻzgarish va islohotlar natijasida xotin-qizlarning huquqlari buzilishiga oid navbatdagi holat, qizlarning erta nikohga berilishiga qarshi kurash masalasiga ham jiddiy eʼtibor qaratilgan.

Misol uchun, FHDYo organlari tomonidan 17 yoshda nikohi qayd etilgan xotin-qizlar soni 2016 yilda 4233 tani, 2017 yilda 4853 tani va 2018 yilda 5123 tani tashkil etgan[11].

2019 yilda "Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksi"da ayollar uchun nikoh yoshini amaldagi 17 yoshdan 18 yoshga oʻzgartirilgach, erta turmush holatlari 97 foizga kamaygan. Xususan, 2020 yilda 88 ta, 2021 yilda 92 ta erta nikoh holati qayd etilgan. Shuningdek, 2023 yilda 68 ta, 2024 yilning birinchi choragida 22 ta erta nikoh holatlari aniqlangan. Prokuratura organlari maʼlumotiga koʻra, ushbu holatlar yuzasidan 41 nafar shaxs maʼmuriy javobgarlikka tortilgan, 55 ta holatda erta nikohning oldi olingan[12].

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, oiladagi nizoli holatlarning oldini olish va ajrim yoqasiga kelgan oilalarni yarashtirish maqsadida, Oʻzbekiston Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi, "Oqila ayollar harakati" aʼzolari, Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, tegishli mutaxassislar hamda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda 2024 yilning yanvar-iyun oylarida qator targʻibot tadbirlari oʻtkazilib, respublikada 120 688 ta muammoli oila oʻrganilgan. Ulardan 59 345 tasida nizolar bartaraf etilgan, 36 618 ta oila yarashtirilgan, 12 347 ta aliment, 2 665 ta uyga kiritish, 4 953 ta mol-mulk bilan bogʻliq nizolar hal etilgan[13].

Umuman olganda koʻrish mumkinki, bugungi kunda mamlakatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida tizimli islohotlar olib borilayotgani qisqa vaqtda oʻz natijasini koʻrsatgan. Oʻz navbatida, boshqaruv lavozimlarida, siyosiy jarayon va saylovlarda, oliy taʼlim muassalari va tadbirkorlikda xotin-qizlarning ulushi sezilarli ortishiga, shuningdek jamiyatda mazkur sohadagi islohotlarga ishonch kuchayishiga erishilgan.

Jumladan, 2024 yilning avgust oyida Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi tomonidan Namangan, Jizzax, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida 560 nafar turli yoshdagi, ijtimoiy-iqtisodiy guruhdagi, turli oilaviy holat va kasbiy faoliyatdagi aholi vakillari ishtirok etgan soʻrovnoma oʻtkazilgan. Unda mamlakatda gender tenglik va xotin-qizlar huquqlarining taʼminlanishi borasidagi siyosat yuzasidan aholining fikrlari oʻrganilgan.

"Mamlakatda gender tengligi qanday darajada taʼminlangan?" degan savolga ishtirokchilarning 39,7 foizi oʻrtacha taʼminlangan, 27,9 foizi yaxshi taʼminlangan, 10,8 foizi toʻliq taʼminlangan, 18,8 foizi yetarli darajada taʼminlanmagan va 2,8 foizi umuman taʼminlanmagan deb javob bergan. Yuqorida berilgan javoblardan koʻrish mumkinki, aholining aksariyat qismi mamlakatda gender tengligi taʼminlangan degan fikrni bildirgan (1-diagramma).

Soʻrovnomadagi "Sizningcha, davlat tomonidan ayollar huquqlari qanday darajada taʼminlangan?" savoliga ishtirokchilarning 38,2 foizi yaxshi taʼminlangan, 32,9 foizi oʻrtacha taʼminlangan, 15,3 foizi toʻliq taʼminlangan, 12,7 foizi yetarli darajada taʼminlanmagan va 0,9 foizi umuman taʼminlanmagan deb javob bergan (2-diagramma).

---

[8] Ўзбекистонда етти ойда тазйиқ ва зўравонликдан жабрланган 22 минг хотин-қизларга ҳимоя ордери берилди — Uzbekistan News | DARYO.UZ

[9] https://qalampir.uz/news/uzbekistonda-3-oy-ichida-kancha-kishi-oiladagi-zuravonlik-uchun-sudlangani-ochiklandi-100050

[10] Oʻsha joyda.

[11] Ўзбекистонда никоҳ ёши аёллар учун 18 ёш этиб белгиланмоқда - Халқ сўзи (xs.uz)

[12] https://t.me/zamonuz/50563

[13] https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/45010




**1-diagramma. Jamiyatda gender tengligi qanday darajada ta’minlangani bo‘yicha respondentlarning javoblari.**




**2-diagramma. Davlat tomonidan ayollar huquqlari qanday darajada ta’minlanganiga nisbatan munosabat.**




**3-diagramma. “Agar uchragan bo‘lsangiz, qanday turdagi huquq buzilishiga duch kelgansiz?” savoliga berilgan javoblar.**

Biroq, o’z navbatida aytib o’tish kerakki, hukumat tomonidan sohada izchil islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramasdan, jamiyatda xotin-qizlarning huquqlari buzilishi holatlarini yo’q deb bo’lmaydi.

Misol uchun, so’rovnomadagi “So‘nggi vaqtda siz yoki sizning yaqinlaringiz ayollar huquqi buzilishi bilan bog‘liq muammoga uchraganmi?” savoliga nisbatan respondentlarning 41,8 foizi muammoga uchraganini, 58,2 foizi esa muammoga uchramaganini qayd etgan. “Muammoga uchragani”ni bildirgan ishtirokchilarning 36,7 foizi Toshkent shahri, 24,1 foizi Namangan, 22,9 foizi Jizzax va 16,3 foizi Xorazm viloyatlari respondentlari bo‘lgan.

“Agar uchragan bo‘lsangiz, qanday huquq buzilishiga duch kelgansiz?” savoliga ishtirokchilarning 39,9 foizi mehnat huquqlarining buzilishi, 26,7 foizi psixologik bosim, 23,3 foizi jismoniy zo‘ravonlik, 6,6 foizi ijtimoiy diskriminatsiya va 3,4 foizi jinsiy zo‘ravonlik deb javob bergan (3-diagramma).




**4-diagramma. “Sizningcha, ayollar huquqlarining buzilishining asosiy sabablari nimada?” savoliga berilgan javoblar.**

2023 yil avgust oyida Jahon bankining Markaziy Osiyo bo‘yicha katta iqtisodchisi Uilyam Zeyts tomonidan O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonda maosh to‘lashdagi jinsiy diskriminatsiya bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda ish haqi to‘lashda gender bo‘yicha farq saqlanib qolayotgani asosan ayollarga nisbatan shakllangan stereotiplar bilan bog‘liqligi ta’kidlangan. Tadqiqot davomida Qozog‘istonda erkaklar va ayollar ish haqi o‘rtasidagi farq 22, Qirg‘izistonda 25, O‘zbekistonda esa 39 foizni tashkil etgani aniqlangan[14].

“Ayollar huquqlarining buzilishining asosiy sabablari nimada?” savoliga respondentlarning 26,5 foizi ma’rifatsizlik, 24,0 foizi qonunlarning ijrosi past darajada ekani, 22,9 foizi ijtimoiy-madaniy an’analar, 22,5 foizi iqtisodiy muammolar va 4,1 foizi boshqa sabablar deb javob bergan (4-diagramma).

Ayollar huquqlarining buzilishini oldini olish uchun qanday choralar ko‘rish kerakligiga oid savolga nisbatan ishtirokchilarning 26,0 foizi qonunlarning ijrosini kuchaytirish, 23,4 foizi jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, 19,7 foizi ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini ko‘paytirish, 16,7 foizi psixologik yordam berish, 12,6 foizi ma’rifiy kampaniyalar o‘tkazish va 1,6 foizi boshqa choralar qo‘llash kerakligini ta’kidlaganlar.

O‘z navbatida, soha mutaxassislari tomonidan mazkur muammolarni hal qilish uchun jamiyatda xotin-qizlar bilan bog‘liq muammolarni tizimli o‘rganish, tazyiq va zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlariga qarshi kurash bo‘yicha qonun ustuvorligini ta’minlash, oila, mahalla va ta’lim muassasalarida tushuntirish, targ‘ibot ishlarini olib borish, maktabgacha, maktab va oliy ta’lim tizimi o‘quv dasturlariga gender tengligiga oid mavzularni kiritish, internet va OAVda mavjud muammolar va ularning yechimiga qaratilgan ijtimoiy roliklar namoyishini tashkil qilish kabilarni amalga oshirish zarurligi ta’kidlangan.

Ta’kidlash o’rinliki, gender tengligi va xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta’minlash borasida bir qator xorijiy davlatlarda samarali siyosat olib borilgan.

Jumladan, Shvetsiya ta’lim tizimida gender tenglik ideal ravishda barcha bosqichlarni qamrab oladi. Mazkur tamoyillarga maktabgacha ta’lim muassasalaridanoq amal qilinadi. Asosiy maqsad bolalarga ularning jinsidan qat’iy nazar hayotda teng imkoniyatlarni taqdim etishdan iborat. Shu bilan birgalikda har bir bola o‘ziga xos shaxs sifatida voyaga yetishi uchun mo‘ljallangan ta’lim metodlaridan foydalaniladi. Gender tengligi masalalari o‘quvchilarni ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlash maqsadida boshlang‘ich maktab dasturini to‘liq qamrab oladi[15].

Avstraliya iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi kurashga ham alohida e’tibor qaratadi. 2019-2020 yillarda mamlakat budjetidan 119,2 Avstraliya dollari miqdoridagi mablag‘ ayollarning «Moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash»ga yo‘naltirilgan. Ma’lum bo‘lishicha, oiladagi zo‘ravonlikka uchragan ayollarning 90 foizi iqtisodiy zo‘ravonlikka ham duch keladi.

Bundan tashqari, mamlakatda qisqa muddatli foizsiz kreditlar tizimi mavjud. Bunda zo‘ravonlikka uchragan ayollar 3000 AQSh dollarigacha bo‘lgan summani hamkor banklardan foizlarsiz ikki yil muddatga olishi va uni turar joy ijarasi yoki kommunal to‘lovlarga sarflashi mumkin[16].

2021 yilda esa Avstraliya hukumati oiladagi zo‘ravonlik qurbonlariga bir martalik to‘lov tartibini joriy qilgan. Jabrlanuvchi bu pulni alohida turar joy ijarasiga yoki boshqa xonadonga ko‘chib o‘tishga sarflashi mumkin.

Shuningdek, gender tenglik Islandiyada ta’limning barcha bosqichlarida majburiy mavzu sifatida o‘rgatiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalari va universitetlarda gender tengligiga bag‘ishlangan darslar yoki tadbirlar o‘tkazilishi zarur hisoblanadi[17].

---

[14] Стереотиплар аёлларнинг маошини пасайтиради– Жаҳон банки тадқиқоти – Ўзбекистон янгиликлари – Газета.uz (gazeta.uz)

[15] https://sweden.se/life/equality/gender-equality

[16] https://oyina.uz/kiril/article/2949

[17] https://aussiedlerbote.de/2023/06/gendernoe-ravenstvo-v-germanii-chemu-stoit-pouchitsya-u-islandii/

Undan tashqari, Islandiya belgilangan qonunlarga asosan, kompaniyalar bir xil lavozimda ishlayotgan ayollar va erkaklarga bir xil maosh to‘lashi kerak. Agar ular bunga amal qilmasalar, jarimaga tortilishlari mumkin[18].

**Xulosa (Conclusion).** Xulosa sifatida qayd etish joizki, gender tengligi va xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash borasida O‘zbekistonda qonuniy mexanizm hamda institutsional tuzilma yaratilgan bo‘lsada, jamiyatda gender tengligi, xotin-qizlar huquqlari buzilishi va oila qadriyati inqirozi masalasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar mavjud.

Xususan, mamlakatning barcha hududlarida xotin-qizlarga nisbatan ayrim cheklovlar, ularning manfaatlari buzilishi holatlari uchraydi. Jamiyatda esa aholining qarashlarida turli stereotiplar, xotin-qizlarning ilm olishi va kasb-hunar o‘rganishiga oid to‘siqlar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik kabi holatlar mavjud.

Undan tashqari, ishsizlik va moddiy ta’minotdagi muammolar, er-xotin o‘rtasidagi ziddiyatli holatlar, noto‘g‘ri tarbiya, ajrimlar, ilmsizlik, oilada qizlarning kamsitilib katta qilinishi, o‘qish va kasb tanlashda qizlarning qiziqishlariga e’tibor sustligi, yosh oilalardagi qadriyatlarga nisbatan e’tiborsiz munosabat kabilar oila qadriyatining inqiroziga olib kelmoqda.

***Foydalanilgan adabiyotlar va elektron resurslar ro‘yxati***


1. *Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/4494849 (murojaat qilingan sana: 10.08.2024).*
2. *Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Qonuni // O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/4494709 (murojaat qilingan sana: 10.08.2024).*
3. *2030 yilga qadar O’zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida Oliy Majlisi Senatining Qarori // O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/5466673 (murojaat qilingan sana: 10.08.2024).*
4. *Ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalar statistik ma’lumotlari // O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi. URL: https://stat.edu.uz/students (murojaat qilingan sana: 11.08.2024).*
5. *Ayollar va ta’lim. Raqamlar so‘zlaganda // factchecknet.uz. URL: https://factchecknet.uz/2024/01/19/ayollar-va-talim-raqamlar-sozlaganda/ (murojaat qilingan sana: 11.08.2024).*
6. *O’zbekistonda 3 oy ichida qancha kishi oiladagi zo’ravonlik uchun sudlangani ochiqlandi // QALAMPIR.UZ axborot-tahliliy internet-nashri. URL: https://qalampir.uz/news/uzbekistonda-3-oy-ichida-kancha-kishi-oiladagi-zuravonlik-uchun-sudlangani-ochik-landi-100050 (murojaat qilingan sana: 11.08.2024).*
7. *O’zbekistonda nikoh yoshi ayollar uchun 18 yosh etib belgilanmoqda // xs.uz veb-nashri. URL: https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-nikoh-yoshi-ayollar-uchun-18-yosh-etib-belgilanmoqda (murojaat qilingan sana: 12.08.2024).*
8. *Stereotiplar ayollarning maoshini pasaytiradi — Jahon banki tadqiqoti // “Gazeta.uz” internet-nashri. URL: https://www.gazeta.uz/uz/2023/08/30/wage-discrimination/ (murojaat qilingan sana: 12.08.2024).*
9. *Equal power and influence for women and men – that’s what Sweden is aiming for // Shvetsiya Institutining Sweden.se veb sayti. URL: https://sweden.se/life/equality/gender-equality (murojaat qilingan sana: 12.08.2024).*


[18] https://aussiedlerbote.de/2023/06/gendernoe-ravenstvo-v-germanii-chemu-stoit-pouchitsya-u-islandii/

***Shaxnoza ABDIRAIMOVA***
**"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot**
**instituti ilmiy xodimi, mustaqil izlanuvchisi**
**e-mail: shakhnoza.abdiraimova@mail.ru**
**I.f.d., prof. X.X. Abduramanov taqrizi ostida**

# UZOQ UMR KO'RISH TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-DEMOGRAFIK MAZMUNI

♦ *Ushbu maqolada uzoq umr ko'rish tushunchasining ijtimoiy-demografik mazmuni haqida batafsil tahlil qilindi. Shuningdek, uzoq umr ko'rish, keksalik yoshi, uzoq umr ko'rganlar, keksalik yoshi tasnifi, uzoq umr ko'rishning meditsina, gerontologik adabiyotda va demografiyadagi kompleks ta'riflariga to'xtalib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasida tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi, aholining keksayish darajasi mezoni, uzoq umr ko'rish koeffitsiyenti haqida yoritilgan hamda uzoq umr ko'ruvchilar salomatligini yaxshilash, sog'lom turmush tarzini yaratish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.*

♦ *В данной статье подробно проанализировано социально-демографическое содержание понятия долголетия. Также обсуждаются долголетие, старость, долгожители, классификация старости, комплексные определения долголетия в медицине, геронтологической литературе и демографии. Даны классификация старости, ожидаемая продолжительность жизни при рождении в Республике Узбекистан, критерий старения населения, коэффициент долголетия, а также предложения и рекомендации по улучшению здоровья долгожителей и формированию здорового образа жизни.*

♦ *In this article, the socio-demographic content of the concept of longevity was analyzed in detail. Longevity, old age, long-lived people, classification of old age, complex definitions of longevity in medicine, gerontological literature and demography are also discussed. Classification of old age, expected life expectancy at birth in the Republic of Uzbekistan is explained, and suggestions and recommendations are given for improving the health of long-lived people and creating a healthy lifestyle.*

***Kalit so'zlar.*** *Uzoq umr ko'rish, keksalik yoshi, uzoq umr ko'rganlar, gerontologiya, meditsina, biologiya.*

***Ключевые слова.*** *Долголетие, старость, долголетие, геронтология, медицина, биология.*

***Key words.*** *Longevity, old age, longevity, gerontology, medicine, biology.*

**Kirish.** Rivojlangan va rivojlanayotgan ko‘plab mamlakatlarda aholi tarkibida uzoq umr ko‘ruvchilarning ulushi tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Aholining uzoq umr ko’rishi hozirgi davrda zamonaviy demografik hodisa bo‘lib, garchi uning rivojlanish intensivligi turlicha bo‘lsa-da, barcha mamlakatlar uchun xosdir. Mamlakatimizda uzoq umr ko’rishni ko’paytirish, keksalarning faolligini oshirish masalaning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 11-martdagi PQ-92-son, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi, “Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasi” [1] bu borada ahamiyatlidir. Qariyalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga O‘zbekiston hukumati tomonidan katta ahamiyat berilgan. Jumladan, sohaga oid 10 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi, nuroniylarning ijtimoiy faolliklarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida «Faxriy murabbiy» ordeni va «Mehnat faxriysi» ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

Keksalar uchun 152 ta tuman va shaharda «Nuroniylar maskani» majmualari tashkil etildi. Barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to‘liq miqdorda to‘lash yo‘lga qo‘yildi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda nuroniylar jamoatchilik kengashlari, mahallalarda «Keksalar maslahati» guruhlari tashkil etildi. «Keksalar haftaligi» va «Keksalar uchun turizm oyligi»ni o‘tkazish an’anaga aylandi.

Biroq, demografik prognozlarning ko‘rsatishicha, istiqbolda O‘zbekistondagi demografik jarayonlar intensiv tarzda o‘zgaradi va Respublika aholisining keksayishi darajasi nisbatan tezlashadi. Shuni hisobga olgan holda aholining qarishi, qariyalarni va uzoq umr ko‘ruvchilarni ijtimoiy himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalalarini atroflicha o‘rganish, tahlil qilish va tegishlicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish shu kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

XXI asr dunyosining demografik qarish tendensiyalari nafaqat 60/65 yoshidagi odamlarning yuqori darajasi haqida, balki eng qadimgi yosh guruhlarining juda tez qarishi haqida dalolat bermoqda. Shunday qilib, agar dunyo aholisining soni har yili 1,2% ga oshsa, 65 + yoshidagi aholi ikki barobar tezroq – 2,8%ga o‘smoqda, shu bilan birga 100+ yoshdagi aholi umumiy aholi sonining 4 barobaridan ko‘prog‘i – 9,4% bilan yillik o‘sish sur’atlarini ko‘rsatmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma’lumki, demografik hodisalarni tadqiq qilishda ilmiy faktni aniqlash uchun obyektning ma’lum xarakteristikalari predmet sifatida ajratib olinadi. Bundan tashqari, xarakteristikalar nafaqat tadqiqot predmeti sifatida ajratiladi, balki ma’lum bir holatlardan turib tushunilishi kerak. Aholining uzoq umr ko‘rishi hozirgi davrning zamonaviy demografik hodisasi hisoblanib, garchi uning rivojlanish intensivligi turlicha bo‘lsada, barcha mamlakatlar uchun xos bo‘lmoqda.

Dastlab, insonning uzoq umr ko‘rish muammosi meditsina-biologiya fanlari tomonidan o‘rganish predmeti bo‘lgan. Aynan biologlar, gerontologlar va mediklar insonning uzoq umr ko‘rishini o‘rganishga kompleks yondashuv zarurligini aytishdi. Meditsina-biologiya fanlari vakillari birinchilardan bo‘lib uzoq umr ko‘rish fenomenini tadqiq qilishda sotsiologiya va demografiya metodlaridan foydalanib boshlaganlar. Gerontologlarning fikriga ko‘ra, insonning keksayishi paradigmasini ishlab chiqish nafaqat biologlar va mediklarning, balki umuman ilmiy jamoatchilikning ham “umumiy ishi bo‘lishi mumkin”. Genetik olimlar O.V.Kvitko, I.I.Koneva, A.I.Tyurikov, Ya.I.Shayko kompleks yondashuv keksayish va uzoq umr ko‘rish mohiyatini yaxlit va bir vaqtning o‘zida sodda ochib berish imkonini beradi, deb hisoblashadi [2].

1970-yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlarda kompleks yondashuv asoschilaridan biri I.T.Frolov “odamni u yoki bu tarzda o‘rganadigan turli fanlar vakillari o‘rtasida kompleks ilmiy yondashuvni, muvofiqlashtirishni kuchaytirish zaruriyatini ta’riflagan”. I.T.Frolovning konsepsiyasida insonning qarishi va uzoq umr ko‘rishi muammosiga uning ijtimoiy mohiyatini anglashga asoslangan kompleks yondashuv zaruriyati ko‘rsatiladi [3].

Aholining uzoq umr ko‘rishi aholi umumiy sonida ulug‘ yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog‘ining kamayishi, shu bilan bir vaqtda o‘rta yoshdagi aholi sonining ko‘payishida o‘z ifodasini topadi. Ta’kidlash joizki, uzoq umr ko‘rish muammosi gerontologiya, meditsina va biologiya bo‘yicha ishlarda ko‘proq o‘rganilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sotsiologik va demografik tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyati sifatida 60 va undan katta yoshdagi aholi batafsil o‘rganiladi va faqat ushbu yosh guruhining umumiy muammolari kontekstida uzoq umr ko‘rganlar (90 yosh va undan kattalar)ga e’tibor qaratiladi.

**Tahlil va natijalar.** “Uzoq umr ko‘rish”, tushunchasini 1962-yilda gerontologlarning xalqaro kengashi yosh gradatsiyalarini quyidagicha tasdiqlaydi: 60/ 70 – qarilik yoshi; 75/89 – keksalik yoshi; 90 yosh va undan katta – uzoq umr ko‘rganlar, deb ta’rifladi [4].

Uzoq umr ko‘rish medisinada quyidagicha ta’riflanadi: uzoq umr ko‘rish inson hayotning o‘rtacha davom etishidan ancha oshadigan yuqori yosh chegaralarigacha yashab yetishi bilan xarakterlanadigan ijtimoiy-biologik hodisadir. Ushbu ta’rifda uzoq umr ko‘rishning mohiyati nafaqat biologik, balki ijtimoiy hodisa sifatida ham aktuallashtiriladi.

Meditsinada uzoq umr ko‘rish atrof-muhit omillari va aholining turmush tarzi majmuasining umr ko‘rishning potensial davomiyligini amalga oshirishga ta’sirining integral natijasi sifatida qaraladi. Aholining uzoq umr ko‘rishi aholi salomatligining funksiyasi va o‘lchovi, tashqi va ichki muhit faktorlarining ijobiy yuzaga kelgan omillarining o‘ziga xos sinovi sifatida baholanadi.

Gerontologik adabiyotda uzoq umr ko‘rish deb uzoq umr ko‘rishning eng yuqori darajasi 90 yosh va undan katta yoshga yetish ataladi. Uzoq umr ko‘rish inson hayotining yuqori yosh chegaralarigacha bo‘lgan ijtimoiy-biologik hodisa sifatida talqin etiladi. Uzoq umr ko‘rishning quyi chegarasi – 80 yosh [5].

Demografiyada uzoq umr ko‘rish tadqiqotlari insonning yashash sharoitlarining ta’sirini hisobga olgan holda maksimal umr ko‘rish davomiyligini aniqlash va o‘rganish uchun o‘tkaziladi. Uzoq umr ko‘ruvchilarning yoshi, meditsina va gerontologiyadagi kabi, 90 yosh va undan katta, deb belgilangan [6]. Shunday qilib, sotsiologik va demografik adabiyotlarda uzoq umr ko‘rishni inson 90 yosh va undan katta yoshgacha yashab yetishining ijtimoiy-biologik hodisasi sifatida ta’riflash bo‘yicha yagona pozitsiya mavjud.

Demografiya nuqtai-nazaridan, individ darajasida uzoq umr ko‘rish – bu ijtimoiy-demografik hodisa, jamiyat darajasida – bu ijtimoiy-demografik hodisa: uzoq umr ko‘rganlarni subaholiga kiritish mumkin, deb hisoblaymiz.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan uzoq umr ko‘ruvchilar yosh va ijtimoiy-psixologik xarakteristikalar, ijtimoiy mavqe xususiyatlar majmui asosida ajratiladigan alohida ijtimoiy-demografik guruhdir.

So‘nggi yillarda inson umrining keksalik davrini tasniflash bo‘yicha xilma-xil yondoshuvlar paydo bo‘ldi. Masalan, gerontologlar tasnifiga ko‘ra, 60-74 yoshdagilar – qariyalar, 75-84 yoshdagilar – keksalar, 85 va undan yuqori yoshdagilar – juda keksalardir. Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tasnificha, 60-74 yoshdagilar – qariyalar, 75-89 yoshdagilar – keksalar, 90 va undan yuqori yoshdagilar – uzoq umr ko‘ruvchilar, deb hisoblanadi (1-jadval) [7].

Bizningcha, bu mezonlarni dunyodagi barcha mamlakatlar aholisi uchun tatbiq etib bo‘lmaydi. Keksalik yoshini bunday davrlarga bo‘lishda har bir davlatdagi tug‘ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi asos qilib olinishi lozim. Chunki, hozirda aholisi o‘rta hisobda 35-40 yil umr ko‘radigan mamlakatlar ham bor. Masalan, dunyoda o‘rtacha umr davomiyligi 67 yil bo‘lsa, Mozambikda – 40 yil, Afg‘onistonda – 43 yil, Zambiyada – 35 yil, O‘zbekistonda – 71,8 yil, Norvegiyada – 80 yil, Yaponiyada – 82 yildan iboratdir [8]. O‘zbekistonda o‘rtacha umr davomiyligi ko‘rsatkichining nisbatan yuqoriligini hisobga olgan holda, qarilik davrini uch bosqichga ajratish mumkin.

XX-asrning oxiri XXI-asrning boshlarida aholining yosh tarkibida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, bu davr dunyoda, shu jumladan O‘zbekis-

**1-jadval.**

**Keksalik yoshi tasnifi***

| **Yosh guruhlari** | **Insonning hayot davri** |
|---|---|
| 60-74 yosh (erkaklar)<br>55-74 yosh (ayollar) | Qariyalar |
| 75-90 yosh | Keksalar |
| 90 yoshdan yuqori | Uzoq umr ko‘ruvchilar |

** Jadval ma’lumotlar asosida tuzilgan.*

**2-jadval.**

**O‘zbekiston Respublikasida tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi (yosh) [9]**

| | Yillar | | | | | | | | | | 2023 yil 1991 yilga nisbatan (+,-) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1991 | 1995 | 2000 | 2005 | 2010 | 2015 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | |
| **Jami** | **66,4** | **69,1** | **70,8** | **71,8** | **73,0** | **73,6** | **73,4** | **73,8** | **74,3** | **74,7** | **8,3** |
| **erkaklar** | 64,4 | 66,4 | 68,4 | 69,6 | 70,6 | 71,2 | 71,2 | 71,7 | 72,1 | 72,5 | 6,1 |
| **ayollar** | 69,4 | 71,7 | 73,2 | 74,1 | 75,1 | 76 | 75,5 | 75,8 | 76,6 | 76,9 | 7,5 |
| **shahar joylarida** | 66,3 | 68,7 | 70,2 | 71,1 | 73,1 | 74 | 73,5 | 73,8 | 74,8 | 75,1 | 8,8 |
| **qishloq joylarida** | 67,1 | 69,6 | 71,2 | 72,2 | 72,7 | 73 | 73,1 | 73,8 | 73,6 | 74,1 | 7 |

tonda ham aholi tarkibida bolalar ulushining kamayib, aksincha qariyalar ulushining ortib borishi bilan tavsiflanadi. Bu hol o‘z navbatida aholining keksayish jarayoni boshlanganligini ko‘rsatmoqda.

Agar inson hayotida yosh chegarasi sifatida u yoki bu yoshni tanlash masalasi aniq qo‘yiladigan bo‘lsa, bizning nuqtai-nazarimizga ko‘ra jamiyat demokratik rivojlanishining amalda tarkib topgan ko‘rsatkichlari va tendensiyalarini e’tiborga olish shart. Bu O‘zbekiston Respublikasida quyidagicha tarzda aks etgan (2-jadval).

Mustaqillik yillari (1991-2023 yillar) O‘zbekistonda tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 66,4 yoshdan 74,7 yoshga uzaydi. Respublikada erkaklarga qaraganda ayollarning umr davomiyligi yuqori. Ya’ni, erkaklarniki – 72,5 yoshni, ayollarniki esa 76,9 yoshni tashkil etadi. Qiyosiy tahlillardan ko‘rinadiki, erkaklar ayollarga qaraganda o‘rtacha 4,4 yil kam umr ko‘radi.

Tug’ilishda kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi – aslida biror avlod vakilining ushbu avlod hayoti davomida o‘lim ko‘rsatkichi mazkur ko‘rsatkich hisoblab chiqilayotgan davrda o‘zgarmasdan turish sharti bilan uning qancha umr ko‘rishi mumkin bo‘lgan yillar jamlanmasidir. Biroq hayotiy voqelikda umr ko‘rish shart-sharoitlari o‘zgarib turadi va alohida olingan aholi guruhi bu o‘zgargan shart-sharoitlarga bog‘liq ravishda bundan ko‘proq yoki kamroq umr ko‘radi. Shunga qaramasdan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi hozirgi va yaqin o‘tmish voqeligini zarur darajada aniq aks ettiradi.

R.Uorrena va J.M.Klyuytening ta’kidlashlaricha, yoshga ko‘ra o‘sish sur’ati o‘tmishdagi va hozirgi demografik jarayonlarning mustaqil mahsuli hisoblanadi. Agar aholi keksaysa, bu umuman olganda demografik jarayonlar yetarli darajada intensiv tarzda kechmayotganligidan dalolatdir. Aholining keksayishini tavsiflash uchun ko‘pincha «aholining demografik keksayishi» atamasi tug‘ilish miqdorining kamayishi va o‘lim bilan bog‘liq ravishda qo‘llaniladi. “Demografik keksayish” atamasining qo‘llanishi butun jamiyat uchun tahdidning mavjudligiga tenglashtiriladi. Demografik keksayish tahdidi butun jamiyat uchun tahdidning mavjudligiga tenglashtiriladi. Aholining demografik keksayishi tahdidi keksayish xilidan kelib chiqadi. Aholining keksayishi jarayoni rivojlanishining ikkita xili yoki senariysi mavjud:

1. «Quyidan keksayish», bunda tabiiy tug‘ilish miqdorining kamayishi va go‘daklar o‘limining ortishi barobarida keksa insonlarning ulushi ortadi.

2. «Yuqoridan keksayish», bunda bolalar sonining nisbatan sekin o‘sishi barobarida keksa yoshlardagi o‘lim soni kamayadi.

Birinchi holatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki aholining depopulyatsiyasi kechadi, ya’ni uning soni muntazam kamayib boradi. Depopulyatsiya chog‘ida demografik voqealar (migratsiya, urbanizatsiya va h.k.) inqilobiy xususiyatga ega bo‘lib, ijtimoiy xatti-harakat, ijtimoiy qadriyatlar tizimi o‘zgaradi.

O‘zbekistonda «aholi quyidan keksayishi»ning boshlanishi kuzatilmoqda, chunki 1970-2002 yillarda aholi tug‘ilishi miqdorining sezilarli darajada kamayishi yuz berdi. 1970-yilda umumiy tug‘ilish koeffitsiyenti 40 promilleni tashkil qilgan bo‘lsa, 2004-yilda 26,8 foizgacha kamaydi, 1970-yildagi 10 promilledan 2004-yilda 4,4 promillegacha kamaydi. Shuningdek, «aholining yuqoridan keksayishi» ham kuzatiladi, chunki insonlar oldinda turgan hayotining uzunligi ushbu davrda 1970-yildagi 63 yoshdan 2002-yilda 67 yoshgacha uzaydi.

Shuningdek, demograf olimlar tomonidan aholining keksayish darajasini “qarish indeksi” yordamida baholash taklif etilgan. “Qarish indeksi” tushunchasi fanga taniqli demograf A.Sovi tomonidan kiritilgan. Fransuz demografi qarish indeksini mehnatga layoqatli yoshdan katta bo‘lgan aholi (keksalar) sonining mehnatga layoqatli yoshgacha bo‘lgan aholi (bolalar) soniga foizlarda hisoblangan nisbati orqali aniqlashni va aholining keksayish darajasini baholashda hozirda jahonning ko‘pchilik mamlakatlarida foydalanilayotgan quyidagi demografik mezonni taklif qildi (3-jadval).

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, aholining qarish indeksi 20 foizdan kamni tashkil etsa, shu hudud aholisining keksayish darajasi past hisoblanadi. Agar qarish indeksi 30 foizdan ortsa shu hudud aholisi yuqori darajada keksayayotgan hududlar qatoridan o‘rin oladi. Belgiyalik demograf O.Tyulipp bu borada – “tug‘ilishning kamayishi sharoitida aholining yosh tarkibida bolalar ulushining qisqarib, qariyalarning ulushining esa ortib borishini hisobga olsak, qarish maqsadga muvofiqdir” – deb alohida ta’kidlagan.

**3-jadval.**

**Aholining keksayish darajasi mezoni***

| Bosqich | Aholining qarish indeksi, % | Aholining qarish darajasi |
|---|---|---|
| I | 20 dan kam | past |
| II | 20-30 | o‘rta |
| III | 30 dan baland | yuqori |

Fikrimizcha, aholining “quyidan” keksayish darajasini aniqlash uchun bu usulni qo‘llash mumkin, lekin u keksa kishilar jamlanmasining bevosita xususiyatlarini ifoda etadigan ko‘rsatkichlar yordamida aholining demografik keksayishi chuqurligiga aniqlik kiritish usuliga qaraganda mantiqan zaifroqdir. Bunday ko‘rsatkichlar orasida, bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, aholi umumiy soniga nisbatan 80 va undan yuqori yoshda bo‘lgan shaxslar bo‘yicha uzoq umr ko‘rish koeffitsiyenti – an’anaviy va aniq ko‘rsatkich hisoblanadi. Unga muvofiq keksalar ulushi bir xil bo‘lganida keksayish jarayoni uzoq umr ko‘rish koeffitsiyenti qancha yuqori bo‘lsa, shuncha chuqur bo‘ladi. Bunday tadqiqotning mantig‘i shundan iboratki, keksa kishilar jamlanmasi ichida keksa yoshdagilarning yosh guruhlari o‘rtasida turli nisbatlar tarkib topishi mumkin. Demak 60 va undan yuqori yoshdagi aholi tarkibidagi tarkibiy siljishlar aholining keksayishi ko‘rsatkichlarining sifat xususiyatlariga aniqlik kiritadi.

Shunday qilib, uzoq umr ko‘rishni tadqiq qilishning metodologik bazasi kompleks yondashuv hisoblanadi, unda biz ijtimoiy-gerontologik va sotsiologik-demografik yondashuvni ajratdik. Sotsiologik-demografik yondashuv uzoq umr ko‘rishni ijtimoiy-demografik hodisa sifatida tadqiq qilishga imkon beradi.

**Xulosa va takliflar.** Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida O‘zbekiston Respublikasida aholining keksayishi, qariyalarni ijtimoiy himoya qilish, uzoq umr ko‘ruvchilarning sonini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosa va tavsiyalar berildi:

1. Insonning uzoq umr ko‘rishi inson hayotidagi 90 yoshgacha va undan katta yoshgacha bo‘lgan ijtimoiy-biologik hodisasidir. Demografiya nuqtai nazaridan, individ darajasida uzoq umr ko‘rish – bu ijtimoiy-biologik hodisa, jamiyat darajasida – bu ijtimoiy-demografik hodisa. Uzoq umr ko‘ruvchilar subaholi va alohida ijtimoiy-demografik guruhdir.

2. Uzoq umr ko‘ruvchilarning hayot sifatini, jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash, depressiya, jamiyatdan izolyatsiya va ularga xos bo‘lgan boshqa muammolar ehtimolini keskin kamaytish maqsadida, shuningdek uzoq umr ko‘ruvchilar orasida faol va sog‘lom uzoq umr ko‘rishni targ‘ib qilishning ideal vositasi sifatida “sog‘lom va faol keksalik markazlari”ni tashkil etish taklif etildi. Ular bir xil yoshdagi odamlar bilan birgalikda yangi ko‘nikmalarni o‘rganishlari, tajriba almashishlari, turli tadbirlarni tashkil qilishlari va shug‘ullanishlari, shuningdek, yangi tushunchalar va g‘oyalar bilan tanishishlari mumkin bo‘lgan joy hisoblanadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mamlakatimizda uzoq umr ko‘ruvchilar salomatligidagi muammolar bilan shug‘ullanadigan gerontolog va geriatr mutaxassislari yetishmaydi. Tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida “gerontologiya” va “geriatriya ishi” mutaxassisliklari bo‘yicha bakalavriatura va magistraturaga qabul kvotalari mavjud emas. Shuning uchun mamlakatimizda tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida “gerontologiya” va “geriatriya ishi” mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qitish tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq.

2. Uzoq umr ko‘ruvchilarning ijtimoiy izolyatsiyasi, ya’ni odamlarga qo‘shilmasdan uyda yolg‘iz yashashi, muloqot qilmasligi ularning sog‘ligi va ruhiyatiga katta zarar yetkazadi. Oila a’zolari va boshqa insonlar bilan yaxshi va faol muloqotlar esa ularning kayfiyatini ko‘taradi va salomatligini mustahkamlaydi. Shuning uchun ular o‘rtasida jismoniy faollik, bir-biriga yordam berish, turli o‘yinlar o‘ynash, quvnoq muloqot o‘tkazish yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni doimiy yo‘lga qo‘yish tizimini ishlab chiqish va joriy etish lozim. Ushbu tizim keksalarning ijtimoiy faolligi va hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

3. O‘zgalar parvarishiga muhtoj yakka yolg‘iz uzoq umr ko‘ruvchilar uchun uy sharoitida sanatoriy yaratish. Bu toifa fuqarolar bir tomondan harakatlanishda muayyan chegaralanishlarga ega bo‘lib, “kam harakat” va buning oqibatida urush va mehnat faxriylari sihatgohlariga borish imkoniyatlari sezilarli darajada qiyin bo‘lsa, boshqa tomondan amaldagi qonunchilikka asosan ambulator sharoitlarda davolanganda shifokorlar retseptiga asosan bepul dori-darmonlar bilan ta’minlanish huquqiga egadirlar.

***Iqtiboslar/Сноски/References***


*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi, PF-60-sonli qarori\ LEX.UZ - O‘zbekiston qonunchiligi*

*2. Квитко О.В., Конева И.И., Тюриков А.П., Шенко Я.И., Принцип участия в генетике долговечности: http://ixs nm ru/telomer.htm (дата обращения 04.03.2010).*

*3. Фролов И.Т. О смысле жизни, смерти и бессмертии человека. – М.,1985. – С. 23.*

*4. Смолъкин А.А. Социокулътурная динамика отношения к старости. Дисс. кан.соц.наук. – Саратов, 2004. – С. 15.*

*5. Хрисанфова ЕН. Основы геронтологии. – М., 1999. – С. 123.*

*6. Демографический энциклопедический словарь/ http://geography.su/demogr/it (дата обращения 12. 12. 2008);*

*7. Калинюк И.В. Возрастная структура населения СССР. – М: Статистика, 1975. – С. 12.*

*8. 2005 World Population data sheet.*

*9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.*

*10. Abduramanov X.X. O‘zbekistonda aholining keksayish jarayoni va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari // “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” elektron ilmiy jurnal. 2022 yil 6-son. – Toshkent, 2022. – 51-60 b.*

*11. Alijonov U.M., Satvaldiyev R.X. Aholining keksayish darajasini xalqaro indekslar bo‘yicha baholash mezonlari // “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” elektron ilmiy jurnal. 2022 yil 6-son. – Toshkent, 2022. – 61-77 b.*

***Sadriddin SHAROPOV***
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi**
**Davlat boshqaruvi akademiyasi**
**“Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi”**
**kafedrasi mustaqil izlanuvchisi**
**email: sharopovsadriddin3@gmail.com**

# IJTIMOIY DAVLATDA JAMOANI BOSHQARISHNING SAMARALI TIZIMINI YARATISHDA TAVSIYA ETILADIGAN BIRLAMCHI MILLIY QADRIYATLAR

♦ *Ushbu tezisda millat va xalqning o’zligini anglashi va asrashi hamda sha’nini ulug’lashida qadriyatlarning o’rni kattaligini inobatga olib, jamoada sog’lom muhitni yaratish hamda jamoa o’z oldiga qo’ygan maqsadiga erishishida rahbar xodimlarning milliy qadriyatlarni bilishi, ularga ming yillik boy tariximiz, ma’naviyatimiz, turmush tarzimiz va hayotiy qarashlarimizdan kelib chiqib tavsiya etiladigan birlamchi qadriyatlar haqida so’z yuritiladi.*

♦ *В данном тезисе, учитывая роль ценностей в понимании и сохранении самобытности (идентичности) нации и народа, а также в прославлении их чести, говорится о знании руководящими работниками национальных ценностей в создании здоровой среды в коллективе и достижении коллективом поставленной цели, о первичных ценностях, рекомендуемых им на основе нашей богатой тысячелетней истории, духовности, образа жизни и жизненных взглядов.*

♦ *In this thesis, taking into account the great role of values in the understanding and preservation of the identity of the nation and the people, as well as the importance of values in the creation of a healthy environment in the team and the achievement of the team’s goals, the knowledge of the national values of the managers, based on our thousand-year rich history, spirituality, lifestyle and life views recommended default values are discussed.*

***Kalit so‘zlar:*** *qadriyat, jamiyat, oliyjanoblik, halollik, moddiy, milliy, hurmat.*

***Ключевые слова:*** *ценности, общество, благородство, честность, материальный, национальный, уважение.*

***Key words:*** *dignity, society, nobility, honesty, material, national, respect.*

**Kirish.** Jamiyatda va insonlar hayotida qadriyatlarning roli alohida o‘rin tutgan, har bir inson shaxs sifatida shakllanar ekan, nafaqat o‘zi yashab turgan davrdagi munosabatlar ta’siri ostida bo‘lib qolmaydi. Shuningdek, tarixiy tajriba asosida yaratilgan, to‘plangan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta’siri ostida ham shakllanadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarning shakllanishida har bir xalqga xos bo‘lgan milliy urf odatlar va an’analarning roli va ahamatiyadan kelib chiqib mustahkamlanadi.

Qadriyat – deganda turli yondashuvlar jumladan, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan hamda ular tomonidan qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmui anglanadi. Shuningdek, jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tibor, hurmatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasini bildiradi.

Qadriyatlar olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha bo‘lib, jamiyat va inson hayotida qadriyatlarni uch guruhga ajratib olish mumkin, bular: *birinchidan,* inson va jamiyat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar; *ikkinchidan,* kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar; *uchinchidan,* oliy qadriyatlar – bu o‘z ahamiyatiga ko‘ra eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabatlari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlar hisoblanadi. Ijtimoiy hayotning asosiy sohalariga muvofiq odatda qadriyatlarning uch guruhi farqlanadi: *moddiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va ma’naviy qadriyatlar.*

Moddiy qadriyatlar – bu qadriyatlar tabiiy obyektlar va predmetlar, ya’ni mehnat vositalari va bevosita iste’mol buyumlaridir. Moddiy qadriyatlar qatoriga tabiiy boyliklarda mujassamlashgan tabiiy ne’matlar kiradi. Bunga inson mehnati natijasida yaratilgan moddiy dunyo predmetlari hamda o‘tmish madaniy merosi predmetlari kiradi. Moddiy qadriyatlar ongda emas, balki odamlar hayot faoliyatida amal qiluvchi muayyan narsalar, hodisalar dunyosida mavjud bo‘ladi. Moddiy qadriyatlarning asosiy sohasi – shaxs va jamiyatning barkamollik haqidagi tasavvurlarini gavdalantiruvchi inson maqsadga muvofiq faoliyatining mas’ullari hisoblanadi.

Ijtimoiy, siyosiy qadriyatlar – bu ijtimoiy va siyosiy hodisalar, voqealar, siyosiy aktlar va harakatlarning qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Ijtimoiy – siyosiy qadriyatlar qatoriga, odatda, siyosiy va ijtimoiy harakatlarda mujassamlashgan ijtimoiy imtiyozlar, shuningdek jamiyatning ravnaq topishi, xalqlar o‘rtasida tinchlik va hamkorlikning mustahkamlanishiga ko‘maklashuvchi tarixiy voqealarning progressiv ahamiyati inobatga olinadi.

Ma’naviy qadriyatlar – bu ijtimoiy ong hodisalarining tegishli shakllarda namoyon bo‘lgan me’yoriy – nisbiy tomoni sifatida qaraladi. Asosan fan, axloq, san’at, falsafa, huquqiy qadriyatlarini ma’naviy qadriyatlar, deb qarash odat tusini olgan.

Ma’naviy qadriyatlar qatoriga baxt – saodat, yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, huquqiylik va nohuquqiylik, tarixning mazmuni va insonning vazifasi va hokazolar haqidagi me’yoriy tasavvurlar ko‘rinishida ifodalangan ijtimoiy ideallar, mo‘ljallar va baholar, me’yorlar va taqiqlar, harakat prinsiplari kiradi. Moddiy qadriyatlar inson ehtiyojlari va manfaatlari obyektlari sifatida amal qilsa, ma’naviy qadriyatlar ikki xil funksiyani bajaradi: ular qadriyatlarning mustaqil sohasi va moddiy qadriyatlarni baholashning asosiy mezonidir.

Qadriyatlar tasniflanishiga ko‘ra individual shaxsiy, guruhli, umuminsoniy qadriyatlarga farqlanadi. Individual yoki shaxsga doir qadriyat – bu narsa, hodisa, g‘oyaning muayyan inson uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Har qanday qadriyat o‘z mohiyatiga ko‘ra individualdir, zero narsa hodisa, g‘oyani faqat insongina baholashga qodir. Shaxsiy qadriyatlar ta’lim va tarbiya, individ hayot tajribasini to‘plashi jarayonida shakllanadi. Shaxsiy qadriyatlar individning ehtiyojlari va manfaatlari ta’sirida vujudga keladi.

Guruhli qadriyatlar – hodisani bir individ emas, balki ularning muayyan majmui ijobiy baholashiga urg‘u bersak, bu qadriyat narsalar, hodisalar, g‘oyalarning odamlar muayyan birligi, ya’ni sinf, millat, mehnat jamoasi va shu kabilar uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Guruhli qadriyatlar muayyan jamoaga kiruvchi individlarni yagona manfaatlar, qadriyatlar va mo‘ljallar bilan birlashtirib, mazkur jamoaning hayot faoliyatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar – bu narsalar, hodisalar, g‘oyalarning jahon hamjamiyati uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Umuminsoniy qadriyatlar qatoriga, birinchidan, jahon hamjamiyati aholisining aksariyati amal qiladigan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tamoyillar kiradi. Ikkinchidan, umuminsoniy qadriyatlar jumlasiga umuminsoniy ideallar, umumxalq maqsadlari va ularga erishishning asosiy vositalari ya’ni, ijtimoiy adolat, insonning sha’ni va qadr – qimmati, fuqarolik burchi kabilar kiradi. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar qatoriga tabiiy boyliklar hamda o‘z mohiyati va ahamiyatga ko‘ra olamshumul xususiyat kasb etuvchi qadriyatlar tinchlikni saqlash, qurolsizlanish, xalqaro iqtisodiy tartib muammolari ham kiradi. Xulosa o‘rnida, umuminsoniy qadriyatlar – jamiyat va madaniyatning rivojlanish mahsulidir.

Ijtimoiy qadriyatlar shaxsning kamol topishida birlamchi ahamiyatga ega, ular shaxsga ijtimoiy sharoitlarga moslashish, jamiyatda muayyyan o‘rinni

egallash, qoniqarli shaxsiy maqomga ega bo'lish imkonini beradi. Shaxs o'zining ijtimoiylashuvi jarayonida asrlar oshib avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtiradi.

Agar jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roliga to'xtalsak mutaxassislar tomonidan uch guruhga ajratiladi bular:

Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar. Bu shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi.

Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar. Bunda aksariyat moddiy va ma'naviy qadriyatlar kiradi. Bular insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qadriyatlardir.

Oliy qadriyatlar bu o'z ahamiyatiga ko'ra eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabatlari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlardir. Oliy qadriyatlarsiz nafaqat inson shaxs sifatida kamol topa olmaydi, balki jamiyat ham normal hayot kechira olmaydi. Oliy qadriyatlarning mavjudligi doimo individning shaxsiy hayoti chegarasidan chetga chiqish bilan bog'liq.

Hayot eng oliy qadriyatlar qatoriga kiradi. Hayotsiz inson bo'lmaydi va qadriyatlar ham bo'lmaydi. Individ uchun hayot boshqa biron-bir narsaga bog'liq bo'lmagan holda eng yuksak qadriyat, ne'mat sifatida amal qiladi. O'z navbatida, hayotning qimmati boshqa barcha qadriyatlar uchun o'ziga xos zamin va cho'qqi hisoblanadi. Hayotning qimmati qanday tushunilishiga qarab odamlar o'rtasidagi munosabatlar va jamiyatning insonga bo'lgan munosabati ham shakllanadi.

Shunday ekan har qanday davrda va jamiyatda yashamaylik har bir inson qaysi ishda va lavozimda bo'lmasin milliy qadriyatlarni bilishi foydadan holi bo'lmaydi. Sababi, dunyoda har bir millat va xalqning o'zligini anglashi va asrashi, sha'nini ulug'lashida qadriyatlarning o'rni beqiyos. Ayniqsa, xalqimizning minglab yillik boy tarixi, ma'naviy merosi, turmush tarzi, hayotiy qarashlari va e'tiqodidan kelib chiqib milliy qadriyatlarimiz ro'yxati keng bo'lib kelgan.

**Tahlil va natijalar.** Ayniqsa, bugungi jo'shqin hayotda rahbar xodimlarning ham milliy qadriyatlarni bilishini davrning o'zi taqozo qilmoqda. Bugun ishlab chiqarishning turli sohalarida yoshi turli darajadagi respublikamizning va chet el oliy dargohlarini tugatib kelgan, chet tillarni biladigan, axborot texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan kadrlar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu yosh rahbarlarga jamoani, qolaversa, xodimlarni boshqarishning samarali tizimini yaratishda birlamchi milliy qadriyatlarni tavsiya etadigan bo'lsak bular quyidagilardan iborat; *vatanparvarlik, bag'rikenglik, shirinso'zlik, mehmondo'stlik, insonparvarlik, kitobsevarlik, oddiylik va kamtarinlik, mehnatsevarlik, halollik, tantilik, hayo va ibolik, iffatlilik, ozodalik va tozalik, lafz, oilaparvarlik, kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'lish, yaxshidan ibrat, yomondan saboq, soddadillik, mardlik, jamoaviylik, hamkorlik, mehrlilik, elkadoshlik, oliyjanoblik, yaxshi nom qoldirish.*

Albatta, ushbu tavsiya etilayotgan milliy qadriyatlar ro'yxatini tugal, deb qabul qilish noo'rin albatta. Uni yanada mukammal qilib takomillashtirish uchun keng jamoatchilik, ommaning hamda yurtimiz ziyolilarining muhokamalari, tahlillari va maslahati orqali natijadorligiga erishiladi. Fikrimizni naqadar haqiqatga yaqin ekanligini boshqa rivojlangan davlatlar misolida ham ko'rish mumkin, agar Yaponiya misolida ko'radigan bo'lsak ularning korporativ hayotida quyidagi bir nechta qadriyatlar muhim rol o'ynaydi:

**Uyg'unlik** yapon madaniyatidagi asosiy qadriyat bo'lib, korporativ dunyoga taalluqlidir.

**Sodiqlik va majburiyat**, yapon xodimlari o'z kompaniyalariga sodiqlikni namoyon etadilar. Tashkilotga uzoq muddatli sadoqat qadrlanadi va ishning barqarorligi ko'pincha ish joyini tez-tez o'zgartirishdan ustun turadi.

**Ierarxiyaga hurmat,** ierarxik tuzilmalar yapon korporativ madaniyatiga chuqur singib ketgan. Mutaxassislarni hurmat qilish va yuqori lavozimli shaxslarga hurmat ko'rsatish muhimdir. Qarorlar ko'pincha boshqaruvning turli darajalari ishtirokida birgalikda qabul qilinadi.

**Sifat va hunarmandchilik** yaponiya kompaniyalari o'z mahsulotlari va xizmatlari sifati bilan faxrlanadilar. Mukammallikka intilish, tafsilotlarga e'tibor va hunarmandchilikka sodiqlik asosiy qadriyatlardir.

**Mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv,** mijozni birinchi o'ringa qo'yish asosiy tamoyildir. Yaponiya korxonalari mijozlar ehtiyojlarini qondirish, uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatish va mijozlar ehtiyojini qondirishga e'tibor qaratadi.

**Doimiy takomillashtirish (kayzen),** uzluksiz takomillashtirish tushunchasi chuqur ildiz otgan. Kompaniyalar xodimlarni yaxshilash sohalarini aniqlashga va jarayonlar, mahsulotlar va xizmatlarga qo'shimcha o'zgarishlar kiritishga undaydi.

**Kollektivizm**, yaponiyaning korporativ hayoti kollektiv muvaffaqiyatga urg'u beradi. Xodimlar hamkorlikda ishlaydi, mas'ulyatni taqsimlaydi va yutuqlarni jamoa sifatida nishonlaydi.

**Ish odob-axloqi va mehnatsevarlik,** mehnatsevarlik, aniqlik va fidoyilik yuqori baholanadi. Qo'shimcha ish afsuski keng tarqalgan bo'lib, kuchli ish axloqini aks ettiradi.

**Kamtarlik,** yapon mutaxassislari kamtarlik ko'rsatadilar va o'zlarini reklama qilishdan qochadilar. Muvaffaqiyat shaxsiy yutuqlarga emas, balki jamoaga bog'liq.

**Umr bo‘yi bandlik,** garchi o‘zgargan bo‘lsada, umrbod bandlik tushunchasi ta’sirchanligicha qolmoqda. Kompaniyalar xodimlarning rivojlanishiga sarmoya kiritadilar, buning evaziga uzoq muddatli majburiyatlarni kutishadi. Albatta bu qadriyatlar Yaponiyaning barcha kompaniyalariga qo‘llanilmaydi. Ularni har birini o‘zini tasdiqlagan qadriyatlari mavjud bo‘lib ushbu misol tariqasida keltirilgan qadriyatlar yapon korporativ muhitidagi madaniy meroslar va taxminlar haqida tushuncha beradi. Bunday misollarni boshqa davlatlarda ham ko‘rish mumkin, qolaversa davlatlarning, korxona va tashkilotlarning va har bir ishlovchi xodimlarigacha qo‘yiladigan qadriyatlari mavjud.

**Xulosa va takliflar.** Yapon rahbarlari orasida mashhur bo‘lgan Konosuke Matsushitani boshqaruv prinsiplarini ko‘radigan bo‘lsak u o‘zining yetakchi tamoyillari orqali yapon boshqaruv madaniyatida o‘chmas iz qoldirgan. “Matsushitaning yeti ruhi” deb nomlanuvchi ushbu tamoyillar uning donoligini qamrab oladi va dunyo bo‘ylab yetakchilarni ilhomlantirishda davom etadi:

1. Jamiyatga xizmat ko‘rsatish yuqori sifatli tovarlar va xizmatlarni maqbul narxlarda taqdim etish orqali biz aholi farovonligiga hissa qo‘shamiz. Matsushita biznes jamiyatga xizmat qilishi kerak, deb hisoblaydi. U odamlar hayotini yaxshilaydigan qimmatli mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etishni ta’kidlaydi. Bu ruh biznes muvaffaqiyati insoniyatga ijobiy hissa qo‘shish bilan uyg‘un bo‘lishi kerak degan, fikrni ta’kidlaydi.

2. Adolat va halollik – biz barcha biznes munosabatlarimizda va shaxsiy xatti-harakatlarimizda adolatli va halol bo‘lamiz. Matsushita uchun halollik, oshkoralik va axloqiy hulq-atvorni muhokama qilib bo‘lmaydi. Adolat xodimlarga, mijozlarga va biznes sheriklariga taaluqlidir, ishonch barqaror munosabatlarning asosini tashkil etdi.

3. Umumiy maqsad uchun jamoaviy harakat (uyg‘unlik va hamkorlik) – biz o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan qobiliyatlarni birlashtiramiz, hamkorlik, jamoaviy ish va tashkilotlar ichidagi ijobiy munosabatlarni ta’kidlaydi. Birgalikda samarali ishlash qobilyati juda muhim hisoblanadi.

4. Yaxshilash uchun sa’yi-harakatlarni birlashtirish (taraqqiyot uchun kurash) – biz doimiy ravishda korporativ va shaxsiy ko‘rsatkichlarimizni yaxshilashga intilamiz. Matsushita doimiy takomillashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Uning falsafasi jarayonlar, mahsulotlar va xizmatlarni bosqichma-bosqich yaxshilash. Taraqqiyotga intilish muhim sanalgan.

5. Xushmuomalalik va kamtarlik – biz har doim samimiy va kamtar bo‘lamiz va boshqalarning huquqlari va ehtiyojlarini hurmat qilamiz. Mavqeidan qat’iy nazar, hammaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, xushmuomalalik, hamdardlik, uning o‘zaro munosabatlarning ajralmas qismi edi.

6. Tabiiy qonunlarga muvofiq (moslashtirish va assimiliyatsiya qilish) – biz tabiat qonunlariga rioya qilamiz va atrofimizdagi doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashamiz. Moslashuvchanlik Matsushita yondashuvining o‘ziga xos xususiyati edi. U o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish va yangi g‘oyalarni o‘zlashtirish muhimligini tan oldi. O‘zgarishlarni qabul qilgan kompaniyalar gullab-yashnaydi.

7. Ne’matlar uchun shukur (minnatdorchilik, rozilik) – biz olgan barcha ne’matlar va yaxshiliklarga doimo minnatdor bo‘lamiz. Minnatdorchilikni izhor etish Matsushitaning qadriyatlari uchun muhim edi. U muvaffaqiyat jamoaviy harakat deb hisoblardi. Xodimlarga, mijozlarga, yetkazib beruvchilarga va jamiyatga minnatdorchilik o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirdi.

Bu yetti tamoyil nafaqat Panasonic korporativ axloqini shakllantirdi, balki samarali yetakchilik va axloqiy biznes amaliyoti uchun abadiy tamoyillar bo‘lib ham xizmat qiladi.

Shu o‘rinda aytish joizki, yosh rahbar xodimlarning milliy qadriyatlarni bilishi: ***birinchidan***, xodimlarni boshqarishning samarali tizimi yaratiladi; ***ikkinchidan***, mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi; ***uchinchidan***, jamoani hamjihatlikda ishlaydigan bo‘lib shakllantirishga erishiladi; xodimlar qo‘nimsizligini oldini oladi; ***to‘rtinchidan***, jamoaga yillar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelgan qadriyatlarga ega bo‘lgan kadrlar bilan ta’minlashga erishiladi; ***beshinchidan,*** xodimlar jamoasiga va rahbariga sadoqatli bo‘ladi; ***oltinchidan,*** jamoada manfaatlar to‘qnashuvi, antikorrupsiyaga immunitet paydo qilib korrupsiyasiz jamoa shakllanishiga asos soladi, ***yettinchidan,*** kadrlar faoliyatida uchraydigan salbiy holatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

***Iqtiboslar/Сноски/References***

*1. Yoshlar orasida qadriyatlar va me’yorlar transformasiyasi/ Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent., 2024.*

*2. Obidxo‘jayev U. Milliy qadriyatlar/ Siyosat, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy jurnal, №3, 4. 2023 yil.*

*3. Tojialiyev D. O‘zbekning fe’li: Mehnatsevarlik. / 10.12.2014, https://qadriyat.uz/*

UDK: 316.42:331-055.2(575.1)

***Zebo NURMONOVA***
**"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot**
**instituti tayanch doktoranti**
**e-mail: zalikovna583@gmail.com**
**i.f.d., prof. X.X. Abduramanov taqrizi ostida**

# JAMIYATNING IJTIMOIY-IQTISODIY FAROVONLIGINI TA'MINLASHDA XOTIN-QIZLAR MEHNATINING ROLINI OSHIRISH VA GENDER TENGLIKKA ERISHISH

♦ *Ushbu maqolada xotin-qizlar mehnatining rolini oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy yondashuvlar, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, xususan, bandlik sohasida jinslar imkoniyatining tengsizligida kuzatilayotgan nomutanosibliklarga alohida e'tibor qaratilgan.*
*Shuningdek, ijtimoiy me'yorlarni gender teng huquqli me'yorlarga aylantirish, mavjud gender tafovutlari va tengsizliklarini bartaraf etishda ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish va boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

♦ *Статья посвящена научно-теоретическим подходам к повышению роли женского труда, социально-экономическим факторам, влияющим на повышение экономической активности женщин, в частности, наблюдаемым диспропорциям в неравенстве гендерных возможностей в сфере занятости.*
*Также были разработаны рекомендации по трансформации социальных норм в нормы гендерного равенства, разработке и управлению социально-экономическими механизмами для устранения существующих гендерных различий и неравенства.*

♦ *This article focuses on scientific-theoretical approaches to increasing the role of women's work, socio-economic factors affecting the increase of women's economic activity, in particular, the disparities observed in the inequality of gender opportunities in the field of employment.*
*Recommendations have also been developed for the transformation of social norms into gender equality norms, the development and management of socio-economic mechanisms to eliminate existing gender differences and inequalities.*

***Kalit so'zlar.*** *Xotin-qizlar mehnati, iqtisodiy faollik, jinslar imkoniyati, bandlik.*

***Ключевые слова.*** *Женская работа, экономическая активность, гендерные возможности, занятость.*

***Key words.*** *Women's work, economic activity, gender opportunities, employment.*

**Kirish.** Tahlillarga ko'ra, dunyoda xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki erkaklarnikiga nisbatan cheklanganligicha qolmoqda. 2019-yildan boshlab ayollarning mehnat bozoridagi mavqei yaxshilanishi to'xtab qoldi va ayni paytda gender tengsizliklari saqlanib qolmoqda. Butun dunyo bo'ylab ayollarning mehnatga jalb qilish darajasi taxminan 47% darajasida barqaror bo'lib qoldi va ayollar bandligi darajasi sezilarli darajada o'zgarmadi va taxminan 45% ni tashkil qildi. Mehnat bozoridagi gender tafovutlari asosiy tashvish bo'lib qolmoqda, chunki ayollar erkaklarnikiga qaraganda mehnat kuchining faol a'zosi bo'lish ehtimoli hali ham kam. 2022-yilda global miqyosda erkaklar ishtiroki darajasi ayollarnikidan 25 foiz punktga yuqori va gender tafovuti Yevropada 11 foiz punktdan Osiyoda 30 foiz punktgacha bo'lgan [1].

Darhaqiqat, qo'shimcha ijtimoiy xarajatlarni talab qiladigan ayol ishchi kuchidan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar ish beruvchi uchun iqtisodiy jihatdan noqulay hisoblanadi. Natijada, ayollarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi pasayib, bu ularning iqtisodiy faolligi darajasini ham obyektiv ravishda pasayishiga olib keldi. Shu munosabat bilan, ayollarga kasbiy va oilaviy mas'uliyatni uyg'unlashtirish imkonini beradigan bandlikning yangi modellarini yaratish zarurati paydo bo'lmoqda. Shu sababli ayollar bandligining o'ziga xos farqli jihatlarini hisobga olgan holda ularning iqtisodiy faolligini oshirish bilan bog'liq vazifalar yechimiga alohida e'tibor qaratish dolzarb hisoblanadi.

Xotin-qizlar ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi o'z xususiyatlariga ko'ra, ayol ishchi kuchiga talab va taklifni shakllantiruvchi elementlar majmuasidan iborat. Mazkur majmua jamiyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlar jamlanmasi bo'lib, ayollarning ijtimoiy mehnat sohasida ishtirok etishini ta'minlash maqsadida ular faolligini oshirish borasida ijtimoiy mexanizm elementlarining o'zaro bog'liqligini tadqiq qilish yaxshi natija beradi.

Bu mexanizm ayol ishchi kuchiga talab va taklif nisbatlariga muayyan ta'sir ko'rsatuvchi, uni mazmunan to'ldiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy shakllar va omillarni o'z ichiga oluvchi elementlar majmuasidir. Xotin-qizlar iqtisodiy faolligini oshirish va ishsizlikni kamaytirish murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo'lib, o'ziga xos tadqiqotni talab qiladi. Ushbu muammoni tadqiq qilishda ish bilan bandlikning umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini o'rganish, hisobga olish, ularga tayanish, shunga ko'ra, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi zamon ilmfanida "faoliyat", "faollik", "ijtimoiy faollik" tushunchalari keng qo'llaniladi. Aslida, ushbu tushunchalar negizida insonning yon-atrofga, ijtimoiy munosabatlarga, olamni anglashga oid tajribasi, ya'ni faoliyati yotadi. Demak, "iqtisodiy faollik" tushunchasi ham "faoliyat" va "amaliyot" tushunchalari bilan bevosita bog'liq, hatto genezisi va etimologiyasi nuqtai nazaridan ulardan kelib chiqadi.

Fikrimizcha, xotin-qizlar iqtisodiy faolligini oshirish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashda ayollar mehnatining rolini oshirish va undan foydalanishni ilmiy tarzda o'rganishga oid muammolar turli davlatlarda turlicha yechimga ega bo'lgan. Masalan, g'arbda taniqli iqtisodchi olimlardan hisoblangan E.Giddens, G.Sillaste, T.Parsonning ilmiy ishlarida ayollar mehnatining rolini oshirish bo'yicha ilmiy nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Amerikalik sotsiolog olimlar L.Vard V.Tomos, A.Kante va G.Spenser kabilar ham o'z ilmiy qarashlarida ayollar mehnatidan samarali foydalanish va buning natijasida iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beruvchi g'oyalarini yaratganlar.

Ayollarning mehnat bozorida ish bilan bandligini oshirish, ishsizligini kamaytirish orqali iqtisodiy faolligini oshirish masalalarini, jumladan, xorijlik olimlardan F.A.Xayek, R.E.Lukas, R.S.Smit, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.A.Nikiforova, N.M.Rimashevskaya, Y.B.Mezensevalar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda mazkur muammo nazariy va amaliy jihatdan R.A.Ubaydullayeva, N.S. Aliqoriyev, Q.X.Abdurahmonov, N.X.Raximova, D.N.Rahimova, D.A.Artikova, M.Sobirova, S.Qosimova, L.Maksakova, J.Bobonazarova, A.Irmatova va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xususan, bu olimlarning ilmiy izlanishlarida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga ta'sir etuvchi turli omillar, ish bilan bandligining o'ziga xos xususiyatlari va farqli jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ayollarning iqtisodiy faolligiga demografik omilning katta ta'sir o'tkazishi asoslab berilgan. Shu bilan birga, olimlar ayollarning ish bilan bandligida ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham katta rol o'ynashini, qayd etishgan.

Shu o'rinda mazkur masalani o'rgangan olimlarning nazariy-metodologik yondashuvlarini o'rganish maqsadga muvofiq. Jumladan, N.M. Rimashevskayaning e'tirof etishicha, "Ayollar ish bilan bandligi erkaklar bandligidan ikki asosiy jihatdan farq qiladi: birinchidan, ayollar, odatda, erkaklarga nisbatan kam daromad topadi; ikkinchidan, ko'plab jamiyatlarda ayollar pullik ishlarda erkaklarga qaraganda kamroq mehnat qiladi, lekin ko'pincha haq to'lanmaydigan ishlarda (oilaviy) band bo'ladi. Ayollar mehnatining gender xususiyatlariga oid ijtimoiy tasavvurlar va mehnat taqsimotidagi o'ziga xoslikka hududiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi" [2].

Mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini o‘rganish iqtisodchi olimlarning doimiy diqqat markazlarida bo‘lgan, jumladan, MDH davlatlari olimlaridan L.S.Rjanitsinaning fikricha “Ayol – ona, ishchi, xodim va uy bekasi, bu ikki taraflama og‘irlikni birga qo‘shib olib borish uchun ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozim bu jarayonni gender tengligi darajasida o‘rganib, nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan bandlik balki, ularning oilaviy muammolar, bolalar tarbiyasi bilan mashg‘ulligini yengillatish kerak”[3].

Akademik Q.X.Abdurahmonovning e’tirof etishicha, “Ish bilan bandlik deganda ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish anganilsa, ayollarga nisbatan esa bu “ikki taraflama ish bilan bandlik”, ya’ni ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda, shuningdek oilaviy maishiy sohada bandligi nazarda tutiladi” deb e’tirof etgan[4]. Ammo milliy mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligi erkaklarga qaraganda nisbatan pastroq. Uning asosiy sababi ayollar ko‘proq uy yumushlarini bajarishga va bolalarni parvarishlashga e’tibor qaratishadi. Ish bilan band ayollarning ma’lumot darajasi erkaklarnikidan yuqoriroq bo‘lsa ham, ayollar jamlagan inson kapitalidan to‘g‘ri foydalanishni bilmaganligi, mehnat munosabatlari sohasida gender tengsizligiga uchramoqdalar[5].

Professor N.X.Raximovaning ta’kidlashicha: “Hozirgi paytgacha rasman yoki norasmiy shakllangan, an’ana va odatlar bilan belgilangan, mehnatning jinsga qarab taqsimlanishi zamonaviy jamiyatda, amaliyotda va kishilar ongida mustahkam o‘rin tutib kelmoqda. Hatto urbanizatsiyalashgan mamlakatlarda ham gender kasbiy kamsitish, ya’ni erkak va ayollarning qat’iy belgilangan kasblar, sohalar va lavozim bo‘yicha ishga joylashishining barqaror tendensiyasi mavjud. Uning yuqori darajasi erkak va ayollarning mehnatiga haq to‘lashda, lavozimda o‘sish imkoniyatlarida va buning natijasi o‘laroq, umuman bandlik sohasida jinslar imkoniyatining tengsizligida kuzatilayotgan nomutanosiblikning muhim omili hisoblanadi” [6].

Iqtisodchi olima D.N.Rahimovaning fikricha, “Mehnat bozorida iqtisodiy faol ayollarning bandlik darajasini hisoblash asosiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni yanada to‘liqroq va tabaqalashgan holda tahlil etish, mehnat salohiyatidan foydalanishni tartibga solish imkoniyatini beradi” [7]. Bu esa ishsizlik bilan kurashish, uning tuzilmaviy va friksion turlarini qisqartirish bilan bandlik dasturida iqtisodiyotning tarmoq xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Muallif tomonidan ayollar mehnati xususiyatlari, mazmunining o‘zgarishi hamda uning samarali ijrosini ta’minlash maqsadida iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, N.Raximova ayollar iqtisodiy faolligiga ta’sir etuvchi omillar klassifikatsiyasini keltirib, ayollar ish bilan bandligi darajasini belgilaydigan asosiy omillarni ikkita sinfga guruhlagan[8]. Birinchi guruhga ayollarda ijtimoiy xo‘jalikda mehnat qilishga ehtiyoj shakllanishi bilan bog‘liq omillar (iqtisodiy, ma’naviy-ruhiy, demografik, ijtimoiy), ikkinchisiga ularda ijtimoiy xo‘jalikda mehnat qilishga ehtiyojni amalga oshirish bilan bog‘liq omillar (demografik, ijtimoiy, madaniy-maishiy, hududiy, ma’naviy, tashkiliy) kiritildi. Biroq, tadqiqot natijasida nazariy yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish muammosi tizimli o‘rganilmaganligi aniqlandi.

O‘zbekistonda ijtimoiy tadqiqotlar doirasida xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni keng miqyosda o‘rganilganligi bilan bir qatorda, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi yangi davri nuqtayi nazaridan xotin-qizlar iqtisodiy faolligi masalalari nisbatan kam o‘rganilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ma’lumki, O‘zbekistonda statistika organlari iqtisodiy faol aholi[9] atamasini 1993-yildan e’tiboran faol qo‘llashga kirishgan. Mamlakatda amaldagi qonunchilikka muvofiq, iqtisodiy faol aholi erkaklar uchun 44 yilni (16 yoshdan 60 yoshgacha), ayollar uchun esa 39 yilni (16 yoshdan 55 yoshgacha) tashkil etadi. I va II guruh nogironlar hamda imtiyozli pensiya oluvchilar bundan istisnodir.

Hozirgi kunda (2022-yil holatiga) respublikada iqtisodiy faol aholi soni 15038,9 mln. kishidan ortiq. Ulardan 6520,5 mln.nafarini ayollar hamda 8518,4 mln. nafarini erkaklar tashkil qiladi. Shuningdek, ayollarning mehnat bozoridagi iqtisodiy faollik holati erkaklarnikiga qaraganda pasayib borgan. Jumladan, 2007-yilda mehnat resurslari tarkibida ularning ulushi 47,2 % bo‘lgan bo‘lsa 2020-yilga kelib iqtisodiy faol ayollar ulushi 43,1 foizni tashkil qilgan. Mazkur ma’lumotlar asosida ayollarga nisbatan erkaklar mehnat bozorida faollashgani haqida xulosa chiqarish mumkin.

Doimiy aholi soniga nisbatan olib qaraganda, 2022-yilda jami aholining 49,7 %i ayollar bo‘lishi bilan birga, jami bandlar tarkibida ular faqat 41,2 %ni tashkil qilgan.

Mamlakatimizda xotin-qizlar jamiyatning faol a’zosi sifatida barcha sohalarda keng qamrovli ishtirok etishi huquqiy kafolatlanganligiga qaramay, mehnat bozorida ayollar ijtimoiy diskriminatsiyasi barham topmagan. Jumladan, 2022-yilda respublikada jami 1332,7 ming ishsiz bo‘lsa, ulardan 872,9 mingini (65,4 %) ayollar tashkil qilgan.

O‘zbekistonda ayollar orasidagi ishsizlik darajasi so‘nggi paytlarda yuqorilab bormoqda. 2022-yil natijalariga ko‘ra ayollar orasidagi ishsizlik darajasi 13,4 foizni tashkil etdi, erkaklar orasidagi ushbu ko‘rsat-

kich 5,4 foiz[10]. Ayollar orasidagi yuqori ishsizlik ko‘rsatkichlari va past iqtisodiy faollik darajasi bir tomondan yuqori tug‘ilish ko‘rsatkichlari va ayollarning uy ishlariga ko‘p vaqt ajratishi bilan bog‘liq bo‘lsa ikkinchi tomondan aholini mentaliteti bilan bog‘liq.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida 887 424 nafar tug‘ilish holatlari qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 4,4 foizga oshgan[11]. O‘zbekiston ayollari vaqtining 22 foizini uy yumushlari va bola parvarishiga sarflaydi. Bu ish haqi to‘lanmaydigan mehnat hisoblanadi, erkaklar esa vaqtining 9 foizini uy yumushlariga sarflaydi.

Yuqorida keltirilgan xavotirli raqamlarga qaramasdan, so’nggi yillarda yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquqlarini kafolatlash, ularga yangi imkoniyat va imtiyozlar yaratish orqali gender tengligini ta’minlash masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolayotganini e’tirof etish o’rinlidir.

Xususan, xalqaro reyting va indekslarda xotin-qizlarning barcha sohalar bo’yicha roli tabora yaxshilanib bormoqda. “Ayollar, biznes va qonun” indeksining 2024-yil hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston 190 ta davlatlar orasida 82,5 ball bilan qayd etgan holda 11,9 ball bilan Markaziy Osiyoda birinchilikni egaladi. Jumladan, O‘zbekiston “Harakatchanlik”, “Tadbirkorlik”, “Ko‘chmas mol-mulk”, “Oylik to‘lov”, “Nikoh”, kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha 100 ball to‘plagan bo‘lsa, “Ish joyi” ko‘rsatkichi bo‘yicha 50 ball, “Pensiya” ko‘rsatkichi bo‘yicha 50 ball, “Ota-onalik” ko‘rsatkichi bo‘yicha 60 ball, to‘plagan.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan tuzilgan “Ijtimoiy institutlar va gender” indeksida esa O‘zbekiston 2019-yilda o‘rta ko‘rsatkichli davlatlar sifatida baholangan. Open Data Watch tashkilotining so’nggi hisobotida O’zbekiston “Ochiq gender ma’lumotlari indeksi”da 69,7 ball to’plagan holda jahondagi eng yaxshi 20 ta mamlakat orasidan joy oldi. Gender ma’lumotlari indeksi butun dunyo bo’ylab gender ma’lumotlarining mavjudligi va ochiqligini baholaydi.

**Xulosa va takliflar.** Dunyo bo’ylab hukumatlar mehnat qonunchiligi doirasida ayollarning iqtisodiy va bandlik sharoitlarini yaxshilash yo’lida muvaffaqiyatga erishdilar, biroq ularning ijrosini ta’minlash muhim muammo bo’lib qolmoqda. Mamlakatlarning qariyb 92 foizi XMTning Teng haq to’lash to’g’risidagi 100-sonli Konvensiyasini (1951) ratifikatsiya qilgan va 82 foizi teng qiymatdagi mehnat uchun teng haq to’lash to’g’risidagi qonun hujjatlarini kiritgan. Bundan tashqari, mamlakatlarning 90% ishda jinsga qarab kamsitishni taqiqlaydi. 107 ta davlatda ishga joylashishdagi kamsitishlarga asoslangan shikoyatlarni qabul qilish, tekshirish, ko’rib chiqish va ijro etish vazifasi yuklangan maxsus organlar mavjud. Biroq, faqat 27 ta davlat kompaniyalardan ayollar va erkaklarga qanday to’lashlari haqida hisobot berishni qonuniy ravishda talab qiladi va bu mamlakatlardan faqat 20 tasi ishga qabul qilish va ko’tarilishda gender kamsitilgan taqdirda kompaniyalarga jarima soladi.

Mavjud gender tafovutlari va tengsizliklarini bartaraf etish barcha manfaatdor tomonlarning muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlarini talab qiladi – siyosatchilardan tortib ikki tomonlama va ko’p tomonlama rivojlanish hamkorlari, xususiy va xayriya tashkilotlari, akademik va tadqiqot institutlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari. Hech kim ortda qolmasligini ta’minlash uchun bu sa’y-harakatlar barcha harakat va tashabbuslarga odamlarning yoshi, jinsi, irqi, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, sinfi, diniy mansubligi kabi asosiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tarmoqlararo yondashuvni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, chuqur ildiz otgan diskriminatsiyaga barham berish va ijtimoiy me’yorlarni gender teng huquqli me’yorlarga aylantirish bo‘yicha mavjud sa’y-harakatlarni kuchaytirish va qat’iy choralar ko‘rish ustuvor vazifalardandir. Bunda avvalo, qonunchilikni qo’llash muhim o’rin tutadi. Hukumatlar mavjud qonunlarning bajarilishini ta’minlashi kerak. Qolaversa, umuman odamlar va ayniqsa, ayollar o‘z huquqlarini har doim ham bilishmaydi yoki qonunchilikdagi o‘zgarishlardan xabardor emas. Shu bois, aholini ularning huquqlaridan xabardor qilish, bepul yuridik yordam ko‘rsatish maqsadida amaldagi qonunchilikdan xabardorligini oshirishga harakat qilish kerak.

Gender tengligi foydasiga siyosatni boshqarish va shakllantirish uchun milliy harakat rejalari va kompleks strategiyalarni ishlab chiqish lozim. Ushbu qonunchilik harakatlari samarali bo’lishi uchun hukumatlar va siyosatchilar qonunchilikni keng qamrovli siyosat asoslari bilan ta’minlashi kerak. Ko’pgina mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarga muvofiq va gender tengligiga mas’ullarining an’anaviy perimetri doirasidan tashqariga chiqish uchun ushbu siyosat asoslari gender nuqtai nazarini va tarmoqlararo yondashuvni keng ko’lamli sohalarda, jumladan, iqtisodiyot, ta’lim, bandlik va sog’liq sohalarida tizimli ravishda qo’llashi kerak.

Gender tengsizligining asosiy sabablarini bartaraf etish uchun hukumatlarga noto’g’ri qarashlar va ijtimoiy me’yorlarga javob beradigan maxsus siyosat va dasturlar kerak. Bu uzoq muddatli istiqbolda resurslarni jalb qilish uchun keng doiradagi institutsional ishtirokchilar – hukumat, fuqarolik jamiyati, xayriya va xususiy sektorni talab qiladi.

Kamsituvchi ijtimoiy me'yorlarni o'zgartirishga qaratilgan dasturlar va siyosatlar ommaviy fikrni o'zgartirish va gender teng huquqli munosabat va xulq-atvorni targ'ib qilish uchun ta'sir o'tkazuvchilar va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilishi kerak.

Gender tengsizlikka bo'lgan munosabatni o'zgartirish butun jamiyat yondashuvini talab qiladi, barcha darajadagi barcha odamlarga – jamoalardan tortib milliy tuzilmalargacha. Xususan, an'anaviy va diniy yetakchilar, o'qituvchilar, sog'liqni saqlash va ta'lim xodimlari va yoshlar yetakchilari kabi faollarning asosiy rolini hisobga olishi kerak. Bu odamlarning ijtimoiy mavqei ularga ijtimoiy normalarni o'zgartirishga yordam beradi. Ijtimoiy me'yorlar birgalikda o'rnatilganligi sababli, bitta maqsadli guruh bilan ishlash bilan cheklangan dasturlar transformatsion o'zgarishlarga erishish uchun yetarli bo'lmaydi.

Qolaversa, gender tengligiga erishish va ijtimoiy normalarni o'zgartirishga qaratilgan siyosat va dasturlar ayollar va qizlar doirasidan tashqariga chiqib, erkaklar va o'g'il bolalarni ham qamrab olishi kerak. Ya'ni, an'anaviy gender rollar va mas'uliyatlarni dekonstruksiya qilish: hukumat va siyosatchilar va boshqa barcha sub'yektlar erkaklar va o'g'il bolalarga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari kerak, masalan, erkaklar va o'g'il bolalarning gender tengligi haqida savodxonligini oshirishlari va muhokama qilishlari uchun imkoniyat va sharoitlar yaratish, ularni genderga nisbatan adolatli munosabat va xulq-atvorni o'rnatishga qaratilgan treninglarga jalb qilish, resurslardan foydalanishlarida doimiy qo'llab-quvvatlash lozim.

Gender tengligiga erishish va barcha xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish katta sarmoya talab qiladi. Resurslar kam bo'lsa, barcha manfaatdor tomonlarning hissasi qo'llanilishi kerak, muvofiqlashtirish xarajatlarni minimallashtirishga yordam berishi kerak va innovatsion yondashuvlar yangi moliyalashtirish manbalarini topishga imkon berishi kerak.

### *Iqtiboslar/Сноски/References*


*1. ILO (2023), World employment and social outlook: Trends 2023, International Labour Organization, Geneva, https://ilostat.ilo.org/data/.*

*2. Римашевская Н.М. Гендерные стреотипы в меняющемся обществе: опыт комплексного социального исследования. – М.: Наука, 2009. – 321 с.*

*3. Ржаницына Л.С. Женщины и рынок труда. – М.:Политиздат, 2000. – 75-76 с.*

*4. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. – T.:Fan va texnologiya, 2012. – B. 129-140.*

*5. Irmatova A.B. Innovatsion iqtisodiyotda ayollar mehnatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d… diss…. – Toshkent, 2021. – B. 17-18.*

*6. Rahimova N.X. O'zbekiston mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish: I.f.d. ... diss. avtoref. – T., 2007. – 24 b.*

*7,8. Рахимова Д.Н. Управление процессами развития трудового потенциала Узбекистана в условиях осуществления радикальных рыночных реформ: Дисс. ... док. экон. наук. – Т., 2000. –143 с.*

*9. Iqtisodiy faol aholi – mehnat bilan band bo'lgan fuqarolar va ishsizlar. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1011-son qarori 2-ilovasi. https://lex.uz/docs/3469433.*

*10. https://gender.stat.uz/uz/asosiy-ko-rsatkichlar/mehnat*

*11. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2*

***Bobomurod RABIYEV***
**"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot**
**instituti mustaqil izlanuvchisi**
**e-mail: rabiev2022@adu.uz**
**I.f.d., prof. X.X. Abduramanov taqrizi ostida**

# AYOLLAR UY XIZMATI MIGRATSIYASINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

♦ *Ushbu maqolada ayollar uy xizmati migratsiyasining mintaqaviy xususiyatlari tahlil qilingan, ayollar uy xizmati migratsiyasini samarali tashkil etish bo'yicha Osiyo va AQSH mamlakatlari tajribasi o'rganilgan hamda mamlakatimizda tadbiq etish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

♦ *В данной статье анализируются региональные особенности женской внутренней служебной миграции, изучается опыт стран Азии и США по эффективной организации женской внутренней служебной миграции, а также разрабатываются научные предложения и рекомендации для внедрения в нашей стране.*

♦ *In this article, the regional characteristics of women's domestic service migration are analyzed, the experience of Asian countries and the USA on the effective organization of women's domestic service migration is studied, and scientific proposals and recommendations for implementation in our country are developed.*

***Kalit so'zlar:*** *xalqaro mirgratsiya, mehnat faoliyati, ayollar uy xizmati migratsiyasi, xizmat ko'rsatish, Osiyo mintaqasi, AQSH mintaqasi.*

***Ключевые слова****: международная миграция, трудовая деятельность, миграция женщин-домашних работниц, предоставление услуг, Азиатский регион, регион США.*

***Key words****: international migration, labor activity, migration of female domestic workers, service provision, Asian region, US region.*

Kirish. Mamlakatimizda xotin-qizlar bandligini ta'minlash va tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Odam savdosidan hamda tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlariga amaliy yordam berish maqsadida turli grantlar ajratilmoqda [1].

Har bir kasbning o'z tarixi bor va shunday kasblar borki ular qadimdan to hozirgi kungacha ahamiyatini yo'qotmay shakllanib kelgan, bu uy xizmatchi kasbidir. Hozirga kelib uy xizmatchi migrantlar soni yildan-yilga ortib bormoqda, va ulardan 95 foizini ayollar tashkil qiladi. Shuningdek, mezoniga ko'ra, ikki yirik turga bo'linadi: birinchisi, o'z vatanida ishlovchi ayol uy ishchilari, ular boshqa hududlarda – poytaxtda, shahar markazlarida ishlasada asl vatanidan tashqariga chiqmaydilar, ikkinchisi esa xorijda mehnat qiluvchi ishchilardir. Tadqiqotlarga ko'ra, xorijda mehnat qiluvchilar ko'proq tazyiqga uchraydilar. Hozirda dunyo bo'ylab 75,6 mlnga yaqin ayollar uy xizmati migratsiyasida ishtirok etmoqda [1].

2020 yilda dunyo bo'ylab barcha xalqaro mehnat muhojirlari 280 mln., shundan 48 foizi (134,9 million) ayollar bo'lgan. So'nggi o'n yil ichida ayol muhojirlar soni 26 foizga o'sdi. Aksariyat ayollar ish, oila yoki ta'lim uchun migratsiya qilishadi. Ba'zilar tabiiy ofatlar tufayli o'z mamlakatlarini tark etishadi. Shuningdek ayollar qochqinlarning taxminan yarmini tashkil etadi [2].

2011 yil Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan uy xizmatchilari Konvensiyasi qabul qilindi va uy ishchilari ko'plab mamlakatlarda huquqiy himoyaga ega bo'lishdi. Ammo shunga qaramay, har o'nta uy ishchilaridan sakkiztasi norasmiy ishchi hisoblanadi, doimiy ish bilan ta'minlanganlik samarali mehnat va ijtimoiy himoya yo'q tirikchilik qilayotgan millionlab uy ishchilarining zaifligi aniq edi. Konvensiya va uning ushbu sohaga bag'ishlangan tavsiyasi uy ishchilarini va uy ishlari migratsiyasini ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi va tarixiy imkoniyatni taqdim etdi. Bunday qarorni qabul qilinishi dunyo bo'ylab uy xizmatini kasb singari tan olish va boshqa soha ishchilari singari munosib mehnat qilish huquqiga ega bo'ldi. Muhimi shundaki, bunday qarorlar mamlakatlarning mehnat va ijtimoiy muhofaza to'g'risidagi qonunlarni qay darajada kengaytirganligini, takomillashtirilganini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi 80 milliondan ortiq yoki 75,6 foiz uy ishchilari norasmiy ishdadir, bu esa boshqa mehnat vakillarining ulushidan ikki baravar ko'pdir. Ammo ularning o'rtacha ish haqi boshqa ishchilarnikiga qaraganda past hisoblanadi. Shu sababdan ham bu ijtimoy va iqtisodiy to'siqlarga, ko'p hollarda qonun buzilishi va migrant ayol ishchilarni huquqlarini poymol bo'lishga olib kelmoqda.

Davlatlarni rivojlanishi, xizmat ko'rsatish sohalarini takomillashuvi va tibbiyotni imkoniyatlariga ko'ra aholi o'rtasida uzoq umr ko'rishi va ularni ortib borishi nuqtai nazardan ham o'sishi mumkin bo'lgan sektor va doimiy ish kuchiga bo'lgan ehtiyot sezadi. Shuning uchun ushbu mavjud bo'shliqlarni to'ldirish yanada ustuvor vazifalardan biridir.

Dunyo bo'ylab 15 yoshdan katta 75,6 million uy xizmatchi ayollar mavjud bo'lib, dunyoda ishchilarga yirik ish beruvchilar Osiyo va tinch okean havzasi mintaqalariga to'g'ri keladi. Bu hududlarda yer yuzida barcha uy xizmati migrant ayollarning 50% ga yaqini ishlaydi. Amerika qit'asida esa 23 %, eng kam ulushi Markaziy Osiyo hududlarga to'g'ri keladi [3].

Ayollar xizmati muhim sohalardan biri bo'lib, dunyo bo'yicha bandlik boshqa sohalar bilan solishtirganda 4,5% tashkil etadi shuningdek uy ishi yumushlari og'irligi ko'ra mintaqalar bo'yicha farq qiladi.

**Tahlil va natijalar;** Uy xizmati migratsiyasida ishtirok etuvchi ayollar umumiy hisoblanganda Arab davlatlaridagi xodimlar soni – 14,8%, Lotin Amerikasi va Karib dengizi havzasida – 8,4%, Afrika hududlarda – 7,3%, Osiyo va Tinch okeani – 4,6%, Markaziy Osiyo – 1% tashkil qiladi, barcha migrant ayollarni 76,2% uy xizmat ishlarida band bo'lib, bu barcha sohalarda mehnat qiluvchilarini 8,8% ga tengdir. Arab Amirligi va Karib dengizi havzasi hududlarda mehnat qilayotgan migrant ayollarning har uchtasidan biri ushbu sohaga aloqador. Shu o'rinda taqqoslash uchun uy ishlari migratsiyasida 0,9%ni erkaklar tashkil qiladi. Erkaklar orasida eng katta guruhni Arab davlatlarida 23,2%, Janubiy Osiyo 21,8%, Sharqiy Osiyo 19,1%, Shimoliy Afrika 14,2% ega, yana bir jihati erkaklar uy ishlarida ayollardan ko'ra ko'pchilikni tashkil qiladigan hududlarga Arab davlatlari – 63,3%, Janubiy Osiyo – 42,6% to'g'ri keladi [4].

Umuman olganda, mintaqada ayollar uy ishlari bilan erkaklar yumushi farq qiladi. Erkaklar ayol ishchilar ustidan boshqaruvchi, qo'riqchi, ta'minotchi, yuk tashuvchi, uy hayvonlarga qarovchi va boshqa og'ir ishlarini ham bajarish mumkin. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilsak, Arab mintaqalarida uy ishchi xizmatchilarni ko'pligiga sabab:

tarixdan bu mintaqada podshohlik, amirlik hukm surgan uy ishlarini cho'ri va qullar bajargan, uyda ishchi ishlatish urfga aylangan;

aholini ko'pligi sabab uy xizmati sohalarini shakllanishiga va arzon ishchi kuchining mavjudligi tufayli.

Amerika mintaqasi dunyoda ayollar uy ishi migratsiyasi bo'yicha Osiyo va Tinch okeani mintaqasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mintaqada 17,6 mln. 15 yoshli va undan katta yoshdagi erkaklar va ayollar uy ishchilari sifatida, dunyo bo'ylab hisoblaganda




**1-rasm. Uy ishchilarini jinslar va mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi.**

***Manba:*** *Innovation in Personal and Household Services: Synthesis Report of the 8th European Conference on Personal and Household Services. Brussels. 2020.*

23 foizni tashkil etadi, shu jumladan Braziliyada – 6,4 mln, Meksika – 2,4 mln, Amerika Qo'shma Shtatlari – 1,9 mln kishidan iborat. Mintaqaviy darajada uy ishlaring ulushni 3,7 foizda bo'lsa, umumiy bandlikda ulushi 5,1 %ga teng, lekin bu ko'rsatkichlar mamlakatlar bo'yicha farqlarlandi. Urugvay – 7,9%, Peru – 2,4%. Mintaqada rivojlangan mamlakat Argentinada uy ishchilari ulushi 8,1 foizga ega.

Ayollarning aksariyati Lotin Amerikasi va Karib dengizi havzasida uy ishchilari sifatida ishlaydilar, uy ishchilarining ular 19,6 foizini tashkil etadi. Dunyoning boshqa joylariga qaraganda, mintaqada uy ishlari asosan ayollarning kasbi bo'lib qolmoqda. Dunyodagi ayol uy ishchilarining 91,1 foizi bo'lgan hududlar ham aynan shu yerda joylashgan. Shuningdek, mintaqada ayollar o'rtasida ish bilan ta'minlanganlik darajasi esa har to'qqizdan biri uy ish xizmati bilan band [5].

**Osiyo va Tinch okean havzasi mintaqasi.** Hozirda dunyodagi eng yirik ishchi salmog'iga ega bo'lgan hududlardan hisoblanib, bu yerda 38,3 mln. uy ishchilari istiqomat qiladi, butun dunyo bo'ylab aynan uy xizmati sektorida faoliyat olib borayotganlarni 50,6% shu yerga yig'ilgan.

Dunyodagi eng ko'p aholiga esa bo'lgan birgina Xitoyda 22 mln. ayol uy xizmatchi istiqomat qiladi. Hindistonda – 4,8 mln, Filippinda – 2 mln, Bangladeshda – 1,5 va Indoneziyada – 1,2 mlni tashkil etadi. Mintaqada joylashgan davlatlarda aholi anchagina zich, ishlab chiqarish va sanoat korxonalari talaygina, shuningdek uy xizmatchiligi boshqa soha vakillari bilan solishtirganda ularni salmog'i 4,6 %ni tashkil qiladi. Yana bir jihati, davlatlar orasida ham ichki va tashqi migratsiya dasturlari bo'lib, bu yerda ko'rsatilgan miqdor umumiy holda olingan bu fuqarolar boshqa qit'alarda ham ishlaydilar, masalan, filippinlik ayol Amerika, Yevropa va boshqa joyda ishlaydi, umumiy holda fillippinlik 2 mln. ayol uy xizmatchi ro'yxatiga kiradi.

Ko'pgina boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi bu yerda ham uy ishlari asosan ayollar tomonidan bajariladi – 78,4%. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi 8,3 mln. erkak uy ishchilari yoki 22%ni tashkil etib, shuningdek uy ishlarida erkaklar ulushi Janubiy Osiyoda yuqori – 46.6 mln. kishi, yana Janubiy-Sharqiy Osiyoda ayollar ulushi 85,9% ga ega [6].




**2-rasm. AQShda uy ishchilarini jinsi vazifasi bo‘yicha taqsimlanishi, %.**

**Manba:** *Economic Policy Institute (EPI) analysis of Current Population Survey basic monthly microdata, EPI Current Population Survey Extracts, Version 1.0.2 (2020), https://microdata.epi.org*




**3-rasm. Mahalliy va xorijiy uy ishchilarini kasb bo‘yicha taqsimlanishi, %.**

**Manba:** *Economic Policy Institute (EPI) analysis of Current Population Survey basic monthly microdata, EPI Current Population Survey Extracts, Version 1.0.2 (2020), https://microdata.epi.org*

**AQSh.** Hozirgi kunda uy xizmatchi sohasida ishlaydigan migrantlar bilan qo‘shib hisoblaganda 2,2 mln. kishini tashkil etadi va jahonda uy ishchi migrantlar salmog‘i bo‘yicha Osiyo mintaqasidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Quyidagi ma’lumotlar mintaqa uchun xarakterga ega:

uy ishchilarining aksariyati (91,5%) ayollar va yarmidan ko‘pi (52,4%) qora tanli, ispan yoki Osiyo, Amerikalik va tinch okeani mintaqasidan kelgan migrant ayollaridir;

uy ishchilarining aksariyati (64,9%) AQSH fuqaroliga ega bo‘lsada aslida AQSHdan tashqarida tug‘ilgan;

AQShda tug‘ilib uy xizmatida ishlaydiganlar boshqa (migrant) ishchilarga qaraganda yoshi kattaroq;

AQShda uy ishchisiga soatiga o‘rtacha 12,01 dollar to‘lanadi, bu boshqa ishchilarga qaraganda ancha kam (soatiga 19,97 dollar to‘lanadi);

ijtimoiy jihatdan o‘xshash ishchilar bilan taqqoslaganda ham, uy ishchilari har bir dollardan uchun o‘rtacha 74 sent kundalik sarf-xarajat uchun ishlatishadi;

uy ishchilari boshqa ishchilarga qaraganda qiyinchilikda yashash ehtimoli uch baravar, yoki qashshoqlik chegarasidan yuqori bo‘lish ehtimoli deyarli uch baravar ko‘p, kun kechirish uchun bu kasb past daromadlidir;

uy ishchisidan har oʻntadan bittasi ish beruvchi tomonidan taqdim etilgan pensiya jamgʻarmasi bilan qoplanadi, har beshdan biri tibbiy sugʻurta qoplamasini oladi [6].

AQShda uy ishlarida umumiy holda 91,5% ayollar band boʻlib, kasblar boʻyicha bola qarovchi eng koʻp foizni tashkil etadi, yani 97,2%. Yana shuni koʻrish mumkinki, ayollar va erkaklar salmogʻida barcha ishchilar hisobida 53,7% erkaklar boʻlib, ular yuqorida aytganimizdek qoʻriqchi, haydovchi, bogʻbon, hayvonlarga qarovchi va ayrim kasblar bilan shugʻullanishadi.

Bizga maʼlumki, AQSh aholi orasida migrantlar salmogʻi boʻyicha jahonda birinchi oʻrinda turadi, yani 50 mln.dan ortiq. Shunga koʻra, 35 %dan ortiq uy ishchilari mehnat muhojirlari hisoblanadi. Mamlakatdagi barcha ish oʻrinlaridagi 17% migrant boʻlib, har 5 ta fuqarodan bittasi migrant hisoblanadi – 20,1%. Har yetti fuqarodan biri boshqa davlatda tugʻilgan va AQSH pasporti boʻlgan ishchilardir 14,8% [7].

Fuqaroligi mavjud boʻlmagan migrant ayollar orasida uy tozalovchi sifatida ishlaydiganlar salmogʻi eng yuqori reytingda – 50,8%, ikkinchi oʻrinda umumiy holda uy ishchilari – 20,3%, uchinchi oʻrinda enagalar – 16,9%. Mamlakatda ish topib beruvchi mehnat birjalari ham faoliyat koʻrsatadi va unga toʻgʻridan-toʻgʻri murojaat qilib ish topish mumkin. Soʻnggi yillarda uy xizmatchilarga talab ancha ortgan va bu Covid 19 pandemiya paytida ishchilarga boʻlgan talab eng yuqori sohalardan hisoblanadi. Mehnat birjalari orqali uy ishchiga yollanganlar 14,2% tashkil etib, bu ishchilar uchun xavfsiz va ijtimoiy sugʻurtalarga ega. Shuningdek, qonun doirasida belgilangan tartibda doimiy ravishda ish faoliyat olib borishini taminlaydi [8].

**Xulosa va takliflar.** Oʻzbekistonda 6,5 mln.dan ortiq iqtisodiy faol ayollar boʻlib, undan 872 mingta rasmiy ishsiz roʻyxatidan oʻtkanlardir. Ularning orasida koʻpchilik oilali hisoblanadi. Ishsiz ayollarni ish bilan taʼminlash va xorijga uy xizmati migratsiyasi boʻyicha yuborish yurtimizda kambagʻallikni qisqartishga qaratilgan amaliy ishlar sarasiga kiritish lozim.

Janubiy va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida uy xizmati sohalari ancha rivojlangan hisoblanadi va ular olib borayotgan izchil islohotlar oʻz samarasini bermoqda, shunday ekan bu davlatlardan andoza olgan holda mamlakatimizda uy xizmati sohasini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

AQShda va rivojlangan davlatlarda uy xizmati kasblari ichida eng koʻp talab bola qarovchi enaga uchun boʻlib, bolajon xalqimiz uchun mos keladigan yoʻnalish hisoblanadi va bizni yurtimiz ayollari tajribasidan foydalanib ular uchun tizim ishlab chiqish va xorijga malakali ishchi kuchi sifatida yuborish lozim.

Uy xizmatchi migrantlar asosan Janubiy va Janubiy-sharqiy Osiyo hududlariga toʻgri keladi va hozirgi kunda ayollar uchun eng maqbul kasb hisoblanib, xorijiy tajribalardan foydalanib Oʻzbekistonga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

Hukumat tomonidan ishlab chiqarilgan kambagʻallikni qisqartirish doirasida ayollarni uy xizmatchi kasbga yoʻnaltirish va xorijiy tillarni oʻrgatish oʻz samarasini beradi.

Rossiya, Turkiya va Isroilda oʻzbek ayollar hozirda qariyalarni parvarishlash ishlarida ishlaydi. Bu sohani davlat siyosati darajasida takomillashtirib, ularga huquqiy va ijtimoiy yordam berishimiz lozim.

O’zbekistonning xorijdagi elchixonalar bilan hamkorlikda 7/24 soat ishlaydigan internet platforma yaratib, xorijda mehnat qilayotgan ayollarni birlashtirib, zoʻravonliklar, tazyiqlar, or-nomusga tegish kabi hodisalarni oldini olish va huquqiy-psixologik koʻmak berish maqsadga muvofiq.

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, uy ishchilar asosan oʻrta yoshli hisoblanadi. Xorijga ishga ketayotganlarni muayyan yoshini belgilash bu esa ishga ketayotgan migrantlarni har bir ishga masʼuliyat bilan yondashishga yordam beradi.

***Iqtiboslar/Сноски/References***


*1. https://ourworldindata.org/female-labor-supply*

*2. Jeanne Batalova. Top Statistics on Global Migration and Migrants JULY 21, 2022,https://www.migrationpolicy.org/sites/default/files/source_images/Global_FRS2022-PRINT_FINAL.pdf.*

*3. https://www.ilo.org/moscow/news/WCMS_885506/langru/index.htm?shared_from=shr-tls (кўрилган вакт 25.04.24).*

*4. https://ilostat.ilo.org/resources/concepts-and-definitions/description-nternational-labour-migration-statistics/.(кўрилган вакт 25.04.24).*

*5. UNESCO institute for statistics. n.d. total inbound internationally mobile students, both sexes (number) (2019). accessed july 20, 2022. available online.*

*6. “Making Decent Work a Reality for Domestic Workers”. DIILM Update No. 2 https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/.*

*6. Domestic Workers Chartbook Report By Julia Wolfe, Jori Kandra, Lora Engdahl, And Heidi Shierholz / Economic Policy Institute) May 14, 2020.*

*7 . https://worldpopulationreview.com/state-rankings/immigrants-by-state*

*8. Julia Wolfe, "Domestic Workers Are at Risk During the Coronavirus Crisis," Working Economics Blog (Economic Policy Institute), April 8, 2020.*

*9. Bamu, Pamhidzai. "A Pluralistic Approach to Organizing Migrant Domestic Workers: The Case of the Zimbabwe- South Africa Global Care Chain." International Journal of Comparative Labour Law and Industrial Relations 34, Issue 3 (September 1, 2018): 313–44. http://dx.doi.org/10.54648/ijcl2018014.*

*10. Boris, Eileen, and Premilla Nadasen. "DOMESTIC WORKERS ORGANIZE!" WorkingUSA 11, no. 4 (December 2008): 413–37. http://dx.doi.org/10.1111/j.1743-4580.2008.00217.x.*

This document was created with the Win2PDF “Print to PDF” printer available at

https://www.win2pdf.com

This version of Win2PDF 10 is for evaluation and non-commercial use only.
Visit https://www.win2pdf.com/trial/ for a 30 day trial license.

This page will not be added after purchasing Win2PDF.

https://www.win2pdf.com/purchase/